ISSN: 2181-3035

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz
+99891-152-93-14
talqin@bk.ru

№32
30.11.2023

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

UIF-2023: 8.2 | № 32

30.11.2023

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan Impuls tibbiyot instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li
TATU Farg'ona filiali, Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibragimova Mavluda Ro'zmetovna
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi

Djurayev Muxammadrizo Mamurovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Komilov Rustamjon Maxamadovich
Farg'ona davlat universiteti Agrar qo'shma fakulteti "Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar" kafedrasi katta o'qituvchisi, q.x.f.f.d (PhD)

Raxmonov Elyor Abdullajonovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jepbarova Sayat Qurbanmiratovna
Qoraqalpoq davlat universiteti Turkman tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg'ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri
q.x.f.f.d (PhD)

Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jo'rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna
O`zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti

Usmonov Odil Kamilovich
FarDU Axoli tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar kafedrasi dotsenti, q.x.f.n

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIY VAZIFALAR

Choriyeva Durdona Anvarovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi v.b.dotsenti
Choriyevadurdona76@gmail.som
Ubaydullayeva Mohira Muzaffar qizi
“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi”
yo’nalishining 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, bolalarni ta’lim-tarbiya sirlari bilan qurollantirish bilan bir qatorda, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarga hurmat va e’zozni shakllantirish, oilaning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muhim omillarini rivojlantirib borish chora-tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Oila barqarorligi, farovonligi, tinch-totuvligi, mustakamlikni, hamkorlikni ta’minlash, oila manfaatlari, maktabgacha ta’lim tizimi, ta’limiy-tarbiyaviy ma’rifiy-madaniy targ‘ibot va tashviqot ishlari, sistemalilik, hamkorlik, izchillik, uzviylik, ketma-ketlik tamoyillari, ijtimoiy vazifalar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy yuksalish.

Annotation. In this article, in addition to educating a spiritually and physically mature generation in family and preschool educational organizations, children are armed with the secrets of education, respect and admiration for the values of our people, formed over centuries, is formed, protecting the economic and social interests of the family, measures for the development of important factors are highlighted.

Keywords. Ensuring family stability, well-being, peace, continuity, cooperation, family interests, preschool education system, educational and cultural propaganda and agitation, systematization, cooperation, consistency, coherence, principles of continuity, social tasks, socio-political, spiritual growth.

Аннотация. В данной статье, помимо воспитания духовно и физически зрелого поколения в семейных и дошкольных образовательных организациях, вооружается детьми секретами воспитания, формируется уважение и преклонение перед ценностями нашего народа, формировавшимися веками, защищая экономические и социальные интересы семьи, выделены меры по развитию важных факторов.

Ключевые слова. Обеспечение стабильности семьи, благополучия, мира, преемственности, сотрудничества, интересов семьи, системы дошкольного образования, образовательной и культурной пропаганды и агитации, систематизации, сотрудничества, последовательности, слаженности, принципов преемственности, социальных задач, социально-политического, духовного роста.

Insoniyat tarixida oilaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi, uning etnopedagogikasi va etnopsixologiyasi - mohiyatini davr talabi nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganish, ilg‘or g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish oila farovonligi va barqarorligini ta’minlash uchun zamindir. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida umumjahon ilg‘or tajribalardan o‘zbek oilasi mentalitetiga mos foydalanish O‘zbekiston oilasini jahonga namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, bolalarni ta`lim-tarbiya sirlari bilan qurollantirish bilan bir qatorda, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan kasb-hunar, qadriyatlarga hurmat va e’zozni shakllantirish oilaning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanmish oila barqarorligi, farovonligi, tinch-totuvligi va mustakamligini ta’minlash bilan bog'liq masalalarni hal etishda jamiyatning ushbu masalaga daxldor barcha institutlarning hamkorligini ta’minlash oila manfaatlarini ta’minlashda ijobiy samaralar garovidir.

Oila - maktabgacha ta`lim tizimida amalga oshiriladigan barcha ta’limiy-tarbiyaviy ma’rifiy-madaniy targ‘ibot va tashviqot ishlari sistemalik, mustahkam hamkorlik, izchillik, uzviylik, ketma-ketlik tamoyillari asosida tashkil etilgan taqdirdagina jamiyat rivojida oila o‘zining ijtimoiy vazifalarini to‘la ado etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mustaqil respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy yuksalishning muhim omillaridan biri oila, mahalla, maktabning hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy jarayonni amalga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi va mas’ulyati orta boshlaydi. Azal-azaldan bola tarbiyasi bilan asosan ona shug‘ullanib kelgan. Otaning asosiy vazifasi esa oilani boqish bo‘lib, faqatgina uyda bo‘lgan vaqtda bolani nazorat qilib borish bo‘lgan xolos. Bola o‘z oilasida tevarak – atrofi qarindosh va yaqinlariga to‘la bo‘lgan muhitda tarbiyalanadi. Shu sabab bu kabi oilalar uning dunyoqarashi va xulqiga doim o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi, undagi tarbiyaning shakllanishiga o‘ziga hos fundamentni yaratadi. Ota-ona avvalambor o‘z farzandiga to‘g‘ri tarbiya berib borishga bu yo‘lda hamisha izlanishda bo‘lib, o‘qish va tajriba ortirish lozim yana shunisi ahamiyatliki, boladagi barcha xislatlar diniy axloq

bilan kamolga yetadi. Shu bois tarbiya eng avvalo go‘zal fazilatli axloq bilan bezatilmog‘i darkor.

Axloqiy tarbiyaga esa har bir insonning muqaddas go‘shasi, boshpanasi hisoblangan oilada asos solinadi. Bu yo‘lda ota-onalar o‘zlarining odob-axloqi bilan ibratli bo‘lishlari lozim, chunki ota-onalar bolaning, ilk bora ko‘zini ochishdan to yoshi katta bo‘lib aqlini tanigunga qadar bo‘lgan vaqtda bo‘lib kelgan hayotlaridagi birinchi tarbiyachilari hisoblanadi. Shuni ham alohida aytish lozimki, bola tarbiyasiga hech bir narsa namuna kabi kuchli tasir o‘tkaza olmaydi.

Oiladagi tarbiya, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, xulqiy, axloqiy va boshqa sifatlarga asos soladi, teran shakllantiradi va negizidan kamol toptiradi. Oila jamiyatning kichik bir o‘chog‘laridan biri hisoblanib, bu dargohda kelajakda katta poydevorga asos soladigan barkamol avlod voyaga yetadi. Shuni unutmasligimiz lozimki, shaxsning shakllanishi nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Oilaviy tarbiya bolaning umumiy va o‘ziga xos rivojlanishini ta`minlash bilan birga, mavjud imkoniyatlarini va aqliy tafakkurini yuksaltiradi. Bolaning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, axloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli, intellektual salohiyatli bo‘lib o‘sishdan jamiyatimiz ham manfatdor. O‘quv tarbiyaviy muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilishidan qat`iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlari va maktablar ta`lim berib tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Shu imkoniyatlar bois bolaning tarbiyasiga ta`siri kuchli bo‘lib uzoq davom etadi.Ota-onalarning farzand uchun fidoiy bo‘lishi, bu o‘zbek millati mentalitetining o‘ziga xos bo‘lgan ajoyib fazilatlaridan biridir. Yoshlarimiz ilm-fan madaniyat, texnika san`at va sport yuksak darajada rivojlangan bir sharoitda ulg‘aymoqda. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari tarbiyaviy masalalarda xalq donishmandligi, azaliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan uyg‘unlashib ketganligini hisobga olgan holda ota-onalarning bolalar tarbiyasiga bo‘lgan munosabati, oiladagi o‘zaro muloqot, keksa yoshdagilar va bolalarga beminnat g‘amxo‘rlik, kabi o‘y-fikrlari aks ettirilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oilada bolaning nutqining shakllanishi va rivojlanishi barobarida ular onggiga kattalarga hurmat, do‘stlik, halollik, insoniylik tushunchalarini singdirib boriladi. E`tibor qilgan bo‘lsangiz, xuddi shu vaqtda ular atrofdagilarni turli xil savollarga ko‘mib tashlashadi, olgan javoblari qanday bo‘lishidan qat`iy nazar ularning kelgusi hayotda dasturilamal bo‘lib qoladi. Huddi shuningdek oiladagi har kungi yumushlari davomida bolalarning xulq atvori shakllanib boradi va keyinchalik axloqning o‘ta murakkab shakillari: jamoatchilik , vatanparvarlik, faollik kabi jarayonlar davom etadi.

Ota-ona o‘z farzandlarida maqsadga intiluvchanlik, botirlik, ishga mas`uliyat bilan yondashish hislatlarini shakllantirib borish ham katta ahamiyatga ega. Bunda qizlarni yoshi ulg‘aygan sari oilaviy hayotga tayyorlash, ularni yangi oilada odob-axloq me`yorlariga, urf-odatlariga oila yumishlariga va hayotning nozik sohalariga

puxta tayyorlab borish vazifasi ham oiladan, ayniqsa onadan juda katta mehnat va metin irodani talab etadi. Farzandlar mustaqil oila qurishganda, yangi oilasi qanchalik mustahkam yoki barbod bo‘lishi, qiz bolaning o‘z oilasiga olib kelgan tarbiyasiga nechog‘lik bog‘liqligini ko‘pchilik onalar yaxshi anglaydilar. Agar oilada ota-onalar halol mehnatlari evaziga hayot kechirayotgan bo‘lsalar, bunday oiladagi farzandlar hayotga, o‘z harakatlari va mehnatlari bilan munosib inson bo‘lib voyaga yetadilar. Bola hayot haqidagi yaxshilik va yomonlik, foydali yoki zararli tushunchalarni birinchi bor oilada ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillaridan oladi. Shu jihatdan ota –ona ma`nan yuksak, ahloqan pok, rostgo‘y va madaniyatli bo‘lmog‘i darkor. Ayniqsa hozir tobora yo‘q bo‘lib ketayotgan odob namunasi bilan ibrat ko‘rsatmog‘i juda muhimdir.

Bolani mehnat orqali tarbiyalash ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki qadim-qadimdan mehnat tarbiyaning asosidir. Inson tarbiyasi mehnatga bo‘lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Mehnatsevar bolaning ota-onasi nomiga hamisha rahmatlar aytiladi. Mehnat bu hayot, desak ham o‘rinsiz bo‘lmaydi, negaki hayotni mehnatsiz tasavvur qilish qiyin. Ko‘pchilik oilalarda bolani yoshligidanoq hunarga, ma`lum bir bir kasb to‘garaklariga, umuman mehnatga o‘rgatib borish odat tusiga kirib, ota-bobolardan qolgan an`ana va udum hisoblangan. Bu juda quvonarli hol, chunki bolaning qanday kasb tanlashi juda muhim hayotiy masala bo‘lib, uni hal qilishda oila yordami ahamiyatlidir.

Oilada yaxshi mehnat qiladigan bolalar maktabda ham a`lochi, tirishqoq va jamoatchi bo‘lishadi. Katta oilalarda ota-ona berish kerak bo‘lgan tarbiyaning anchagina foizini bolalar aka-ukalaridan qarindosh-urug`laridan o‘zlashtirib olishadi. Shu sababli bunday oilalarda janjal to‘polon emas, balki o‘zaro hurmat, do‘stlik, sokinlik va osoyishtalik hukm suradi. Ular uyidagi mehnati orqali jamoatchilikning dastlabki sabog‘ini olishadi. Bazi nosog‘lom muhitdagi oilalarda ko‘ngilsiz voqealar bo‘lib turishi ham sir emas.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga

salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bola xulqi – tarbiya samarasidir. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning xulqi oila va maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi hayot sharoiti ta’sirida tarkib topadi hamda uning kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Kattalar va o‘rtoqlarining namunasi, ota-onalar va pedagoglarning bola oldiga qo‘ygan talablari uning hulqiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bolaning xulqi, eng avvalo, kattalar bilan o‘rtasidagi noto‘g‘ri tarkib topgan munosabatlar natijasi bo‘lgani uchun ham ishni shu munosabatlarni o‘zgartirishdan boshlash kerak. Asosiysi, bolaning butun turmush tarzini kattalarning u bilan bo‘ladigan muomalasi o‘zgartira bilishi kerak. Bolaning ayrim, tasodifiy qiliqlaridan ham fe’lida yomon xislatlar paydo bo‘lishi, agar o‘z vaqtida buning oldi olinmasa, so‘ngra kechikishi ham mumkin. Ayrim xislatlar bolaning ilk yoshlik chog‘ida hosil bo‘ladi. Keyinchalik bulardan shaxsning fe’li tarkib topadi. Agar biz bolani yoshligidan boshlab o‘z kuchi va imkoniyatlariga yarasha istak – xohishlarini cheklashga, atrofdagi odamlar fikri bilan hisoblashishga o‘rgatmas ekanmiz , u holda bunday bolani o‘rinsiz qiliqlardan tiyib qolish qiyin.

Maktabgacha ta`lim aholining, birinchi navbatda, ota-onalarning pedagogik uquvini amalga oshiradi, har bir oilada o‘zaro hurmat, bir-biriga yordam, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalarning bolalariga moddiy yordam ko‘rsatish yo‘lida fuqaro mehr-shafqat dasturini amalga oshirishda o‘zining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beradi. Oila esa, o‘z navbatida o‘quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda maktabgacha ta`limga yaqindan yordam berib, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasining barcha jabhalarini egallashlari uchun maktabgacha ta`lim jamoasiga yaqindan ko‘maklashadi. Shuning uchun ham oila, maktab va mahalla hamkorligi masalasi hozirgi davrning asosiy talabidir. Maktab tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning pedagogik jihatdan malakali, maqsadga muvoflq omillariga hamda keng imkoniyatlariga ega. Maktabgacha ta`limdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar pedagogik-psixologik qoidalarga amal qilinmagan, maktabgacha ta`lim, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy jarayonidagi talabi bir xilda bo‘lmagan taqdirda oilada ayrim hollarda tarbiyasi og‘ir bolalar paydo bo‘ladi, murakkab muammolar yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olishning muhim vositasi oila-mahalla va maktabgacha ta`limning hamkorlik dasturi asosida ta’lim-tarbiyaviy ish olib borishni ta’minlashdan iboratdir. Bunday mushtarak tarbiya asosida avlodlar vorisligi yotmog‘i lozim. Vorislikni ta’minlashning muhim omili oila qadriyatlariga asoslanishdan iboratdir. Eng muhimi, yoshlar onggiga, shuuriga kattalarga hurmat, ishda, o‘qishda odamlar bilan munosabatda ota-onadan o‘mak olish, tarbiya, mehnat, insonparvarlik, vatanparvarlik qadriyatlarini chuqurroq o‘rganish va ularga amal qilish, umriboqiyligini ta’minlashdek muhim ishni amalga oshirish

bugungi kunda ijtimoiy ehtiyojga aylanib qolmog'iga erishish zarur. Yana bir muhim masala - bu qizlarning, onalarning jismoniy salomatligi. Bu masala oilaviy sportni rivojlantirish, uni ommalashtirish masalasi bilan bog‘liq. Zero, jismonan chiniqqan qiz bola ertaga ona bo‘lganda, uncha-muncha infeksiyaga yoki xastalikka bardoshli, uning bolasida ham immunitet kuchli bo‘lishi fanda isbotlangan. Hammamizga ma’lumki, bugun yurtimizda sportga va aynan bolalar sportini rivojlantirishga mamlakat rahbarining o‘zi boshqosh bo‘lib turibdi. Demak, bu strategik maqsadimiz - milliy genofondni yaxshilash, barkamol va sog‘lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat pog‘onasiga ko‘taradi.

Shuni ta’kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullangan ota-onalarning farzandlari ta’lim muassasasida o‘z imkoniyatlarini mashg‘ulot jarayonida qiynalmasdan ko‘rsata oladi. Oila va ta’lim muassasaslarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma’naviy shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar uchun vaqti-vaqti bilan trening, munozara, test, so‘rovnomalar o‘tkazib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg‘ulot farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a’zolarining mas’uliyati oshadi.

Ta’lim tashkilotlarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o‘tkaziladigan har bir munozara bolalarni maktabning ilk bosqichiga yengil qadam qo‘yishida hamda sog‘lom bola va sog‘lom muhit sharoitini mustahkam yaratishga imkon beradi. Treninglar maktabgacha ta’lim tashkilot uslubchisi, maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirokida o‘tkazilishi bola rivojlanishida to‘g‘ri tashxis qo‘yishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmoni.

3. S.Mirdjalilova, R.To‘laganova “Ta’limda innovatsiya”, “Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar” metodik tavsiyanoma, 2008 yil.

4. N.S. Sayidahmedov, N.N. Indiaminov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” Fan va texnologiya 2014.

5. J.R. Amanov. Boshqaruv psixologiyasi imkoniyatlari asosida. 2018.

6. Safarov O,Mahkamov M,Oila ma’naviyati,Uslub qo‘llan T Ma’naviyat, 2009.

7. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.

8. Mutalipova M. “Xalq pedagogikasi” T. “Bayoz”. 2013y.

9. G.N.Volkov « Etnopedagogika» . T-Fan . 2000 y .

10. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.

11. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.

12. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).

13. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.

14. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.9. 09.014 Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.

15. Chorieva, D. A. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

ASSESSING STUDENT'S SPEAKING SKILLS IN ENGLISH LESSONS: TECHNIQUES, CHALLENGES, AND EFFECTIVE PRACTICES

Islomova Sevinch Fazliddinovna
student at Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan
Scientific advisor: Ph.D. Yugay Yevgeniya
lecturer at Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Abstract: This research paper investigates Speaking skills which are defined as the skills which allow us to communicate effectively. They give us the ability to convey information verbally and in a way that the listener can understand. Criteria, pronunciation, vocabulary, accuracy, communication, interaction and fluency are all markers of a student's overall speaking abilities. Students may excel in one and struggle in another, and not necessarily the ones you might think.

Keywords: speaking skill, assessment, English lessons, techniques, effective practices.

INTRODUCTION

The ability to communicate effectively in English is a vital skill for students in today's globalized world. This thesis examines various methods and techniques used to assess students' speaking skills in English lessons. It explores the challenges faced by teachers in assessing speaking skills and proposes effective practices to overcome these challenges.

DISCUSSION

Understanding speaking skills and their significance

Understanding speaking skills and their significance is crucial in the context of language learning. Speaking skills refer to the ability to communicate effectively and express oneself in a target language, in this case, English. These skills encompass various aspects, such as fluency, accuracy, vocabulary usage, pronunciation, and coherence. The significance of speaking skills lies in their role in real-life communication, as they enable individuals to engage in conversations, discussions, presentations, and negotiations. Proficiency in speaking helps learners express their thoughts, share ideas, and convey messages clearly and effectively. Moreover, speaking skills are essential for building social connections, participating in academic or professional settings, and enhancing overall language confidence. Therefore, understanding and developing speaking skills is vital for successful language acquisition and enables learners to engage in meaningful and authentic communication in the English language.

Techniques for Assessing Speaking Skills

Techniques for assessing speaking skills encompass a variety of approaches that allow educators to effectively evaluate students' oral proficiency. Conversation is a widely used technique that involves engaging students in spontaneous, one-on-one or group discussions to assess their ability to communicate naturally and fluently. Role-plays and dialogues provide students with scenarios to demonstrate their language proficiency in specific contexts. Presentations allow students to showcase their speaking skills by delivering prepared talks or speeches. Discussions and debates stimulate critical thinking and encourage students to express their opinions with supporting arguments. Pronunciation exercises focus on assessing students' ability to produce accurate sounds, intonation, and stress patterns. Listening and responding tasks evaluate students' comprehension and ability to engage in meaningful conversation based on audio or video stimuli. Task-based assessments incorporate real-life situations, requiring students to use English in practical settings. By utilizing these varied techniques, educators can gain a comprehensive understanding of students' speaking abilities and provide valuable feedback to support their language development.

Challenges in Assessing Speaking Skills

Assessing speaking skills presents several challenges that educators must navigate. One prominent challenge is the subjectivity involved in evaluating speaking proficiency. Different assessors may have varying interpretations and criteria, leading to potential inconsistencies in the assessment process. Additionally, assessing speaking skills can be time-consuming, especially in larger classrooms, which limits the extent to which each student's abilities can be thoroughly evaluated. Furthermore, managing classroom dynamics during speaking assessments can be challenging, as some students may feel anxious or self-conscious, potentially influencing their performance. Another challenge lies in defining clear and measurable criteria for assessing speaking skills, ensuring that assessments align with curriculum objectives and language proficiency standards. Overcoming these challenges requires the use of standardized assessment criteria, consistent training for assessors, and the incorporation of formative assessment practices to provide ongoing feedback and support to students. By addressing these challenges, educators can enhance the reliability and validity of speaking assessments and effectively assess students' proficiency in English speaking skills.

Effective Practices for Assessing Speaking Skills

Effective practices for assessing speaking skills involve a combination of strategies that promote accurate and fair evaluation while providing meaningful feedback to students. One important practice is the establishment of clear assessment criteria and rubrics that outline specific expectations for different levels of proficiency. These criteria should encompass various aspects of speaking, such as fluency, accuracy, vocabulary usage, pronunciation, and coherence. Assessors should undergo

training to ensure consistency and reliability in their evaluations. Additionally, incorporating a mix of assessment techniques, such as conversations, role-plays, presentations, and discussions, allows for a comprehensive evaluation of students' oral proficiency. It is also beneficial to use authentic tasks that mirror real-life situations, as they provide a more practical context for students to showcase their speaking skills. Providing constructive feedback to students is another vital practice. Feedback should focus on both strengths and areas for improvement, offering specific suggestions and strategies to help students enhance their performance. Finally, integrating formative assessments throughout the learning process enables ongoing monitoring of students' progress, allowing for timely interventions and tailored support. By implementing these effective practices, educators can optimize the assessment of speaking skills and foster continuous improvement in students' English language proficiency.

Best Practices in Providing Feedback

- Explain the significance of constructive and personalized feedback in fostering speaking skills development.

- Discuss effective feedback techniques, such as highlighting strengths, providing specific suggestions for improvement, and focusing on individual student needs.
- Emphasize the importance of creating a supportive and encouraging environment for students' growth.

CONCLUSION

Assessing speaking skills is a critical component of English language education, as it plays a pivotal role in effective communication and language proficiency development. By employing various techniques such as conversations, role-plays, presentations, and discussions, educators can gain valuable insights into students' oral proficiency. Though challenges, such as subjectivity and time constraints, exist, implementing effective practices such as clear assessment criteria, assessor training, and providing constructive feedback can enhance the validity and reliability of assessments. Additionally, integrating formative assessments supports ongoing student progress and targeted support. By employing these strategies, educators can accurately evaluate students' speaking skills, provide meaningful feedback, and facilitate their language growth. Ultimately, robust assessment practices contribute to the comprehensive development of students' communication abilities, empowering them to engage confidently and competently in English-speaking environments.

References:

1. Saville, N., & Hawkey, R. (Eds.). (2016). The IELTS Speaking Test: Strategies and Techniques. CreateSpace Independent Publishing Platform.

2. Hughes, A. (2003). Testing for Language Teachers. Cambridge University Press.

3. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. Oxford University Press.

4. Folse, K. S., Hadley, A. O., & Tice, R. (2020). Assessing Speaking. In The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching.

5. Luoma, S. (2004). Assessing Speaking. Cambridge University Press.

6. Fulcher, G. (2003). Testing Second Language Speaking. Person Education Limited.

THE IMPORTANCE AND USE OF LITERATURE IN LANGUAGE TEACHING TO YOUNG LEARNERS

Ubaydullayeva Baxtigul O‘ktamjon qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages
Faculty of English philology, teaching methodology and translation studies
Teacher of the integrated course of English language teaching

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyotining ingliz tili o’rganish jarayonidagi o’rni va ahamiyati,adabiyot namunalaridan dars jarayonida foydalanish bolalarda, tilni asl holida o’zlashtirish imkonini berishi, tanqidiy fikrlash va inson his tuyg’ulari namoyon bo’lishini kuzatish imkonini berishi to’g’risida fikrlar berilgan.

Kalit so’zlar: bolalar adabiyoti, leksik birliklar, tanqidiy fikrlash, xulosalar, insoniy munosabatlar, emotsiyalar, tasavvur, jahon adabiyoti,kitobga mehr uyg’onishi.

Annotation: In this article, author gives some thoughts about the importance of introducing English literature to preschool and elementary school children in learning English language and highlights advantages and opportunities of this issue such as developing creative thinking and widening their outlook.

Key words: children's literature, lexical units, critical thinking, conclusions, human relations, emotions, imagination, world literature, pre reading activities.

(…) in literature we find not reference to reality conventionally conceived but representation of alternative constructs of reality, not actual but possible worlds, existing in a different dimension. These cannot of their nature simply be recognized by calling up relevant schematic knowledge: they have to be realized through the language which creates them. – Henry G. Widdowson, Aspects of Language Teaching, 1990.

Literature is the formation of beautiful interactions and relationships in people's lives, in particular, from youth, people understand the nature of the world and events related to people. Using stories in language teaching particularly enriching and thought provoking. The educational value of using stories has always been undisputed throughout the world. Now more and more English as a foreign language teachers of young learners are using carefully selected stories from the world of children's literature because they have become more familiar with an acquisition-based methodology and because stories comply to the major objectives in most countries for foreign language teaching to young learners: linguistic, psychological, cognitive, social and cultural. EFL teachers use stories to supplement their core materials or to create self-contained units of work that constitute mini-syllabuses. In this way, a story provides the starting point and rich context for developing a wide variety of related language and learning activities involving children personally, creatively and actively

in an all-round whole curriculum approach. There is a great value in using literature with children, especially if your work with little children (2-6 years old) and is the fact that using "real" pieces of literature its better than using regular and "more conventional" specifically written EFL materials because you can use literature to teach them children about different topics, you not only can use it to teach grammar but also science, math, phonics, etc. A teacher can take one piece of literature and turn it into a different world so students can learn and develop a determinate skill about language. Not only do children learn the language appealing to their imagination and creativity, but also, they learn about the culture of the language they are learning and they broaden their knowledge of other realities. Especially, story books address universal themes and allow children to play with ideas, feelings and think about important issues, here the important thing is not to isolate children in a fantasy world but make them aware of what they will face in the real world in the future. Appropriate, quality literature goes far beyond stimulating children's literacy learning. Books help to convey messages of every kind and illustrate ideas in concrete, visual ways to help them make sense of their lives, of others' and of the world. They establish meaningful foundations for literacy, critical thinking, social interactions, emotional literacy and more.

Teachers have a great responsibility in the use of literature in the language classroom. It is very important is that teachers guide and help students to develop literary competence It is always up to the teacher if students are provided with what they need to have a good experience with literature so they can understand and react to what they read, or if it becomes a frustrating experience that will not help them learn and use language in the correct way.

In consequence, teachers should be very careful selecting the piece of literature that his or her students can understand. It's really a difficult thing to pick up an appropriate book or a story that meet students with multiple intelligences. It is true that sometimes it's better to use stories with reputation, authentic and rich in content, but not all pieces of literature with these characteristics can be use with non-native speakers, at least it is considered that with little children you need to use materials that can be easy for them to understand especially because not all the students in a class have the same level of English, so the task for the teacher is very difficult, because when she pick a piece of literature she has to take into consideration all these variables. Also another very important aspect to take into consideration is the illustration of a book, at least for children if a book does not have pictures that can help them get a part of a story then the book at least from my point of view is not appropriate for children, the whole idea of the illustration is not only to make the book look nice or pretty, but also to help the student get an idea in case that the written part is not enough. By the way it is really better to select authentic children's literature worldwide known. We cannot argue that stories transport a student in this case a child into another place It's

good to teach children that there is something more, something beyond the little world where they live to read a proposed piece of literature that leads to students critical thinking and creativity improvement. Storybooks address universal themes and allow children to play with ideas and feelings and think about important sows' These important issues are related to their families, friends, and all that matters for kid. If children read authentic literature, prized authors and stories they are exposed authentic English. Therefore, thus gives them excellent opportunities to learn vocabulary structure, to express their personal opinions and pressing good in English in a regular basis. Moreover, children pod not only to the English language but also to emotions.

Teachers have to include in their plans, pre-reading, while-reading, and post-reading activities to help students develop understanding. Beforehand, teachers should analyze the piece of literature to decide the kind of background students need to understand the story, poem or novel they are about to read. Students should be able not only to understand, but also to react, to make meaningful interpretations, to expand their knowledge (Lazar, G., p. 31). It is believed that building background is essential for students to understand the story. If they already know about the topic and have learned some key vocabulary, it is easier for them to understand the story and afterwards to respond to it. We suggest to be very careful while selecting the pre-reading activities that would lead students to gain the necessary background to understand the piece of literature. For instance, if learners are to read a story about the Caterpillar: that is an insect, they should learn about this piece of nature, and watch some videos or photos of this insect. If pupils can get the moral of a story or learn about a specific topic and this is the most rewarding feeling for the teacher.

The educational gains from using authentic children's literature are very rich indeed as reflected by pupils' personal response to the stories. Younger children (5-7-year-olds) respond in pictorial form and older pupils complete a more detailed written evaluation focusing on genre, characters, setting. illustrations, what they liked about the story and what they learnt from the story.

Here are some examples in response to the question. What did I learn from the story?

The Pied Piper: We must keep our promises and not be greedy.

Tusk Tusk (a story about how elephants became grey and tolerance); 1 learnt about tolerance and racism. I learnt to know how to respect others because we can't all be the same. You have to love each other.

The Very Hungry Caterpillar by Eric Carle: **In the beginning, the caterpillar eats healthily. Later, he eats more and more junk food until his stomach hurts. We should follow healthy eating.**

"Goodnight Moon" by Margaret Wise Brown: **I have learned a lot of new vocabulary**

Personal and professional development of the teachers implementing a story-based approach requires a great deal of energy. creativity and excellent classroom management skills and flexibility from teachers. In addition, on the final afternoon of the course children present their work to parents, which provides an ideal way of strengthening our parent/teacher relationships. This can, however, put teachers under a certain amount of strain as the performance of their pupils is often equated with their performance as teachers. As one teacher said it keeps you on your toes! In other words, it maintains high quality language teaching.

References:

1. “Literature and Language Teaching Guide for Teachers and Trainers”. G.Lazar 1993.
2. “The Very Hungry Caterpillar”. Eric Carle, Puffin Books, 1970.
3. “Goodnight Moon”. Margaret Wise Brown 2007.
4. www.penguinreaders.com.
5. www.realbooks.co.uk.

IJRO HOKIMYATINI PARLAMENT OLDIDAGI JAVOBGARLIGINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muhammadjonov Abrorjon Akmaljon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi
abrorma1997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyoning rivojlangan mamlakatlarida parlamentning ijro hokimyatini nazorat qilishi, O`zbekiston Respublikasida ijro hokimyatini parlament oldidagi hisobdorligi va javobgarligining huquqiy asoslari, hamda hukumat va parlamentning samarali faoliyatida parlament tekshiruvi va parlament so`ro`vini taminlashning huquqiy asoslari, shuningdek davlat boshqaruvini shaffofligini ta’minlashda ushbu huquqiy asoslardan foydalanishni zaruriy ehtiyoji va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Parlament nazorati, ijro hokimyatini javobgarligi, davlat boshqaruvi demokratlashtirish, javobgarlkning huquqiy asoslari.

Abstract: This article examines the control of the executive power of the parliament in the developed countries of the world, the control of the parliament in the democratization of management, the distribution of power, and the restraint of the legislative, executive, and judicial powers, as well as the role and importance of the control of the parliament in ensuring the correctness and efficiency of the management. The legal bases of the accountability and responsibility of the executive power before the parliament in the Republic of Uzbekistan, as well as the legal bases of ensuring parliamentary scrutiny and parliamentary inquiry in the effective functioning of the government and parliament, as well as the necessary need and practical importance of using these legal bases in establishing the transparency of public administration.

Kirish.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqauvini demokratlashtirish hamda uni ochiq va shaffof faoliyat yuritishda parlament nazoratini o`rni hamda ahamiyati ortib bormoqda. Davlat boshqaruvida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarni vakolatlari, shuningdek ularning faoliyatini tartibga soladigan mexanizmlari takomillashtirilmoqda, davlat boshqaruvini izchil va xalq manfaatlarini ko’zlab samarali tarzda olib borishda, parlament va hukumatni javobgarligining huquqiy asoslari yaratilmoqda, natijada ijro etuvchi hokimyat bilan parlament bir birini tiyib turish siyosatini amalga oshirmoqda. O`zbekiston Respublikasida ham parlement nazoratini amalga oshirish, shuningdek ijro hokimyatini qonun chiqaruvchi organ oldidagi javobgarligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ushbu huquqiy asoslarni amaliyotda qo’llashda yetarlicha muammolarga va normativ huquqiy

hujjatlardagi kamchiliklarga duch kelinmoqda, hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarni parlament nazoratini amalga oshirishdagi ilg'or tajribalari yetarlicha tadbiq etilmayapti. Bu esa davlat boshqaruvini xaqchil shaffof va tizimli faoliyat yuritishida muammolarga duch kelmoqda.

Asosiy qism. Ijro hokimyatining parlament oldidagi javobgarligi hokimyatlar bo`linishi hamda o'zaro bir birini tiyib turish,manfaatlar muvozanatini ta'minlashda muhim element hisoblanadi.Xorijiy mamlakatlatlar tajribasida hukumatning parlament oldida javobgarligi masalasi hukumatga nisbatan ishonchsizlik bildirish(tanbeh rezolyutsiyasi)odatda, javobgarlikning bunday chorasi jamoviy,ya'ni hukumatning barcha a'zolariga tadbiq etiladigan(Ispaniya, Fransiya, Yaponiya)yoki individual, ya'ni hukumatning ayrim a'zolariga qo'llaniladigan (Italiya) xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Ayrim davlatlarda hukumat ikkala palata oldida javobgar bo'lsa(Italiya), ayrimlarida esa faqatgina quyi palata oldida javobgar hisoblanadi.(Buyuk Britaniya, Fransiya)

Ishonchsizlik votumini bildirish (tanbeh rezolyutsiyasi) tartibi parlament yoki uning palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi,odatda, konstitutsiyada ishonchsizlik votumi haqidagi rezolyutsiyaning loyihasi qabul qilinishi mumkin bo`lgan deputatlarning minimal sonini belgilaydi (masalan Yaponiyada ularning soni 50 tani tashkil etadi) Masalan Germaniyada amaldagi hukumat rahbariga ishonchsizlik bildirish natijalari bo`yicha yangi kanslerni saylashdan iborat bo'lgan ishonchsizlik votumini bildirish imkoni belgilangan. Ayrim davlatlarda ishonch bildirish masalasi hukumatning o`zi tomonidan amalga oshirilishi mumkin,odatda – davlatning muhim masalalarini hal etishda o`zlarining nuqtai nazarlarini mustahkamlash uchun. Ishonchsizlik bildirish yoki ishonchni rad etish hukumatning iste'foga chiqishiga olib keladi, biroq muyyan vaziyatlarda parlament va palatalarning tarqalishiga olib kelishiga ham mumkin.[1]

O`zbekiston Respublikasida ijro hokimyatini parlament oldidagi javobgarligi masalasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi nuqtida parlament oldida hukumatning ma'sulyati masalasida"ijro hokimyati organlari rahbarlarining Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligini yanada oshirish kerak" deb ta'kidlaganlar edi.[2] Shuningdek 2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis palatalari bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayonida va ijro hokimyati organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasi ishtirokining samaradorligini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini bajarishda Hukumat ma'suliyatini kuchaytirsh maqsadida:

1. O`zbekiston Respulikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili(keyingi o`rinlarda Vakolatli vakil deb ataladi) lavozimini joriy etilsin

2. Quyidagilar: Vakolatli vakilning asosiy vazifalari etib belgilansin,

Birinchidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi apparatining tarkibiy bo'linmalari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimyati organlarining O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida ko`rib chiqiladigan qonunlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlashda o`zaro yaqin hamkorligini ta'minlash, ularni Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi apparatida ko'rib chiqish va axborot berish jarayonlarida ishtirok etish.

Ikkinchidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida qonun loyihalari, boshqa masalalarni muhokama etish va O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida qonun loyihalarini (qonunlarni) ko`rib chiqishda ishtirok etadigan Hukumat vakillari tarkibini shakllantrishda ishtirok etish;

Uchinchidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari bilan qonun ijodkorligi faoliyatida, avvalambor,mamlakat parlamentda qonunlarni ko`rib chiqish, muhkama etish va qabul qilish jarayonlarida yaqin hamkorligini tashkil etish;

**To`rtinchidan**, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida ko`rib chiqiladigan qonun loyihalari,qonunlar davlat dasturlari va boshqa masalalar yuzasidan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kelishilgan nuqtai nazarini ifoda etish;

Beshinchidan, Qonun ijodkorligi jarayoni, qonunchilik tashabbuslarining qabul qilinishi,parlament nazorati natijalari va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga taalluqli boshqa masalalarning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida ko`rib chiqilishi haqida Vazirlar Mahkamasiga tizimli asosda axborot berish;

Britaniya davlatida tashkil etildi. Ko‘rgazma Buyuk Britaniyaning “Dacore IT” kompaniyasi, Angliyaning Lester Davlat Tadqiqot Universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi alloma nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va mamlakatimizning Malayziyadagi elchixonasi ko‘magida tashkil etildi [9.4b]. Bu kabi ko‘rgazmalarning tashkil etilishi yoshlar ta’lim-tarbiyasida o‘ziga xos tarbiya maktabi vazifasini bajarmoqda. Allomaning boy merosini o‘rganish, tadqiq qilish borasida yurtimizda va jahon miqyosida olib borilayotgan islohatlarning o‘ziyoq allomaning naqadar buyuk shaxs ekanligini ko‘rsatib beruvchi yorqin dalillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-sonli qarori.

2. Ibn Hojar Asqaloniy. “Fathul boriy” “Dorul ma’rifa” 1959. Bayrut

3.“Ma’naviyat yulduzlari” “O‘zbekiston ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti T.: 2011

4. Orif Hoji. Qirq hadis va bir rivoyat Tashkent, “Fan va texnologiya” 2008.

5. M.J.Mutalipova. “Xalq pedagogikasi” T.: “Fan va texnologiya” 2015

6. Proceedings of the international workshop ancient and rare manuscripts of the «Sahih Al-Bukhari»in world libraries 2021-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjuman maqolalari to‘plami

7.Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Имом Исмоил Ал-Бухорий “Ал Жоми' ас саҳиҳ”.- 4 jildlik.

8. Ubaydulla Uvatov, Otabek Muhammadiyev “Imom al-Buxoriy” “Tafakkur” T.:2019.

9. “Xalq so‘zi” 2021-yil 2-iyun, №115(7895)

БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT PROCESS

Кадиров Фахриддин
ЎзР ИИВ 1-сонли Тошкент академик лицей бош ўқитувчиси,
техника фанлари номзоди, доцент
Рустамов Рахмат Мансурович
ЎзР ИИВнинг 1-сонли Тошкент академик лицей Умумтаълим фанлари
кафедраси бошлиғи, техника фанлари номзоди

Annotation: This article presents the concepts of effective use of information and communication technologies in the management process, electronic digital signature, electronic document management and e-government.

Аннотация: Мазкур мақолада бошқарув жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш, электрон рақамли имзо, электрон ҳужжат айланиши, электрон ҳукумат ҳақида тушунчалар келтирилган.

Калит сўзлар: бошқарув тизими, бошқарув жараёни, ахборот, электрон ҳукумат, электрон рақамли имзо, электрон ҳужжат айланиши.

Key words: management system, management process, information, electronic government, electronic digital signature, electronic document circulation.

Ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши мамлакатнинг рақобатдошлик даражасини ошириш, катта ҳажмдаги ахборотларни тўплаш ва уни умумлаштириш имконини бериши, бошқаришни стратегик даражада ташкил этиш учун кенг имкониятлар очиб беришини унутмаслигимиз зарур.

Ривожланган жамиятнинг муҳим жиҳатларидан бири унда тўхтовсиз ахборот алмашинишининг амалга оширилишидадир. Ихтиёрий корхона, ташкилотнинг самарали фаолият юритиш омили бу тўлиқ, ишончли ахборотларни ўз вақтида олишидадир.

Бошқарув жараёни ўз навбатида бошқарув объекти ва субъекти орасида ахборот алмашинувига боғлиқ. Шу сабабли бошқарув фаолиятида ахборот таъминоти муҳим аҳамият касб этади. Ўз вақтида ишончли ва тўлиқ ахборотларни бошқарув субъектига (рахбарга), белгиланган вақтда етказиб туриш бошқарув фаолиятининг ахборот таъминоти ҳисобланади.

Бошқарув жараёнида керакли ахборотларнинг бўлмаслиги тўғри ва ўз вақтида қарор қабул қилиш, ташкилотнинг ривожланиш стратегиясини аниқлаш

имконини чеклайди. Рақобатдошларга номаълум бўлган ахборотларга эга бўлиш корхона, ташкилотнинг мувофаққиятли фаолият кўрсатишига имкон яратади.

Бошқарув жараёни ахборот алмашинув даражасига боғлиқ бўлиб, ахборот алмашинуви орқали қуйидаги амаллар бажарилади:

- бошқарув объекти ҳақида кундалик ахборотларни йиғиш;
- олинган ахборотларни таҳлил қилиш, таққослаш ва хулоса қилиш;
- бошқарув объектига олинган ахборотлар асосида таъсир кўрсатиш;
- ахборотлар асосида ташкилотнинг норматив-методик базасини яратиш;
- ташкилотдаги ходимлар ҳақидаги ахборотларни йиғиш.

Юқоридаги фикрлар асосида айтиш мумкинки, ихтиёрий ташкилот, корхонанинг самарали фаолият юритишини ахборот-коммуникация технологияларисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу маънода республикамизда жамиятни ахборотлаштириш, ахборот-коммуникация технологияларидан кенг фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда ва унинг норматив-ҳуқуқий базаси такомиллаштирилмоқда.

Мустақиллик йилларида ахборот-коммуникация технологияларига оид қатор қонунлар қабул қилинди, жумладан “Ахборотлаштириш туғрисида”ги [1], “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги [2], “Телекоммуникациялар тўғрисида”ги [3], “Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида”ги [4], “Электрон рақамли имзо тўғрисида”ги [5], “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги [6]. Бу меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ахборот-коммуникация технологияларидаги асосий тушунчалар, талаблар, нормалар келтирилган ва улар ҳақида жамият аъзолари элементар бўлсада тушунчага эга бўлишлари ҳозирги кун талаби ҳисобланади. Шу сабабли қуйида асосий тушунчаларга тўхталиб ўтамиз.

Ахборот ўзи нима? Ахборот бу манбалари ва тақдим этилиш шаклидан қатъи назар шахслар, предметлар, фактлар, воқеалар, ҳодисалар ва жараёнлар тўғрисидаги маълумотлардир. Ахборот мулкдори эса ўз маблағига ёки бошқа қонуний йўл билан олинган ахборотга эгалик қилувчи, ундан фойдаланувчи ва уни тасарруф этувчи юридик ёки жисмоний шахсдир. Ахборот борасидаги хавфсизликка таҳдидларнинг олдини олиш ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш чора-тадбирлари ахборотни муҳофаза этиш ҳисобланади. Идентификация қилиш имконини берувчи реквизитлари қўйилган ҳолда моддий жисмда қайд этилган ахборот ҳужжатлаштирилган ахборотдир.

Электрон ҳужжат айланиши деганда нима тушунилади? Электрон ҳужжат айланиши электрон ҳужжатларни ахборот тизими орқали жўнатиш ва қабул қилиб олиш жараёнлари йиғиндисидан иборат бўлади. Электрон шаклда қайд этилган, электрон рақамли имзо билан тасдиқланган ва электрон ҳужжатнинг уни идентификация қилиш имкониятини берадиган бошқа реквизитларига эга

бўлган ахборот электрон ҳужжатдир. Электрон ҳужжатнинг мажбурий реквизитлари қуйидагилардан иборат: электрон рақамли имзо; электрон ҳужжатни жўнатувчи юридик шахснинг номи ёки электрон ҳужжатни жўнатувчи жисмоний шахснинг фамилияси, исми, отасининг исми; электрон ҳужжатни жўнатувчининг почта ва электрон манзили ҳамда ҳужжат яратилган сана.

Электрон рақамли имзо нима? Электрон ҳужжатдаги мазкур электрон ҳужжат ахборотини электрон рақамли имзонинг ёпиқ калитидан фойдаланган ҳолда махсус ўзгартириш натижасида ҳосил қилинган ҳамда электрон рақамли имзонинг очиқ калити ёрдамида электрон ҳужжатдаги ахборотда хатолик йўқлигини аниқлаш ва электрон рақамли имзо ёпиқ калитининг эгасини идентификация қилиш имкониятини берадиган имзо электрон рақамли имзодир. Электрон рақамли имзо воситаларидан фойдаланган ҳолда ҳосил қилинган, фақат имзо қўювчи шахснинг ўзига маълум бўлган ва электрон ҳужжатда электрон рақамли имзони яратиш учун мўлжалланган белгилар кетма-кетлиги электрон рақамли имзонинг ёпиқ калити бўлса, электрон рақамли имзо воситаларидан фойдаланган ҳолда ҳосил қилинган, электрон рақамли имзонинг ёпиқ калитига мос келувчи, ахборот тизимининг ҳар қандай фойдаланувчиси фойдалана оладиган ва электрон ҳужжатдаги электрон рақамли имзонинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш учун мўлжалланган белгилар кетма-кетлиги эса электрон рақамли имзонинг очиқ калити ҳисобланади.

Электрон ҳукумат нима? Давлат органларининг жисмоний ва юридик шахсларга ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш йўли билан давлат хизматлари кўрсатишга доир фаолиятини, шунингдек идоралараро электрон ҳамкорлик қилишни таъминлашга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлар ва техник воситалар тизими электрон ҳукумат деб қабул қилинган. Электрон ҳукуматнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

– давлат органлари фаолиятининг самарадорлигини, тезкорлигини ва шаффофлигини таъминлаш, уларнинг масъулиятини ва ижро интизомини кучайтириш, аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари билан ахборот алмашишни таъминлашнинг қўшимча механизмларини яратиш;

– ариза берувчилар учун мамлакатнинг бутун ҳудудида давлат органлари билан ўзаро муносабатларни электрон ҳукумат доирасида амалга ошириш бўйича имкониятлар яратиш;

– ўз зиммасига юклатилган вазифалар доирасида давлат органларининг маълумотлар базаларини, Ягона интерактив давлат хизматлари порталини ва Электрон давлат хизматларининг ягона реестрини шакллантириш;

– аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари билан ўзаро муносабатларни амалга оширишда электрон ҳужжат айланиши, давлат органларининг ўзаро ҳамкорлиги ва уларнинг маълумотлар базалари ўртасида ахборот алмашинуви

механизмларини шакллантириш ҳисобига давлат бошқаруви тизимида «бир дарча» принципини жорий этиш;

– тадбиркорлик субъектларини электрон ҳужжат айланишидан фойдаланишга, шу жумладан статистика ҳисоботини тақдим этиш, божхона расмийлаштируви, лицензиялар, рухсатномалар, сертификатлар бериш жараёнларида, шунингдек давлат органларидан ахборот олиш жараёнларида электрон ҳужжат айланишидан фойдаланишга ўтказиш;

– тадбиркорлик субъектларининг электрон тижорат, Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали маҳсулотни сотиш ва харидларни амалга ошириш тизимларидан фойдаланишини, шунингдек коммунал хизматларни ҳисобга олишнинг, назорат қилишнинг ва улар учун ҳақ тўлашнинг автоматлаштирилган тизимларини жорий этишни кенгайтириш;

– нақд бўлмаган электрон тўловлар, давлат харидларини амалга ошириш, масофадан фойдаланиш тизимларини ва банк-молия соҳасидаги фаолиятнинг бошқа электрон шаклларини ривожлантириш.

Бошқарув жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланишнинг яна бир муҳим жиҳати бу қоғозни тежашдир. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Республикада қоғозни тежаш ва ундан оқилона фойдаланишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” [7] қарорининг қабул қилинганлиги бу масалага алоҳида эътибор қратилаётганлигидан далолатдир. Қарорда давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, шунингдек маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари аппаратларида қоғоз сарфи йилига 10 фоиздан 40 фоизгача қисқарганлиги кўрсатилган.

Юқоридаги фикрлар асосида шуни хуласа қилиш мумкинки, ихтиёрий ташкилот, кохонанинг бошқарув жараёнида, умуман иш фаолиятида замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш замон талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 й., 1-2-сон, 10-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 36-сон, 452-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда. 2015 й., 52-сон, 645-модда.

3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 52-сон, 557-модда.

4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 20-сон, 230-модда.

5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.10.2022 й., 03/22/793/0918-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 49-сон, 611-модда.

7. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 30-сон, 252-модда; 2012 й., 36-сон, 412-модда.

EKOLOGIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abduraximov Abdulaziz Abdurazzaq o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
abduraximovabdulaziz416@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik huquqiy javobgarlik takomillashtirish masalalari, ekologiyani muxofaza qilish, yo‘qolib borayotgan tabiatni ayniqsa daraxtlar, o‘simliklar hamda hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalalari ilg‘or surilgan. Atrof muhitga, hayvonat olamiga zarar yetkazilgan taqdirda jinoiy javobgarlikga tortilish masalalari, xorijiy davlatlarda ekologik huquqbuzarliklar uchun qo‘llaniladigan ta’sir choralarni tahlil etish, shu bilan birgalikda ekologiya oid qonunlarni kodifikatsiya qilish ya’ni, ekologiya kodeksini yaratish haqida fikrlar yuritilgan.

Abstract: In this article, the issues of improvement of environmental legal responsibility, protection of ecology, protection of the disappearing nature, especially trees, plants and animal world are advanced. Issues of criminal liability in case of damage to the environment and animal world, analysis of measures of influence applied to environmental violations in foreign countries, codification of environmental laws, i.e. creation of ecological code, were discussed.

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы совершенствования эколого-правовой ответственности, защиты экологии, защиты исчезающей природы, особенно деревьев, растений и животного мира. Обсуждались вопросы уголовной ответственности за причинение вреда окружающей среде и животному миру, анализа мер воздействия, применяемых за экологические правонарушения в зарубежных странах, кодификации природоохранного законодательства, то есть создания экологического кодекса.

Kalit so‘zlar: Ekologik xavfsizlik, elektr-qarmoq, kodifikatsiya, moratoriy, ekologik qonunchilik.

Kirish

Tabiat bilan jamiyat bir-biri bilan o‘zaro uzviy aloqa va chambarchas bog‘liqlikda bo‘ladi. Bu uzviylik, o‘zaro ta’sir tabiatning umumiy qonuniyatlariga mos kelishi, o‘zaro teng muvozanatda bo‘lishni talab etadi. Aks holda bu muvozanatning buzilishi salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mavjudotning yashashiga xavf soladi. Shu sababdan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 62-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish lozimligi alohida belgilangan.

Xuddi shunday munosabat O‘zbekiston davlati olib borayotgan ekologik siyosatda, atrof-muhitni muhofaza etishga bag‘ishlangan qonunlarda o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov to‘g‘ri ta’kidlganidek, “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir”. Demak, bu g‘oya insonlarni tabiat hamda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resruslar va energiyadan oqilona foydalanish, energetika va ekologik xavfsizlik muammolarini oldini olishga zamon talabi asosida yanada e’tibor berilishini taqozo etadi.

Asosiy qism. Agar ekologik qonunlar ijrosini tahlil etadigan bo‘lsak, ularni ijrosi bo‘yicha sezilarli darajadagi oqsashni kuzatish mumkin. Bu ba’zan ekologik qonun hujjatlari talabini fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan buzilishi tarzida namoyon bo‘lmoqda.

Masalan, 2023-yilning 9 oyi ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son Farmoni bilan daraxtlar kesilishiga moratoriy amal qilishiga qaramasdan joriy yilning o‘tgan davrida daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog‘liq **2 427 ta** huquqbuzarlik qayd etilib, shundan 714 tup qimmatbaho navli daraxtlar noqonuniy kesilishiga yo‘l qo‘yilgan. Daraxtlarni noqonuniy kesish holatlari aniqlangan va tabiatga etkazilgan zarar 3,6 mlrd so‘mni tashkil etgandi.[1]

Ushbu holat tabiat va uning resurslariga bo‘lgan ehtiyojni yuqoriligini, bu esa o‘z navbatida, ekologik qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish me’yor va talablariga rioya etmaslik, tabiiy resurslardan foydalanish shartlarini va tartibini buzganlik, aholining mahsulot(xizmat)larning ekologik xavfsizligi talablarini bajarmaslik va atrof tabiiy muhitga zarar yetkazganlik holatlari uchun jinoiy, ma’muriy, intizomiy, fuqarolik javobgarliklar nazarla tutilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksida, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida 39 tarkibdagi huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus bob ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar” nomli XIV bobida 12 tarkibdagi ekologik jinoyatlar va “Boshqaruv tartibiga qarashi jinoyatlar” nomli XV bobida bitta tarkibdagi jinoyat belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik

[1] O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining rasmiy Telegram-kanali https://t.me/uzbprokuratura

to‘g‘risida”gi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ekologik huquqbuzarliklar ayrim turlari uchun javobgarlikni belgilash lozim bo‘ladi. [2]

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksida quyidagi ekologik huquqbuzarlik uchun:

- tabiatni muhofaza qilishga qo‘yiladigan standartlar, me’yorlar, qoidalar va boshqa me’yoriy-texnik talablarni buzganlik;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik, ifloslantiruvchi moddalarni tashlaganlik va chiqarganlik, chiqindilarni joylashtirganlik uchun belgilangan to‘lovlardan bosh tortganlik;
- tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini bajarmaslik kabi xolatlar uchun yuridik javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq buladi deb hisoblaymiz.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun nisbatan qat’iy javobgarlik choralari **Xitoy Xalq Respublikasi** JKda[3]belgilangan. Chunonchi, radioaktiv ifloslantiruvchi, tarkibida yuqumli kasallik manbalari bo‘lgan moddalar, chiqindilar, zaharli va boshqa xavfli chiqindilarni noqonuniy joylashtirish, saqlash yoki atmosferaga chiqarish, shuningdek yerga ko‘mish, suvga tashlash **uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum etish va jarima bilan;** mamlakatga chetdan saqlash, ko‘mish va joylashtirish uchun qattiq chiqindilarni kiritish **besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish va jarima bilan**; ushbu harakatlar alohida og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa **o‘n yildan ko‘p muddatga ozodlikdan mahrum etish va jarima** bilan jazolanishi mustahkamlangan.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining[4] ekologik jinoyatlarga bag‘ishlangan 28-bobi (15 moddadan iborat) ham Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi jinoyat qonunlaridagi ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarga yaqin. Ozarbayjonda ekologik xavfli modda va chiqindilar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish eng og‘ir ekologik jinoyat hisoblanadi hamda uch yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Xorijiy mamlakatlarda ekologik jinoyatlarga qarshi kurashning holati to‘g‘risida qisqacha xulosa qilar ekanmiz, aksariyat hollarda hujjatlarida ushbu ekologik davlatlarda jinoyatlar jinoyat-huquqiy alohida bobga ajratilganligini kuzatishimiz mumkin. Ko‘pgina hollarda ushbu mamlakatlar jinoyat qonunchiligi bir tusdagi qator ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikni mustahkamlaydiki, bu o‘z navbatida mazkur davlatlar oldida turgan ekologik muammolarning o‘xshashligidan darak beradi.[5]

---

[2] O’zbekiston qonunchiligini takomillashtirish Respublikasi rivojlantirish masalalari: ekologik va Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – T.: TDYU, 2014. – 12 b.

[3] Уголовный кодекс Китайской Народной Республики. – Владивосток, 1999.

[4] Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001

[5] “Ekologiya huquqiy javobgarlik” fanidan ma’ruzalar matni Tuzuvchilar : y.f.d., prof. Xolmo‘minov J.T. y.f.n., dos. Nurmatov M.M - Toshkent-2011 b.123

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida esa davlatning ekologik-huquqiy siyosati yo‘nalishlarini hamda ekologik qonunchilikning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, ekologik jinoyatlar tizimini uch guruhga, ya’ni:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi;
2. Tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi;
3. Ekologik xavfsizlik sohasidagi jinoyatlarga tasniflash ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarliklarni to‘liq qamrab olish imkoniyatini beradi.

Respublikaning tabiiy iqlim sharoitini, ekologik konunchilik norma va talablarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga jinoyat tarkiblarini belgilovchi quyidagi, ya’ni:

- ✓ sanoat va maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik;
- ✓ davlat ekologik ekspertizasi talablarini bajarmaslik;
- ✓ tabiiy, jumladan, biologik resurslardan (ommaviy nobud bo‘lishiga olib keluvchi vosita va qurollarini qo‘llagan holda, masalan, baliq ovlash uchun “elektr-qarmoq”, o‘rmonlarni kesish, hayvonlarni kimyoviy zaharlash va boshqalar) me’yordan ortiq va xo‘jasizlarcha foydalanganlik uchun javobgarlikni belgilab beruvchi yangi moddalarni kiritish zarur deb hisoblayman.

Ta’kidlashimiz joizki, u yoki bu darajada ekologik xarakterdagi munosabatlar belgilangan katta ko‘lamdagi, o‘zaro uzviy bog‘liq qonunchilik hujjatlari bilan ishlash sharoitida, ularni bosqichma – boskich kodifikatsiyalash muammosi yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosati qonunchiligi asoslarining hozirgi kundagi holati, yangi kompleks xarakterdagi umumlashtirilgan bosh kodifikatsiyalashgan huquqiy hujjatni qabul qilishni taqozo etadi.

Xuddi shuning uchun ham ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash jarayonida O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim deb hisoblaymayman.

Ekologiya kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish davrida quyidagi masalalarga e’tiborni qaratishimiz lozim deb hisoblayman.

Birinchidan, Ekologiya Kodeksi – bu, jamiyat va tabiat o‘zaro munosabatlarining barcha yo‘nalishlarida umumiy hamda o‘ziga xos me’yor va talablarni belgilab beruvchi, ekologik muammolarni hal qilish uchun barcha ekologik huquq institutlarini birlashtiruvchi, yagona normativ-huquqiy hujjatda tartibga solingan bevosita ta’sir etuvchi qonunlar majmui hisoblanadi;

Ikkinchidan, Ekologiya Kodeksini ishlab chikish – ilmiy-amaliy jihatdan asoslash hamda ekologik chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarishning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliyhuquqiy mexanizmlarini yaratishni talab etuvchi murakkab huquqiy ijodiy jarayondan iborat;

Uchinchidan, Ekologiya Kodeksi me’yor va talablarini qo‘llash samaradorligini, nafaqat boshqaruv organlarining, maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatiga, balki fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologiya muammolarni hal etishdagi keng ishtirokiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirish va takomillashtirish mamlakatimizda atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foylalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali, iqtisodiyotimizni yanada yuksaltirishni barqaror rivojlanish prinsiplari bilan uyg‘unlashgan holda olib borishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy kodeks
3. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo’lgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) Rasmiy nashr O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat. 2021.
4. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики. – Владивосток, 1999.
5. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001
6. “Ekologiya huquqiy javobgarlik” fanidan ma’ruzalar matni Tuzuvchilar : y.f.d., prof. Xolmo‘minov J.T. y.f.n., dos. Nurmatov M.M - Toshkent-2011
7. O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish Respublikasi rivojlantirish masalalari: ekologik va Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYU, 2014.

КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ЗАРАРЛОВЧИ ДАСТУРЛАР
MALWARE USING COMPUTER TECHNOLOGIES

Кадиров Фахриддин
ЎзР ИИВнинг 1-сонли Тошкент академик лицей бош ўқитувчиси, техника фанлари номзоди, доцент
Рустамов Рахмат Мансурович
ЎзР ИИВнинг 1-сонли Тошкент академик лицей Умумтаълим фанлари кафедраси бошлиғи, техника фанлари номзоди

Annotation: The article expresses thoughts about malware and its types encountered in the modern era of information and communication technologies.

Аннотация: Ушбу мақолада ҳозирги ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланган даврида учрайдиган зарарловчи дастурлар, уларнинг турлари ҳақида фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: зарарловчи дастур, вируслар, тармоқ қурти, троян дастурлари, бэкдор, руткид, компьютер-зомбиси, мантиқий бомба, Spywar, кейлогер, порнодиалер, Ransomware, ботнет, ёлғон антивирус, спам, фишинг, смишинг, эксплой.

Key words: malware, viruses, network worm, trojan, spyware, rootkid, computer zombie, logic bomb, Spywar, keylogger, pornodialer, Ransomware, botnet, rogue antivirus, spam, phishing, smishing, exploit.

Мамлакатимизда ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш, ахборот соҳасини ислоҳ қилиш, ахборот ва сўз эркинлигини таъминлаш, корхона, ташкилот ходимларининг компьютер саводхонлигини оширишга катта эътибор қаратилмоқда.

Фойдаланувчиларнинг компьютер саводхонлигини ошириш билан бирга, уларнинг компьютер жиноятчилиги, ўз компьютерларидаги маълумотларни ҳимоялаш чора-тадбирлари, компьютердаги зарарловчи дастурлар ҳақида ҳам элементар кўникмаларга эга бўлиши фойдадан холи эмасдир.

Компьютер жиноятчилигининг бир тури зарарловчи дастурларни ишлаб чиқишдир. Бундай дастурлар томонидан ахборот тизимларига етказиладиган зарар асосан қасддан ёки тасодифий кўринишга эга бўлиши ва катта миқдорда бўлиши мумкин.

Зарарловчи дастурлар бу ихтиёрий дастурий таъминот бўлиб, компьютерда сақланадиган маълумотларга рухсатсиз киришга ёки ахборот эгасига зарар етказишга мўлжалланади.

Зарарловчи дастурлар тушунчаси асосида тартиб-қоидани четлаб ўтган ҳолда ахборотга рухсатсиз кириш ётади. Компьютер вируслари ҳам зарарловчи дастурлар тоифасига киради.

Ўзбекистон республикаси Жиноят кодексининг “Зарар келтирувчи дастурларни яратиш, ишлатиш ёки тарқатиш” номли 278[6]-моддасида: “Компьютер тизимида сақланаётган ёки узатилаётган ахборотни рухсатсиз йўқ қилиб юбориш, тўсиб қўйиш, модификациялаштириш, улардан нусха кучириш ёки уни қўлга киритиш мақсадини кўзлаб компьютер дастурларини яратиш ёки мавжуд дастурларга ўзгартиришлар киритиш, шунингдек махсус вирус дастурларини ишлаб чиқиш, улардан қасддан фойдаланиш ёки уларни қасддан тарқатиш” деб белгилаб қўйилган. Бу моддага асосан содир этилган жиноят учун энг кам ойлик иш ҳақининг юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазолаш кўзда тутилган.

Зарарловчи дастурлар – бу вирус ёки айғоқчи дастур бўлиб ҳисобланишидан қатъий назар, компьютер, сервер ёки компьютер тармоғига мўлжаллаб яратилган махсус дастурий таъминотдир.

Зарарланишни қуйидаги белгиларга қараб аниқлаш мумкин:

– компьютер юкланганда автомат равишда мониторда номаълум нарсаларнинг пайдо бўлиши;

– вирусга қарши дастурлар яратувчи компанияларининг сайтларидан ёки компьютерларни зарарловчи дастурлардан «даволаш» бўйича хизмат кўрсатадиган сайтлардан фойдаланишни блокировкаланиши;

– Windowsнинг вазифалар диспетчеридаги “Процеессы” ойнасида янги номаълум жараёнларни юзага келтириш;

– автоматик ишга тушириш реестрида янги ёзувларнинг пайдо бўлиши;

– маъмурнинг қайта ёзилишида компьютерни созлаш катталикларини ўзгартириб бўлмаслик;

– фойдаланиладиган файлни ишга тушириб бўлмаслик (хато эканлиги тўғрисида маълумот чиқади);

– сузиб юрувчи ойнанинг пайдо бўлиши ёки ўқиб бўлмайдиган матндан иборат бўлган, жумладан номаълум веб-манзил ва номли тизим хабарининг пайдо бўлиши;

– бирор дастурни ишга тушириш вақтида компьютерни қайта ишга тушиши;

– компьютерни тасодифий ёки тартибсиз ўчиб қолиши;

– дастурни тасодифий ишламай қолиши;

– клавиатура тугмаларининг нотўғри ишлаши;

– компьютернинг иш тезлиги секинлашиб қолиши.

Бироқ, бу белгилар пайдо бўлмасада компьютер зарарловчи дастур билан зарарланган бўлиши мумкинлигини ҳисобга олиш керак.

Зарарловчи дастурлардан мутлақ ҳимояланиш усули мавжуд эмас. Лекин айрим чора-тадбирлар ёрдамида зарарловчи дастурларнинг зарарлаш хавфини сезиларли даражада камайтириш мумкин.

Қуйида хавфсизликни таъминлаш учун асосий ва бир мунча самарали чора-тадбирлар келтирилган:

– фойдаланувчининг рухсатисиз файллар ўзгаришига имкон бермайдиган замонавий операцион тизимлардан фойдаланиш;

– дастурлардаги янгиланишни ўз вақтида амалга ошириш;

– агар автоматик янгиланиш режими мавжуд бўлса, уни ишлатиш;

– вирусга қарши дастурлардан ташқари, зарарловчи дастурларни аниқловчи дастур таъминотидан фойдаланиш;

– бегона шахсларни компьютердан фойдаланишини чеклаш;

– ташқи ахборот ташувчиларидан (масалан, флешка) фақат текширилгандан кейин фойдаланиш;

– ишончсиз манбалардан олинган компьютер файлларини очмаслик;

– Интернет тармоғига чиқишни назорат қиладиган дастурлардан фойдаланиш;

Зарарловчи дастурларни яратиш, улардан фойдаланиш ва уларни тарқатиш турли жавобгарликни, шу жумладан дунёнинг турли мамлакатларнинг қонун ҳужжатларида жиноий жавобгарликни кўзда тутади.

Хусусан, компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб ўзгалар мулкини талон-тарож қилиш, фирибгарлик қилиш, компьютерлар учун зарарловчи дастурларни яратиш, улардан фойдаланиш ва уларни тарқатиш учун жиноий жавобгарлик ЎзР ЖКнинг 167, 168, 169, 278^{1-7} – моддаларида, ЎзР МКнинг 155, 155^{1} моддаларида кўзда тутилган.

Вируслар ўз нусхасини олган ҳолда тарқалади ва кейинчалик бошқа дастурларнинг бажарилиш кодини ўзига олади, ўзидан кейин бошқа дастурларни алмаштиради, автоматик ишга туширишга жойлашади ва ҳ.к..

Зарарловчи дастурларнинг тарқалиш каналларига қуйидагилар киради:

– Дискетлар.
– Флеш-тўплагичлар (флешкалар).
– Электрон почта.
– Тез хабарлар алмашинуви тизими.
– Веб-саҳифалар.
– Интернет ва локал тармоқлар.

Зарарловчи дастурларга мисол қилиб тармоқ қурти, троян дастурлари, бэкдор, руткид, компьютер-зомбиси, мантиқий бомба, Spywar, кейлогер, порнодиалер, Ransomware, ботнет, ёлғон антивирус, спам, фишинг, смишинг эксплой кабиларни келтириш мункин. Булардан айримлар ҳақида қисқача тушунчалар берамиз.

Тармоқ қурти - бу локал ва глобал компьютер тармоғи орқали мустақил тарзда тарқаладиган зарарловчи дастур тури ҳисобланади. Энг таниқли бўлган компьютер қуртидан бири бўлиб, Корнельс Университетининг (АҚШ) талабаси бўлган Роберт Моррис томонидан ёзилган “Моррис қурти” ҳисобланади. Қуртнинг тарқалиши 1988 йил 2 ноябрда бошланган ва Интернетга уланган барча компьтерларнинг тахминан 10 фоизини зарарлаган.

Қурт тарқалишини барча механизмлари иккита катта гуруҳга бўлинади:

1. Компьютерда ўрнатилган дастурий таъминот химоясининг заифлиги ва хатосидан фойдаланиш. Масалан, ўзининг тарқалиши учун Conficker зарарловчи дастури Windows операцион тизимининг заифлигидан фойдаланган. Моррис қурти луғат бўйича паролни топган. Бундай қуртлар компьютерларни автоматик равишда танлайди ва ҳужум қилади ҳамда автоном равишда тарқалади.
2. Ижтимоий мухандислик деб аталадиган воситалардан фойдаланган ҳолда, фойдаланувчининг ўзи томонидан зарарловчи дастур ишга туширилади. Ушбу усул спам-тарқатишлар, ижтимоий тармоқлар ва ҳоказоларда кенг қўлланилади.

Троян дастури – инсонлар томонидан тарқатиладиган зарарловчи дастурдир. У мустақил тарқаладиган вируслар ва қуртлардан фарқ қилади. Троян номининг келиб чиқиши “Троян отлари” – Троя ағдарилишига сабаб бўлган ёғоч от тўғрисидаги афсонага тақалади. Соҳта-сулҳ белгиси сифатида тортиқ қилинган отда грек аскарлари яширинишган. Улар кечаси босқинчилар армиясига дарвозаларни очиб беришган. Троян дастури ҳам шунга ўхшаш ҳаракатланади, яъни фойдаланувчи компьютерига уни фойдали дастурлар каби киритади. Вақт ўтиши билан бундай дастурлар зарарловчи фаолиятини бошлайди.

Троянлар – энг содда бўлган зарарловчи дастурларнинг тури ҳисобланиб, уларнинг мураккаблиги дастурий таъминот воситаларининг мураккаблилигига боғлиқ бўлади. Троян дастурлари бошқа зарарловчи дастурлар каби вирусга ёки айғоқчиларга қарши курашувчи дастурий воситалар ёрдамида аниқланади ва ўчирилади.

Бэкдор, (инглизчадан back door, “қора йўл” маъносини англатади) – бузғинчи томонидан ишдан чиқарилган компьютерга қайтадан тизимга кириш мақсадида такроран ўрнатиладиган дастурдир. Маълум бўлган бэкдорлар

вирусга қарши тизим базасига киритилади. Олий тоифали хакерлар ўз қўли билан ёзилган ёки модификацияланган бэкдорлар ва руткитлардан фойдаланишади, бу уларни аниқлаш ва ўчириш имкониятини қийинлаштиради. Бэкдорнинг асосий вазифаси компьютерни яширин бошқариш ҳисобланади ва у зарарланган компьютердан файллар нусхасини олиш ва аксинча, зарарланган компьютерга файллар ва дастурларни узатишни амалга оширади. Компьютерга «қора йўл»ни очади.

Руткит (инглизчадан rootkit “тўплами” маъносини англатади) - тизимда ғараз ниятли шахс ёки зарарли дастурнинг борлиги изларини яшириш учун ишлатиладиган дастур ёки дастурлар тўплами. Руткит бузувчига бузилган тизимда ўрнашиб олиш ва файллар, жараёнлар ҳамда тизимда руткит борлигини яшириш орқали ўз фаолияти изларини яширишга имкон беради.

Руткитлар фақат ўзларинигина эмас, тизимга ўрнашган бошқа зарарли дастурий таъминотларни ҳам яширадилар. Яширинишдан мақсад антивирус ва бошқа ҳимоя дастурларига сездирмасдан бегона компьютерни эгаллаб олишдир.

Спам бу - электрон почта орқали берухсат оммавий равишда жўнатилган, кўпинча реклама характеридаги хабарлардир. У бирор шахсга эмас, балки бир вақтнинг ўзида кўплаб, баъзида миллионлаб, фойдаланувчиларга юборилади. Спамни тарқатиш бирор товарни ёки хизматни реклама қилишнинг ёки ўз сайтига фойдаланувчиларни жалб этишнинг энг аъло усулидир. Чунки бундай усулдаги реклама арзон, ҳаммабоп ва оммавий ҳисобланади. Одатда, спам махсус дастурлар ёрдамида автоматик тарзда тарқатилади. Бир компьютердан миллионлаб хабарларни юбориш кўп вақтни талаб этиши ва фош бўлиш эҳтимоли жуда ҳам юқори бўлганлиги сабабли профессионал спамерлар рекламаларни ўз компьютерларидан жўнатмайдилар. Улар бу мақсадда бот-тармоқлардан фойдаланадилар. Бот-тармоқ бу компьютер эгасидан яширин равишда хабар жўнатувчи зарарли дастурий таъминот ўрнатилган Интернет фойдаланувчиларининг компьютерларидир.

*“Компьютер-зомби”*си – тармоқдаги компьютер бўлиб, компьютер эгасининг рухсатисиз бошқа шахс томонидан унинг компьютеридан фойдаланилади, масалан, ёпиқ ёки тижорат тармоғига кириш, ҳисоблаш ресурсларидан фойдаланиш, спамни юбориш ва ҳ.к. Фойдаланувчининг мақсадига ўхшаш мақсадга эришиш учун ҳам зомби-компьютерлардан фойдаланилади.

Компьютерлар-зомбилар спамни тарқатиш бўйича энг самарали қурол бўлиб ҳисобланади, чунки улар спамнинг дунё трафигининг 50-80 фоизи учун масъул бўлади. Одатда, “зомбилаш” троян дастури ёрдамида амалга оширилади.

Мантиқий бомба – зарарлашни амалга ошириш учун муайян вақтда ёки ахборот шартларида ишга тушадиган дастур (одатда, ахборотга рухсатсиз

кириш, маълумотларни бузиш ёки йўқ қилиш). Вирус ёки қуртлар каби зарарловчи дастурлар олдиндан белгиланган вақтда ёки муайян шароитда ишга тушадиган мантиқий бомбаларни ўз ичига олади.

Мантиқий бомбаларга, қоидага кўра, фойдаланувчилар учун олдиндан умумлашмаган натижаларга олиб келадиган код киради. Шундай қилиб, муайян функционалликни ўчириш ёки белгиланган давр тугагандан кейин шартли-бепул дастурлар ишининг тугаши мантиқий бомба бўлиб ҳисобланмайди.

Spyware (айғоқчилик дастурий таъминоти) – компьютернинг тузилиши, фойдаланувчининг фаолияти ва ихтиёрий махфий маълумотларни фойдаланувчининг рухсатисиз йиғувчи дастурий таъминотдир. Spyware кўп вазифаларни амалга ошириши мумкин, масалан:

• дастурий таъминотда фойдаланиладиган ва Интернетга кирадиган веб-сайтлар ҳақидаги маълумотларни йиғиш;

• клавиатура тугмалари босилишини эслаб қолиш ва экрандаги маълумотларни ёзиш;

• хавфсизлик тизими ҳолатининг таҳлилини ўтказиш.

Кейинчалик барча бу йиғилган ахборотлар айғоқчи дастурий таъминотни ишлаб чиқувчига жўнатилади.

Кейлогер, кейлоггер – бу компьютер клавиатурасидаги тугмаларнинг босилишини рўйхатга олувчи дастурий таъминот ёки аппарат қурилмадир.

Аппарат кейлоггерлар клавиатура ва компьютер ўртасига ёки клавиатуранинг ўзига ўрнатилиши мумкин бўлган кичик ўлчамли қурилмадир. Улар клавиатурада амалга оширилган тугмаларнинг барча босилган ҳолатини рўйхатга олади. Рўйхатга олиш жараёни фойдаланувчи учун мутлақо кўринмайди. Аппаратли кейлоггерлар тугманинг барча босилишини муваффақиятли ушлаб қолиш учун компьютерга алохида дастурни ўрнатиш талаб этмайди. Қурилманинг энергияга боғлиқ бўлмаган ички хотирасининг ҳажми 20 миллионгача тугманинг босилишини ёзиш имконини беради. Кейлоггерлардан ҳимояланишнинг оддий йўли компьютер тизимларини синчиклаб ташқи ва ички кўрикдан ўтказиш ҳамда виртуал клавиатурадан фойдаланишдир.

Порнодиалер – телефон қўнғироқлари учун ҳисобни бериш йўли билан пул ўғирланиши учун мўлжалланган зарарловчи дастур. Порнодиалерлар фақат оддий телефон модеми бўлганда ишлайди; агар модем ўчирилган бўлса ёки бўлмаса, порнодиалер ҳеч қандай зиён келтириши мумкин эмас.

Ransomware – бу товламачи каби ишлайдиган зарарловчи дастурий таъминот ҳисобланади. Бундай дастур зарар кўрувчининг компьютерига ўрнатилгандан кейин ишчи файлларнинг катта қисмини шифрлайди (масалан, кўп фойдаланиладиган файл кенгайтмали барча файлларни). Бундай ҳолларда

компьютер ишчи ҳолатида қолади, лекин фойдаланувчининг ишчи файлларига кириб бўлмайди. Ёвуз ниятлилар бу файлларни шифрдан очиш учун маблағ талаб қилади. Бундай зарарловчи дастурлардан ҳимояланиш учун компьютерингизда вирусга қарши дастур мавжуд бўлиши, барча янги дастурларни ишлатишдан олдин вирусга қарши дастурда текшириш, вирусга қарши дастурлар ишлаб чиқарувчи компанияларнинг файлларни шифрловчи дастурларга қарши утилитларидан фойдаланиш тавсия этилади.

Adware – рекламани ўз ичига олган дастурий таъминотдир. Adware атамаси зарарловчи дастурий таъминот деб ҳам аталади. Унинг асосий мақсади, компьютернинг ишлаш жараёнида рекламани кўрсатишдан иборатдир. Бундай дастурлар Spyware айғоқчилик дастурлари каби амал бажаради ва у фойдаланувчининг компьютерига рухсатсиз ўрнатилиши мумкин.

Ботнет – автоном дастурий таъминот ҳисобланган ботлар томонидан ишга туширилган, бирор сондаги хостлардан ташкил топган компьютер тармоғидир. Кўп ҳолларда ботнет таркибидаги бот зарар кўрувчининг компьютерига яширин ҳолда ўрнатиладиган ва ғараз ниятлиларга зарарланган компьютер манбаларидан фойдаланган ҳолда ҳар қандай амалларни бажариш имконини берувчи дастур бўлиб ҳисобланади.

Қалбаки антивируслар – зарарловчи дастурий таъминотни зарарсизлантирувчи қилиб кўрсатадиган ёки ҳақиқатдан ҳам зарарловчи дастурий таъминотни ўчириб, ўрнига ўзининг зарарловчи дастурини ўрнатадиган компьютер дастури. Бундай дастурларга ҳақиқий вирусга қарши дастурларники каб ном берилади.

Фишинг – Ҳозирги кунда Интернет-товламачилигининг кенг тарқалган ҳужум тури ҳисобланади. Фишинг сўзини маъноси балиқ овлаш санаътини англатади, яъни Интернет кенг океан бўлса ундан маълумотларни овлаш. Унинг мақсади фойдаланувчиларнинг махфий маълумотлари ҳисобланган – логин ва паролларига киришдир. Бунга машхур брендлар номидан электрон хатларни оммавий жунатиш орқали эришилади. Шунингдек турли серверлар ичидаги шахсий хабарларни, масалан, банклар, сервислар ёки ижтимоий тармоқлар ичидаги шахсий хабарларни жўнатиш йўли билан эришилади. Фишинг тармоқдан фойдаланувчиларнинг оддий тармоқ хавфсизлигини билмаслигининг бир кўринишидир.

Смишинг – бу ҳам фишинг, лекин электрон почта орқали эмас, балки SMS орқали тарқатилади. Смишинг дегани SMS + фишинг маъносини англатади.

Ривожланиб бораётган республикамизда компьютерлаштириш, тармоқ технологияларидан кенг фойдаланиш жараёни кенгайиб борар экан, унда ўз манфаатлари йўлида компьютер жиноятларини содир этувчи шахсларнинг имкониятлари, зарарловчи дастурларнинг пайдо бўлиш эҳтимоли ҳам ортиб

бораверади. Шу сабабли бундай жиноятларнинг олдини олиш ва фош этиш имкониятларини ҳам такомиллаштириб бориш, бундай жиноятчиликларга қарши оммавий тарғибот ишларини кучайтириш, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг компьютер саводхонлигини тўхтовсиз ошириб бориш, зарарловчи дастурлардан ҳимояланиш чораларини билиш долзарб вазифалардан биридир.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH YO‘LLARI
WAYS TO INCREASE PRESCHOOL CHILDREN’S INTEREST IN EDUCATION

Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
nazarovasadoqat07@gamil.com
Matchanova Nazokat Qudrat qizi
Urganch Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
nazokatmatchonova@gmail.com

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk yosh guruhidan boshlab maktab ta’limiga sifatli tayyorlash hozirgi zamon davr talabiga aylanmoqda. Shuni nazarda tutgan holda bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotida ilk yosh guruhidan boshlab “Ilk va maktagacha ta’lim ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida ta’lim va tarbiya berishning qanchalik usutovor ekanligini aytib o‘tish lozim.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ong, qiziqish, bola, ta’lim, o‘yin, maqsad, maktab talimi, ragbat, maqtov, tasavvur, rivojlanish, go‘daklik davri, o‘spirinlik.

Hozirgi kunda yurtimizda juda ko‘p islohotlar, o‘zgarishlar bo‘layotgani hech kimga sir emas, bu kabi islohotlar maktabgacha ta’lim tizimini ham qamrab oldi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tominidan maktabgacha ta’lim sohasiga berilayotgan yukasak e’tibori tufayli maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining o‘zlariga bo‘layotgan bunday ishchonchdan mamnun bo‘lib, o‘z ishlariga yanda ma’suliyat bilan yondashishga turtki bo‘lmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning bosh ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘yin faoliyatni asos qilish mumkin, chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin hisoblanadi. Zero, har bir bola ongida bir daho yashirin bo‘lib uning kelajakda kim bo‘lib voyaga yetishi, unga bo‘layotgan munosabat orqali amlaga oshadi va bu jarayon tarbiya mahsuliga aylanadi.

Har qanday bola o‘qishga, o‘rganishga, o‘zini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishga intiladi,Har bir bola qiziquvchan va rivojlanishiga extiyoji bor. Hayotda buning dalili sifatida kichik yoshdagi bolalarning sersavol bo‘lishlarini misol keltirish mumkin. Ammo kattalar ularning qiziqishlarini va mustaqilligini rag’batlantirmaydilar. O‘rganishga bo‘lgan qiziqish bolaning o‘ziga bo‘lgan javobgarligiga bog’liq, dunyoning ko‘pgina tajribali olimlarining fikriga tayanadigan

bo‘lsak, jumladan, Yaponyalik doktor Shinichi Suzukining ta’kidlashicha “Dunyoda qoloq bolalar yo‘q. Barchasi o‘qitish usuliga bog’liq” Bu jarayonda asosiy maqsad ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilashga qiziqarli bo‘lishini ta’minlashga qaratilshi kerak. Ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi uchun taribaychi o‘rgatmoqchi bo‘layotgan yangi mavzu uchun qanchalik ko‘p qo‘shimcha materiallardan foydalansa natija ham shunga yarasha yuqori bo‘lishi kafolatlanadi .

O‘qish, o‘raganish ayniqsa, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni ijobiy xis-tuyg’ular bilan rag’batlantirishsiz natija bo‘lmaydi. Tarbiyalanuvchilar bilan faoliyat jarayonini guruhlarga ajratib musobaqa tarzida tashkil qilinganda yoki sport o‘yinlarida har bir o‘g’il qiz uchun g’alaba xissi muhim ekanligi tushuntirish orqali natijani amalda ko‘rish mumkin. Ular o‘zlarining erishgan yutuqlaridan sevinish xissi ularni yana g’alabaga boshlaydi. Shularni e’tiborga olgan holda faoliyat jarayoni tashkil etish kerak va quyidagi ishga o‘zimizni safarbar etishimiz lozim.

Bolada ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishni uyg’otish uchun nima qilish kerak?

1. Faoliyat jarayoni uchun aniq maqsad qo‘yish.

2. Ta’lim jarayonini sifatli bo‘lishini ta’minlash.

3.Faoliyat mavzusiga mos illustratsiyalar tayyorlash (Izoh chunki bolalar bir xillikdan zerikishadi, har bir faoliyatda yangi materiallardan foydalanish kerak).

4.Yakunlovchi qismga katta e’tibor berish

5.Rag’batlantirish va maqtash

Bola qilayotgan ishidan zavqlashni xis qilishi va nima uchun buni qilayotganligini tushunishi kerak. Hatto kattalar ham o‘zlari yoqtirgan ishlari bilan shug’ullanadilar va natijasidan zavqlanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga yoshiligidan rejali ish yuritish va maqsadli faoliyat olib borishga yo‘naltirish, bola voyaga yetganida qiyinchilliklarga duch kelmasligi har qanday holatda to‘ri ish olib borishida nomoyon bo‘ladi.

Maqsad qo‘yishga orgatish va ularga erishish, o‘z harakatlariga bog’liq ekanligini tushuntirish, o‘ziga bo‘lgan ishonch, muvafaqqiyat va kuchli iroda egasi bolishga bularning barchasi o‘zigagina bog’liq ekanligini tushunishga yordam berish, atrofdagilar (ota-onalar, do‘stlar, ustozlar) esa faqat turki bolishini anglatish orqali erishiladi. Qiyinchiliklarni yengish va vazifalarni oxirigacha yetkazishga undash, haqiqiy qiziqish bosim bilan emas balki, yorqin taassurotlar bilan bog’liqligini tushunib yetishi aks holda, o‘rganishni yomon ko‘rishga olib keladi, Bolaning tasavvuriga sayr qilish va yangi dunyo ochish kerak, o‘ziga bo‘lgan hurmat xissini oshirish, bolaga nisbatan beriladigan baho uning shaxsini emas, balki bugungi bilimini baholash foydali bo‘ladi.

Bolalarni rag’batlantirish va maqtash, bolalar tanqidni qabul qilishmaydi, ularning miyasi faqat maqtovga javob berishi aniqlangan. Olimlar MRT yordamida boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalar miya faoliyatini o‘rganishdi, unga ko‘ra 8-9

yoshli bolalarning miyasi ma’sul bo‘lgan zonalar faoliyati tanqid qilinganda o‘zgarmaganligini aniqladilar, masalan bu noto‘g’ri javob sen hech qachon to‘g’ri javob beraolamaysan bu yoshda bolalar o‘z xatolaridan saboq ololmaydilar, faqat 12-13 yoshdan boshlab o‘spirinlar xato va xatolar haqidagi xabarlarga emotsional munosabatda bo‘lishadi va o‘zlarining salbiy tajribasidan foyda olishari mumkin ekanlar, ehtimol zamonaviy bolalar uchun eng foyadali mahorat bu ma’lumot oqimiga moslashishdir. Eng muhimi bolalarga katta ma’lumotdan asosiy narsa olishni o‘rgatishni maqsad qilish orqali shunda unga muvafaqqiyat uchun eng muhim narsani topishni o‘rgatishimiz mumkin.

Umuman olganda, barcha bolalar bilimi va qobiliyatidan qat'i nazar, intellektual qiziqishga ega ekanligi aytiladi, lekin ba'zida siz farzandingiz qaysi sohaga qiziqayotganini bilmay qolgandek bo‘lishingiz mumkin.

Farzandingiz hali yosh bo‘lsa-da, agar bolangizning intellektual qiziqishini uning xatti-harakati yoki harakatlari orqali aniqlash mumkin bo‘lmasa, tashvishlanishning hojati yo‘q. Go‘daklikdan boshlang'ich maktabgacha bo‘lgan bolalar uchun hamma narsa yangidek tuyuladi. Natijada, ularning qiziqishlari osongina o‘zgaradi va ko‘pincha ularni nima qiziqtirayotganini bilish qiyin. Bundan tashqari, til hali rivojlanish bosqichida bo‘lganligi sababli, bolalar uchun qiziqishlarini tartibga solish va ularni so‘z bilan samarali ifodalash qiyin bo‘lishi mumkin.

Bolalarni rag'batlantirish ularga qalbimizni berishni anglatadi. Farzandingiz yangi narsalarni o‘rganishga harakat qilganda, siz nafaqat uni qo‘llab-quvvatlashingiz, balki unga adolatli baho berishingiz kerak. Farzandingiz muvaffaqiyatsizlikka uchraganida, “Siz yaxshiroq qila olasiz” deb uni rag'batlantiring. Farzandingizga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga yordam bering. Har bir bola boshqacha. Kimdir biror narsa qilishni buyursa, tushkunlikka tushadigan bolalar, diqqatni jamlash qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar, boshqalarga qaraganda ko‘proq qo‘llab-quvvatlash va yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar va ishni o‘zlari qilishlari yaxshiroq bo‘lgan bolalar. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyati bor. Biz buni aniqlashimiz va tegishli maslahat berishimiz kerak.

Farzandningizni maqtasangiz ulalar kuchli bolalar bo‘lib ulg‘aydi.

Maqtov muhim ifodalardan biridir. So‘zlar meni ruhlantiradi va o‘zimni qabul qilingandek his qilaman. Maqtov bolaning o‘zini-o‘zi sog‘lom rivojlanishi uchun zarurdir. Ularning nafaqat yutuqlarini, balki motivatsiyasini ham maqtash yaxshi fikr. Shuningdek, bola katta bo‘lib, turli qiyinchiliklarga duch kelganda, maqtovni qabul qilish kuchli hissiy yordam beradi.

Ota-onalar va ularni maqtagan kattalarni ko‘rib ulg'aygan holda, ular boshqalarning yaxshi tomonlarini tan olish va do‘stlar bilan munosabatlarda bir-birlari bilan til topishish muhimligini o‘rganadilar. Shunday qilib, bolalar boshqalarning

kuchli tomonlarini tan oladigan quvnoq bolalar bo‘lib ulg'ayishadi. Bolani qancha ko‘p maqtasa, shuncha ko‘p odamlarga yoqadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, eng katta ma’suliyat maktabgacha ta’lim tizimiga tushadi, chunki makatabgacha ta’lim bolaning maktab davrida kechadigan davri uchun zamin hozirlaydi, yuqoridagi amaliy tajribalarni qo‘llasak ularga amal qilsak bolaning o‘z yo‘lini to‘g’ri tanlashga imkon yaratgan bo‘lamiz. Zero, maktabgacha ta’lim tizimi yurt ertasi va egalarini tarbiyalaydi. Shu o‘rinda Yaponyalik yozuvchi Masaru Ibukaning “uchdan keyin kech” nomli kitobida keltirilgan quyidagi jumlani keltirishni o‘rinli deb topdim.

“Go‘daklik insonning hayotida o‘zlashtirishi kuchli bo‘lgan davr hisoblanadi. Ko‘pchilik ota-onalar ahamiyat bermaydigan bu kabi tajribalar va ko‘nikmalar bola hayotining asosiga aylanishi mumkin”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017 y.

2. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016 y.

3. Mirziyoyev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi”. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017 y.

4. Jon Kexo “Ong qudrati bolalar uchun”.- Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2018 y.

5. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” .- Toshkent, Akademiknashr, 2020 y.

КАШТАЧИЛИК БУЮМЛАРИДА АНЪАНА ВА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ УЙҒУНЛАШУВИ

Абдуллаева Насибахон Арабовна
АДПИ Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси (PhD)

Аннотация: XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларидан эътиборан Туркистон халқларининг ҳаётида жиддий ўзгаришлар юз бера бошлади. Бу ўзгаришлар каштачиликда анъана ва иноовацияларни уйғунлашувига олиб келди.

Калит сўзлар: Тавар-пул, ижтимоий иқтисодий, ишлаб чикариш, савдо-сотиқ.

Аннотация: Со второй половины 19-го века - начала 20-го века в жизни народов Туркестана начали происходить значительные изменения. Эти изменения привели к гармонизации традиций и новизны в вышивке.

Ключевые слова: Тавар-деньги, социально-экономическая сфера, производство, торговля.

Abstract: From the second half of the 19th century-the beginning of the 20th century, significant changes began to take place in the life of the Turkestan peoples. These changes led to the harmonization of tradition and inoovasia in embroidery.

Key words: Tawar-money, social economic, production, trade.

XIX-асрнинг иккинчи ярми – XX-асрнинг бошларидан эътиборан Туркистон халқларининг ҳаётида жиддий ўзгаришлар юз бера бошлади. Бу ўзгаришлар ўлкада янги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар билан боғлиқ ҳолда кечди. XIX-асрнинг ўрталарига келиб ўлкада ишлаб чиқарувчи кучлар ва товар-пул муносабатлари ривожлана борди, натурал хўжалик юритиш тартиблари емирила бошланди. Савдо-сотиқ ривожланди, бозорлар сони кўпайди. Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати ўлка аҳолисининг этномаданиятининг барча соҳаларига таъсир қила бошлади. Анъанавий каштачиликда ҳам сезиларли ўзгаришлар юз бера бошлади.

Мавжуд манба ва адабиётларни ўрганишдан малум бўладики, анъанавий каштачиликда юз берган ўзгаришлар аввало, соҳада фабрикада ишлаб чиқарилган газламалардан фойдаланила бошланиши ва тикув машиналарининг жорий қилиниши билан намоён бўла бошлади.

Тарихий маълумотларга кўра, Туркистонга четдан, жумладан Россия ҳудудидан фабрикаларда ишлаб чиқарилган газламаларни келтириш хонликлар

давридаёқ бошланган эди. Маҳаллий савдогарлар томонидан бундай молларнинг бир неча тури ўлкага келтирилиб, бозорларда сотилган[6].

Россия империяси истилосидан кейин эса Ўрта Осиёга фабрика газламаларини келтириши анча кўпайди. Ўрта Осиёга Россиядан экспорт қилинадиган маҳсулотлар ичида айнан фабрикада тўқилган газламалар миқдор жиҳатдан асосий ўринни эгаллаган. Шуни ҳам айтиб ўтиш ўринлики, Россиядаги йирик фабрикаларнинг эгалари, Ўрта Осиё бозорларида устунликка эга бўлиш мақсадида, маҳаллий аҳолини диди ва имконятини ҳисобга олган ҳолда анча арзон газламаларни тайёрлаб, ўлка бозорларини таъминлашга ҳаракат қилганлар. Натижада Россия фабрика газламалари маҳаллий (косибий) матоларни бозорлардан сиқиб чиқара бошлади. Бироқ, четдан келтираётган фабрика газламалари маҳаллий аҳолини бундай молларга бўлган эҳтиёжини тўла қондира олмас эди. Қолаверса, Россиядан келтирилган газламалар асосан шаҳар муҳитида тарқалган, қишлоқ аҳолиси эса асосан хонаки матолардан фойдаланганлар.

Совет ҳукумронлиги даврида фабрика газламалари аҳоли орасида янада оммалаша борди. 1920 йилнинг ёзида РФССР ҳудудидан ипакни қайта ишловчи корхоналалар Фарғона ва Марғилон шаҳарларига олиб келиб ўрнатилган бўлса, 1921 йилнинг сентябрь ойида Фарғона шаҳрида дастлабки пиллакашлик фабрикаси ишга тушди[7].

Фарғона водийси шаҳарларида газлама ишлаб чиқаришга ихтисослашган корхоналарни бирин-кетин ташкил топиши натижасида нафақат газламаларнинг миқдори ва тури кўпайиб борди, балки уларнинг сифати ҳам яхшиланди. Фабрикада тайёрланган газламаларни тоборо оммалашиб бориши албатта анъанавий каштачиликда ҳам ўзгаришларни юз беришига олиб келди. Бундай ўзгаришлар таъкидлаб ўтканимиздек, кашта буюмларини фабрика газламаларига тикишда намоён бўлди. Фарғоналик каштачи чеварлар томонидан бозордан кашта тикиш учун сурп, духоба, лас ва сатин сингари сидирға матолар сотиб олинган. Каштачиликка янги техника ва технологияларни кириб келиши соҳада кечаётган трансформация жараёнларини янада тезлаштириди.

Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, анънавий каштачиликда чеварлар узоқ давр давомида маҳаллий усталар томонидан тайёрланган бир неча хилдаги махсус асбоб–анжомлардан фойдаланиб келганлар. Каштачиликда ишлатиладиган асосий анжом бу игна ҳисобланади. Ушбу анжом ҳам ўтмишда маҳаллий игнасозлар томонидан уй шароитида тайёрланган. XIX-XX аср бошларида

[6] Зияев Х. Ўрта Осиё ва Россия муносабатлари тарихи // Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т., 2003. – Б 190
[7] История Узбекиской ССР. – Т., 1957. Т.2. С. 126

игнасозлар пўлат симдан қўлда игнани *“кўрпақовуқ игна”, “тўнқовуқ игна”, “тепчиқ игна”* деб номланган турларини тайёрлаганлар.[8]

Бундай игналар билан чеварлар турли чокларни тикканлар. Маҳаллий игнасозлар тайёрлаган *“нозик игна”* деб номланган игна билан чеварлар ҳар хил кашта гулларини тикканлар.

Игналарни тайёрлаш усули, уларнинг тури ва сифати ҳам йиллар давомида такомиллашиб борган. Аниқроқ қилиб айтганда, игна тайёрлаш саноатлашиб, фабрикада ишланган силлиқ, ихчам ва арзон игналар XX асрнинг биринчи чорагида кенг оммалаша борди. Бу эса ўз ўринда маҳаллий игнасозлар ишлаган қўпол ва нархи қиммат игналарга бўлган эхтиёжни камайишига, уларни аста секин истеъмолдан чиқиб кетишига олиб келди[9].

Каштачиликда яна илмоқли ва илмоқсиз бигизлар, ангушона, қайчи ҳамда чамбарак деб номланган асбоб-анжомлардан фойдаланилган. Уларнинг баъзи бирлари усталар томонидан тайёрланган. Россия империяси томонидан Ўрта Осиё босиб олингандан кейин каштачиликда фойдаланиладиган баъзи бир каштачилик асбоб-анжомлари ўлкага Россия ва бошқа хорижий давлатлардан келтирилиб, ички бозорларда кўплаб сотилган.

Миллий каштачиликдаги жиддий ўзгаришлар, чунончи анъанавийликни замонавийлик билан уйғунлашуви ўлкага тикув машиналарини кириб келиши натижасида юз берди. Тадқиқотчилар XIX асрнинг иккинчи ярмидан эътиборан Ўзбекистон ҳудудида биринчи галда шаҳарларда йўрма чок билан кашта тикиш кенг тарқалганлигини таъкидлайдилар[10]. Каштачиликда йўрма чокни кенг қўлланилишига эса йўрма машиналарни пайдо бўлиши сабаб бўлди. Манбаларда бундай йўрма машиналар Ўрта Осиё шаҳарларига Қозон шаҳридан келтирилиб, сотилганлиги кўрсатиб ўтилади[11].

Маълумки, XIX асрнинг охирларида Қозон шаҳри жанубиий - шарқий Россиянинг маданият ва маърифат ривож топган ўзига хос маркази ҳисобланар эди. Қозонлик кўплаб савдогарлар Ўрта Осиё шаҳарларига бир неча турдаги замонавий халқ истеъмол таворларини олиб келиб сотганлар. Эътиборли жиҳати шундаки, Қозон татарлари Ўрта Осиёдаги ижтимоий - сиёсий, иқтисодий савдо ва маданий жараёнларда фаол иштирок қилганлар. Уларнинг бир гуруҳи бу ерда ўқитувчилик, таржимонлик билан шуғуллан бўлсалар, бошқа бирлари четда тайёрланган турли хил буюмларни, жумладан тикув машиналарни, шунингдек қора духоба (бахмал)га тикилган кашта маҳсулотларни ўлкага келтирганлар. Йўрма машиналар ҳам айнан Қозонлик татарлар томонидан Ўрта Осиёга, ҳусусан Фарғона водийси шаҳарларига олиб келиб сотилган.

[8] Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лекцикаси Т.; 1959. Б 124.
[9] Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лекцикаси...Б 124.
[10] Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик ...Б. 6-8
[11] Гейдер И.И “Весь русский Туркистан”. Ҳунармандчилик саноати. Тошкент. 1908.

XX аср бошларига келиб ўлкага турли йўрма машиналари ва бошқа маҳсулотлар хорижий фирмалар томонидан олиб келина бошланди. Бу даврда “Юргене”, “Зингер” ҳамда “Блок” сингари чет эл фирмалари Франция ва Америкада ишлаб чиқарилган йўрма машиналарни экспорт қилиб, уларни рекламаси билан фаол шуғулланган[12].

Фарғона водийсидаги катта шаҳарларга келтирилган йўрма машиналарни сотиб олишга ҳамманинг ҳам имконияти бўлмаган. Дастлаб бундай машиналар маҳаллий савдогарлар ҳамда бадавлат кишилар томонидан сотиб олинган. Дастлаб йўрма машиналарда кашта тикиш билан эркаклар шуғулланганлар. Улар йўрма машинада кашта тикишни шу машина савдоси билан шуғулланган кишилардан ўрганганлар. Масалан, йўрмадўз уста Усман Шокиров кашта тикишни Қўқон шаҳрида Истанбуллик устадан ўрганганлиги, маълумотларда қайд қилинган[13].

1909 йилда Тошкент шаҳрида чоп этилган “Вестник Выставки 1909” номли газетанинг 15 сонида *“Зингер”* фирмасига қарашли повильонда кашта тикишни ўрганишни ҳоҳловчилар учун кашта машинасида ишлаш йўллари ҳам кўрсатилади”[14] деган хабар босилган. Бундан кўриниб турибдики, маҳаллий каштачилар кашта машиналарни ўрганишда тегишли фирма агентларининг ёрдамидан бевосита фойдаланиш имконятига эга бўлганлар.

Йўрма машинасида кашта тикиш аста – секин оммалашиб борди. Дастлаб каштачи чеварлар бундай машинада қўлда тикилган кашта гулларининг четларини, шунингдек, дарахт ёки гул шохчалар нусхасини, майда баргларни ва кашта хошияларни ўрта гуллардан ажратиб турадиган чизиқларни тикканлар[15].

XX аср бошларида қўлда босма чок билан тикилган кашта гуллари атрофига машинада йўрма чок тикиладиган бўлди. Бу эса анъанавий каштачиликдаги инновацияларни кучайтирди. Анъанавийликда инновацияни акс этиб бориши йиллар давомида кўпроқ намоён бўлди. Натижада кашта буюмларида аралаш технология яъни анъанавий кашта тикиш усуллари билан машинада кашта тикиш усуллари уйғунлаша борди. Халқ орасида *“попоп машина”* деб аталган йўрмаўдўзлик техникаси қуйидаги жиҳатларга кўра каштачилар орасида оммалаша борди. Биринчидан, машинада кашта тикиш усули қўлда кашта тикишдан унчалик фарқ қилмас эди; иккинчидан эса катта ўлчамли кашта буюмларини тайёрлашга кетадиган вақт машинада бажарилганди анча тежалар эди. Этнограф олима М.А.Бекжанова Қўқон шаҳрида тадқиқот олиб бориб, шаҳарлик Асқарбой исмли машхур йўрмадўз каштачи уста билан суҳбатлашганда, ахборотчи катта кашта буюмларини қўлда тикилганда йиллаб

[12] “Вестник Виставки 1909” газетаси. Тошкент. 1909 №15.
[13] Марозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б.10.
[14] “Вестник Виставки”. 1909 №15.
[15] Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик....Б. 11.

вақт сарфланишини, машинада эса бу юмуш уч-тўрт кунда бажарилишини таъкидлаган[16].

Машинада кашта тикиш тез суратлар билан ривожланиб бордики, 1920 йилларга келиб декоратив (безакли) кашталарнинг асосий қисми йўрма машиналарда тикиладиган бўлди. Шу ўринда бир нарсани назардан қочирмаслик ҳам керак. Яъни, гарчи машинада тикилган кашта буюмлар учун кам меҳнат сарифланиб, унинг нархи анча арзон бўлсада, улар анъанавий усулда қўлда тайёрланган кашталардан сифат жиҳатидан анча паст эди. Лекин ўлкага саноатни жадал келиши натижасида машинада кашта тикиш йил сайин такомиллашиб борган. Эндиликда, йўрмадўз усталар аста-секин нозик ва ингичка чизиқларни ҳам тикадиган бўлдилар. Бу албатта машинада кашта буюмларидаги анча мураккаб бўлган майда гулларни ҳам тикиш имконини берди. Бироқ, машина кашталарида бир қатор камчиликлар мавжуд эди. Масалан, машинада тикилганда кашта гулларининг ранги бир-бирига номутаносиб яъни мос келмасди. Бу эса машинада тикилган кашталарнинг асосий камчилиги эди. Машинада кашта тикиш декоратив (безакли) кашта буюмларни ишлаб чиқаришни кенгайтиришга имкон яратди. 1926 йилдан ҳунармандчилик кооперацияси артелларида каштачилик цехлари ташкил этиш бошланди. Бундай каштачилик цехлари дастлаб Тошкент шаҳрида ташкил қилиниб, кейинчалик бошқа шаҳарларда, хусусан Фарғона водийси шаҳарларида ҳам пайдо бўлди. мазкур цехларда *сўзана, палак, гулкўрпа, кирпеч, дастурхон,* деворга қоқиладиган *кашта гиламча, дарпарда ва ёстиқ жилди* каби кашта буюмлари ишлаб чиқарилган.[17]

Каштани махсус кашта тикувчи машиналарида тикиш Фарғона водийсининг Қўқон, Марғилон, Андижон ва Асака каби шаҳарларида тез ривожланди. Бу шаҳарларда ташкил қилинган йўрмадўзлик цехларидаги ишларни ташкил қилишда ва ривожлантиришда асли ҳунари каштачи бўлган чеварлар асосий роль ўйнаганлар. Улар ташкил қилинган ҳунармандчилик артеллардаги йўрмадўзлик цехларига жалб қилинган ёшларга ўз касбининг сирларини устоз-шогирд анъанаси бўйича ўргатганлар.

Машина кашталардаги ҳусусиятлар аввало анъанавий каштачиликдаги кўплаб локал жиҳатларни давом эттирилаётганлигида акс этган. Буни кашталардаги нақш безакларда кузатиш мумкин.

Тикув машиналарида тайёрланган кашталарда анъанавий кашталардаги гул нусхалари кўп учрайди. Айниқса, ўсимликсимон ва геометрик кўринишдаги гуллар шулар жумласидандир. Жуда кўп машина кашталари ўсимликсимон

[16] ЎзРФА Шарқшунослик институтининг илмий фонди. Инв №120. 8-10 бетлар (иқтибос. А.Морозованинг кўрсатилган асари асосида келтирилди)
[17] Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б. 14.

гуллар билан безатилган. Масалан, майин шохларда осилиб турган ёки гулдонларни тўлдириб турган гуллар тасвири ҳамда тўпбаргли гуллар ва гуллаган шохнинг тасвири Қўқон, Марғилон ва Асака каштачилари томонидан тайёрланган машина кашталарида учрайди.

Таъкидлаш жоизки, Фарғона каштачилари ўсимликсимон гулларни Ўратепа ва Хўжанднинг қадимги йўрма кашталари услубида таъсвирлаганлар. Бу услуб кашта сатҳининг майда баргсимон гулларини зич тикилиши ўзига хос. Айнан ушбу услубни фарғоналик чеварлар машина йўрмадўзлигида қўллаганлар.[18]

Аста-секин, анънавий кашталарда ўз ифодасини топган, ўзига хос рамзий маъно ва таъссавурга эга бўлган бошқа бир қатор таъсвирлар ҳам машинада тикила бошланди. Албатта, бунда ҳам локал жиҳатлар кузатилади. Чунончи, Фарғона водийсидаги машина кашталарида *“ой”, “олма”, “ноғора гул”, “бодом гул”, “ўн икки ой палак”* каби таъсвирлар кўп акс эттирилган.

Таъкидлаб ўтиш жоизки, “советлар” ҳукмронлиги даврида анъанавий ҳунармандчиликнинг бир қатор соҳаларига эътибор камайиб, йўқ бўлиб кетиш арафасида қолган, аммо водий каштачилиги маълум даражада ривожланишда давом этаётган эди. Бироқ, бу ривожланиш ҳукмрон мафкура манфатларини ифода этиб, каштачилик буюмларининг аксариятида социалистик воқеилик акс эттирилди. Каштачиликда портрет ҳамда сюжетли поннoларни тикиш йўлга қўйилди[19]. Ўша даврда кашта буюмларидаги К.Маркс, Ф.Энгельс, В.И.Ленин ҳамда Сталин сингари “доҳий”ларнинг портрети ёки улар иштирокидаги сюжетли поннoларда совет мафкураси ифода қилинган. Бундай кашта намуналардан одатда жамоат жойларида, ҳусусан биноларни безашда фойдаланилган.

Хуллас, Ўрта Осиё Россия империяси томонидан босиб олингач минтақада янгича ижтимоий-иқтисодий муносабатлар қарор топиб борди. Бу жараёнлар контекстида эса анъанавий ҳунармандчиликда ҳам қатор инновациялар кузатилди. Чунончи, ҳунармандчиликнинг ўзига хос тури аньанавий каштачиликда ҳам ноаньнавий унсурлар намоён бўла бошлади. Анъанавий каштачиликдаги бундай ноаньанавий унсурлар фабрика матоларини, янги ранг бўёқларни ва албатта тикув машиналарини, хусусан йўрма машиналарини ўлкага четдан кириб келиши билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлди. Натижада каштачиликда азалий анъаналар билан инновацияларни уйғунлашуви юз берди.

Адабиётлар

1. Зияев Х. Ўрта Осиё ва Россия муносабатлари тарихи // Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т., 2003. – Б 190

[18] Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б. 32.
[19] Давлатова С. Ўзбек аньанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида ..... Б. 195.

2. История Узбекиской ССР. – Т., 1957. Т.2. С. 126
3. Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лекцикаси Т.; 1959. Б 124.
4. Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лекцикаси...Б 124.
5. Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик ...Б. 6-8
6. Гейдер И.И “Весь русский Туркистан”. Ҳунармандчилик саноати. Тошкент. 1908.
7. “Вестник Виставки 1909” газетаси. Тошкент. 1909 №15.
8. Марозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б.10.
9. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O’RNI. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).
10. “Вестник Виставки”. 1909 №15.
11. Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик....Б. 11.
12. ЎзРФА Шарқшунослик институтининг илмий фонди. Инв №120. 8-10 бетлар (иқтибос. А.Морозованинг кўрсатилган асари асосида келтирилди)
13. Qosimbek o’g’li, P. J. (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O ‘ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO ‘NALTIRILGAN TARG ‘IBOT MAQSAD MUDDAOSI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7), 39-42.
14. Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б. 14.
15. Морозова А. Ўзбекистонда йўрмадўзлик.....Б. 32.
16. Давлатова С. Ўзбек аньанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида ..... Б. 195.

ЭТНИК ЗИДДИЯТЛАР ЁКИ МИЛЛАТЧИЛИКНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ТАРАҚҚИЁТИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ

Олмос Тошев
МТТДМҚТМОИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси
катта ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Турли ижтимоий-сиёсий асосдаги этник зиддиятлар, миллатчилик таҳдидига самарали қарши кураш олиб бориш бугунги кунда глобал даражадаги муаммога айланганлиги таҳлил этилган. Шунингдек, унда айрим мамлакатлар ёки худудларда миллатлараро зиддияларнинг кескинлашуви жамиятда ижтимоий-сиёсий барқарорликнинг заифлашувига ҳамда экстремистик ва миллатчилик характердаги жараёнларининг фаоллашувига олиб келиши мумкинлиги очиб берилган.

Калит сўзлар: этник зиддият, миллатчилик, этник ихтилофлар, миллатлараро тотувлик, миллатлараро муносабатлар, сепаратизм, терроризм, экстремизм.

НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ЭТНИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ ИЛИ НАЦИОНАЛИЗМА НА СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ И РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье анализируется тот факт, что эффективная борьба с угрозой национализма и этническими конфликтами на различной социально-политической основе стала сегодня глобальной проблемой. Также выявляется, что обострение межэтнических конфликтов в отдельных странах или регионах может привести к ослаблению социальной и политической стабильности в обществе и активизации экстремистских и националистических процессов.

Ключевые слова: этнический конфликт, национализм, этнические различия, межэтническое согласие, межэтнические отношения, сепаратизм, терроризм, экстремизм.

NEGATIVE IMPACT OF ETHNIC CONFLICTS OR NATIONALISM ON SOCIO-POLITICAL STABILITY AND DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation: This article analyzes the fact that effectively combating the threat of nationalism and ethnic conflicts on various socio-political grounds has become a global

problem today. It is also revealed that the aggravation of interethnic conflicts in certain countries or regions can lead to a weakening of social and political stability in society and the intensification of extremist and nationalist processes.

Key words: ethnic conflict, nationalism, ethnic differences, interethnic harmony, interethnic relations, separatism, terrorism, extremism.

XVI—XX асрлардаги сиёсий, иқтисодий ва маънавий ҳаёт, халқлар тенгсизлиги, мустамлака давлатларнинг талон-торож қилиниши, уларнинг жисмоний ва руҳий эзилиши тобора ортиб, кучайиб бориши миллатчиликнинг доимий ва кучли ижтимоий оқимга айланишига сабаб бўлди. Бу оқим XXI асрга келиб ҳам ўз кучи ва ижтимоий-сиёсий жараёнларга таъсирчанлигини сақлаб қолди.

Инсоният тараққиётининг тарихий тажрибаси миллатлараро муносабатларнинг ҳолати ва террорчиликнинг намоён бўлиши даражаси ўртасида чуқур алоқадорлик борлигини тасдиқламоқда. Бу масала айниқса кўпмиллатли далатлар учун долзарб аҳамият касб этмоқда. Ижтимоий тараққиётнинг ўзгариши, бир тузумнинг ўрнига бошқасининг келиши, хусусан, собиқ тоталитар тузумдан воз кечиш ҳамда янги демократик тузумга қадам қўйиш, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида туб ислоҳотларни амалга ошириш, фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнларини бошдан кечираётган айрим давлатларда миллатлараро муносабатларнинг кескинлашуви, бунинг натижасида эса оммавий норозиликлар, ҳуқуқбузарликлар, ҳалқлар ўртасидаги ишончсизлик, адоват, экстремистик кайфиятларнинг ўсиб бориши ва унинг ўта чет кўриниши – террорчиликка олиб келишини кузатиш мумкин.

Турли ижтимоий-сиёсий асосдаги этник зиддиятлар, миллатчилик таҳдидига самарали қарши кураш олиб бориш бугунги кунда глобал даражадаги муаммога айланган. Бу муаммо айниқса, МДҲ доирасидаги республикалар учун муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бугун миллат тушунчаси, миллат омили барча ижтимоий ва сиёсий муносабатлар тизимида етакчи омиллардан бири даражасига айланиб бормоқда. Миллат бугун инсоннинг ўзини-ўзи англаши ва ривожланишининг юксак мезонлари даражасига, шунингдек, давлатлараро ижтимоий ва сиёсий муносабатларга ўзининг кучли таъсирини ўтказмоқда.

Барчамизга маълумки, дунёда қанча миллат, халқ бўлса, ҳар бирининг ўзига хос феъли, урф-одат ва фазилатлари бор. Асрлар давомида турли-туман дин, маданият ва турмуш тарзига эга бўлган халқлар биргаликда яшаб келаётган Ўзбекистон ҳам бунинг ёрқин тасдиғидир. Қадим замонлардан бери юртимизда зардуштийлик, буддавийлик, яҳудийлик, насронийлик каби турли дин ва миллат

вакиллари мавжуд бўлган. Айнан шу заминда юз йиллар давомида дунё маданиятларининг катта миқёсдаги бир-бирини бойитиш жараёни рўй берган.

Кейинги пайтларда «миллатлараро тотувлик» ва «миллатлараро муносабатлар» мавзуларида деярли ҳар куни матбуотда гапирилмоқда, кўрсатувлар олиб борилмоқда. Бунинг сабабларидан бири, миллатлараро муносабатлар моҳият ва мазмун жиҳатдан жуда серқирра ва теран мазмунга эга эканлигидадир.

Шу нарсани эътиборда тутиш керакки, миллатлараро тотувлик — умумбашарий қадрият бўлиб, турли халқлар биргаликда истиқомат қиладиган минтақа ва давлатлар миллий тараққиётида муҳим омилдир[20]. Муайян мамлакатга ном берган (титул) миллат билан унда яшайдиган бошқа халқлар ўртасида ҳамжиҳатлик бўлиши ижтимоий тараққиётнинг энг муҳим омилларидан биридир. Инсоният бино бўлгандан буён бу масалалар билан шуғулланиб келади. Ҳозирги даврда миллатлараро тотувлик ва муносабатлар тушунчасининг фалсафий мазмуни тўғрисида кўплаб файласуф, тарихчи, социолог ва шу каби бошқа соҳа вакиллари томонидан таъриф берилган бўлиб, шулардан баъзи бирларини таҳлил қилиб ўтмоқчимиз.

Жумладан, «Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати»да «миллатлараро тотувлик» тушунчасига қуйидагича таъриф берилган: «Миллатлараро тотувлик – миллатлараро аҳиллик, халқаро дўстлик, миллий ғоянинг асосий ғояларидан бири, муайян ҳудуд, давлатда турли миллат вакилларининг баҳамжиҳат яшаши, ҳамкорликда фаолият юритишини ифодаловчи тушунча»[21].

Хорижий сўзлар луғатида эса, миллатлараро муносабатлар тушунчасининг маъноларидан бирини сабр-тоқат, кимгадир, нимагадир ҳурмат-эҳтиромда бўлиш деб талқин этилган. Шунингдек, Оксфорд луғатида миллатлараро тотувлик (толерантлик)ни «шахс ёки буюмни норозиликсиз ёки аралашувсиз қабул қилишга тайёрлик ва қобиллик» деб таърифланади[22].

Россияда нашр этилган сосиологик луғатда эса, миллатлараро тотувликка қуйидагича таъриф берилган:

Ёт одамнинг турмуш тарзи, хулқи, урф-одати, ҳиссиёти, фикри, ғояси, эътиқодига чидамлилик билан ёндашув;

ноқулай омилларни сезмай қолиш натижасида содир бўлган ҳодисаларга бағрикенглик билан ёндашув;

[20] Мамадалиев Ш.О. Миллий истиқлол ғояси ва миллий хавфсизлик. –Т.: «Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси», 2008. –Б.63.
[21] Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. -Т.: «Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи», 2009. –Б.379.
[22] Тишков В.А. О толерантности. //Толерантность и согласие. Материалы международной конференции «Толерантность, взаимопонимание и согласие». Якутск, июнь, 1995. М ., 1997. -С.19.

ноқулай, номақбул ҳиссий омиллар таъсирига ҳам чидам билан ёндашув[23].

Яна бир таниқли олим Марк Ноттурно бу тушунчани қуйидагича изоҳлайди: «миллатлараро тотувлик — ўзга ҳаёт тарзи, нуқтаи назар, ғоялар ва эътиқодларга тоқатлилик, бағрикенгликдир»[24].

Айтиш жоизки, миллатлараро муносабатлар турли зиддиятлар шароитида атрофдагиларга зарар етказмаган ҳолда ўзини-ўзи қарор топтиришдир. Миллатлараро ҳамжиҳатлик ҳис-туйғуларни жиловлайдиган онгли сергак нуқтаи назардир.Маълумки, ўтган асрнинг сўнгги ўн йиллигида содир бўлган геосиёсий ўзгаришлар (Собиқ иттифоқнинг парчаланиши, мустақил давлатларнинг пайдо бўлиши, дунёвий ҳукмронлик учун курашнинг авж олиши кабилар) бундай кўринишидаги ҳаракатлар фаоллашган.

Бундай жараёнлар сиёсий-мафкуравий соҳага ҳам катта таъсир кўрсатди, мафкуравий вакуум хосил бўлди, ватанпарварлик, бурч, байналмилаллик, ахлоқ каби ижтимоий ҳаётни мустаҳкамловчи асослар емирилди. Экстремизм, миллатчилик, терроризмни вужудга келтирувчи омиллар қайта тикланди. Бундай детерминантларга жамиятнинг ижтимоий табақаланиши, сиёсий курашнинг кескинлашуви, ишсизликнинг ўсиб бориши ва фуқароларнинг ижтимоий химояланмаганлиги, жамият ҳаётининг турли соҳалари ва давлат тизими даражаларида тарқалган ҳуқуқий нигилизм, сепаратизм тенденцияларининг кучайиши, қонунчиликдаги камчиликлар ва бошқаларни киритиш мумкин.

Миллатчиликнинг яна бир жиҳати унинг манфаатдор кишилар томонидан сунъий ёки реал мавжуд бўлган таҳдидга қарши кураш олиб бориш мақсадида алоҳида миллат вакилларини уюштириш ва сафарбар этиш имкониятини яратиб беришидадир. Бундай ҳолат алоҳида индивидлар агрессивлигини тўплаш, миллатчилик руҳидаги шиорлар остида бирлаштириш, сафарбар этиш имкониятини туғдириб, уни у ёки бу таҳликали шаклида намойиш этишга етаклайди.

Миллатчиликка ижтимоий-сиёсий зиддиятларни вужудга келтиришнинг жуда кучли детерминанти сифатида мурожаат қилиш унинг таъсир доираси ва маконини сезиларли даражада кенгайтириш, хориждаги миллий диаспораларнинг турли шакллардаги иштирокини таъминлаш (чунончи: мафкуравий, моддий, техник, молиявий ва бошқа кўмак кўрсатиш; миллатчиларга мақбул келадиган ижтимоий фикрни шакллантириш; зарурият тўғилса давлат тузулмалари, хукумат, халқаро ташкилотларга таъсир ўтказиш ва х.қ.) орқали битта давлат чегарасидан чиқиб кетишигача олиб келиши мумкин.

[23] Российская социологическая энциклопедия. –М.: «Наука», 1998. –С.278.
[24] Марк Ноттурно. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие «закрытых обществ». //“Ижтимоий фикр” журнали. №2, 1998 йил.

Миллатчилик ва террорчиликнинг умумийлиги тарихий тараққиёт жараёни билан тасдиқланган, иккаласи ҳам ижтимоий-сиёсий, иқтисодий шароитлар ёмонлашганда, талафот, инқироз ва бир тузумдан иккинчисига ўтиш шароитида вужудга келади. Айнан шундай ҳолат бугунги кунда жаҳоннинг қатор мамлакатларида (Англия, Сирия, Россия, Украина, Молдавия, Озарбайжон ва х.қ) кузатилмоқда.

Миллатчилик террорчилигидан миллий (давлат) ва халқаро даражадаги сиёсий мақсадларда фойдаланишнинг замонавий шароитлари миллатчилик моҳияти ҳамда уни ташкиллаштириш усулларини ўзгартириб юборди. XX аср иккинчи ярмида миллатчилик терроризмида содир бўлган бундай ўзгаришлар қатор тенденцияларда ўз ифодасини топган.

Фикримизча, ушбу тенденцияларни белгилаш нафақат миллатчилик терроризмнинг инсоният тараққиётига глобал таҳдид солувчи ролини асослаш, балки унга қарши кураш олиб боришнинг илмий асосланган чора-тадбирлар тизимини ишлаб чиқиш учун ҳам муҳимдир.

Миллатчилик терроризми ривожланишининг муҳим тенденцияларидан бири - унинг халқаро муносабатлар, халқаро ва миллий хавфсизлик, давлатлар конституциявий тузуми, фуқаролар ҳақ-ҳуқуқларига нисбатан ижтимоий хавфининг ўсиб боришидир ва бу биринчидан, бу жаҳоннинг турли давлатларида илдиз отган ва жаҳон сиёсати, айрим мамлакатлар сиёсий амалиётига миллатчилик экстремизми ва сиёсий терроризмнинг кириб бориши ва фаоллашувига замин бўлади. Ўтган асрнинг ўрталари ва охирига келиб кишилик жамиятининг барча соҳаларида зиддиятоген салоҳият йиғилиб қолди. Айнан шу салоҳият бугунги кунга келиб сиёсий зўравонликнинг ўзига хос шаклларини вужудга келтиришга сабаб бўлган. Улар қаторида миллатчилик ва миллатчилик сепаратизми, миллатчилик террорчилиги алоҳида ўрин тутади.

Иккинчидан, бу тараққий этадиган жараёндир ҳамда у аҳоли турли гуруҳ ва қатламларини (энг аввало, миллатчилик экстремизми, диний-сиёсий, неофашизм асосида) дунёнинг асосий қитъалари ва айниқса Яқин ва Ўрта Шарқ, Лотин Америка, Шимолий Америка, Жанубий-Шарқий Осиё, Ғарбий Европа мамлакатларида кечаётган сиёсий экстремизмнинг турли оқимларга жалб этиш билан тавсифланади.

Учинчидан, сиёсий жиҳатдан «оқланган» зўравонликнинг хавфли шакл ва усулларга мурожаат қилиш, миллатчилик ҳаракатларини амалга оширишда куч ишлатиш, вайронгарчиликлар, одамларни ваҳшиёна ўлдириш ва х.к.

Тўртинчидан,турли мафкуравий-сиёсий йўналишдаги миллатчилик руҳдаги ташкилотлар фаолиятининг алоҳида миллат, элатларга қарши қаратилган дахшатли таъсири томон барқарор ўзгариши[25].

[25] Dobson C., Payne R. The terrorists.Their Weapons, Leaders and tactics.-N.Y., 1979.-P.112.

Бугунги кунда, МДҲ давлатлари ички ва ташқи хавфсизлигига нисбатан миллатчилик ижтимоий хавфининг ўсиб боришини кузатиш мумкин.

Миллатчилик терроризми сиёсий хокимият учун кураш олиб бориш, уни қўлга киритиш ва сақлаш каби сиёсий мақсадларга эришиш воситаси сифатида айнан миллатчилик кайфиятлар кенг илдиз отган ва тарқалган, конфессияларо зиддиятлар кучайган, жамият криминаген даражаси юқори бўлган, жиноятчилик ривожланган мамлакатларда намоён бўлмоқда.

Шу билан бирга, миллатчилик терроризми ўз амалиётида террорчилик усулларига мурожаат қилиш орқали ўз сиёсий рақибларга, хокимият идоралари ёки уларнинг вакилларига босим ўтказиш, турли клан, мафия тизимлари билан ҳисоб-китоб қилиш ва таъсир кўрсатишга интилади.

Замонавий миллатчилик терроризмнинг муҳим тенденциядан бири - унинг ижтимоий асосининг кенгайиб боришидир.

Миллатчилик терроризми жаҳоннинг қайси мамлакатида бўлишидан қатъи назар аҳоли турли қатлам вакилларини уюштиришга интилишини намоён қилиб, уларда миллатчилик руҳдаги сиёсий мақсадларни қўллаб-қувватловчи кайфиятларни кучайтириш, бу мақсадларга эришиш йўлидаги усул ва воситаларини танлашдаги уйғунликка эришишга муваффақ бўлмоқда.

Миллатчиликнинг келиб чиқиши ва эволюциясини тадқиқ этувчи кўпчилик хорижлик олимлар фикрича, турли қарама-қаршиликлар ва зиддиятлардан иборат бўлган жамият ижтимоий тараққиёти миллатчилик актларида иштирок этишга тайёр турган, у ёки бу миллат устуворлигини, алоҳидаликни қўллаб-қувватловчи ижтимоий гуруҳлар сони ўсиб бормоқда. Ижтимоий, иқтисодий муаммолар кўпайиб бориши эса, ўз навбатида миллатчиликнинг ижтимоий асосини кенгайтириб боради.

Сиёсий беқарорлик юксак даражада бўлган ҳамда сиёсий экстремизми тарқалиб бораётган айрим худуд ва мамлакатларда миллатчилик терроризми ижтимоий асосининг кенгайиб бориши миллатчилик руҳдаги террорчилик ташкилотлари актив фаолиятининг зарурий шартидир.

Миллатчилик террорчилик ижтимоий асосининг муҳим вазифаларидан бири алоҳида миллат вакилларидан иборат бўлган гуруҳлар, аҳоли қатламлари томонидан террорчилик фаолиятини сиёсий, ахлоқий жиҳатдан қўллаб-қувватлашишига эришиш, миллатчилик ғояларига содиқ кишилар билан қаторларини тўлдириш, ҳар қандай ёрдам кўрсатишга тайёр туришдан иборат.

Юқорида кўрсатилган ушбу тенденциялар турли характердаги миллатчилик намоён бўлишининг шаклларида (намойиш ва чиқишлар, тарғибот ишлари, унинг легитимлик даражасини оқлаш ва шу туфайли айрим халқ, миллат, элат томонидан қўллаб-қувватланиши, миллатчилик руҳдаги ёки миллатчилик террорчилик руҳдаги ташкилотлар инфраструктурасини шакллантиришнинг

сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий, техник имкониятларини кенгайтириш ва х.қ.) ифодаланади.

Фикримизча, миллатчилик терроризми ижтимоий асосининг кенгайиб боришига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:

- жаҳоннинг турли мамлакатларида ижтимоий-иқтисодий ва мафкуравий-сиёсий зиддиятларнинг кенгайиши асосида ушбу ижтимоий-сиёсий курашга етарли даражада сиёсий онг ва маданиятга эга бўлмаган, сиёсий экстремизм таъсирига мойил бўлган қатлам ва гуруҳлар вакилларининг кенг жалб қилиниши;

- айрим мамлакатлар ёки худудларда миллатлараро зиддияларнинг кескинлашуви, экстремистик ва сепаратик характердаги миллатчилик жараёнларининг фаоллашуви, уларга аҳоли кенг қатламларининг жалб қилиниши;

- турли худудларда конфессияларараро зиддиятларнинг тарқалиши, диний ва диний-сиёсий экстремизмнинг ривожи (аввало ислом характердаги), ушбу асосда кенг халқ оммаси иштирокида давлатлараро ва давлат ичидаги барқарор характердаги сиёсий тўқнашув ва зиддиятларнинг шакллантирилиши;

- жаҳоннинг турли худудларида худудий сепаратизмнинг кескинлашуви, давлат маъмурий-худудий тузилиши, давлат ичидаги алоҳида худудларнинг сиёсий-ҳуқуқий макомини ўзгартириш мақсадида қуролли курашнинг вужудга келиши ва х.қ.

ЖАМИЯТДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА АҲЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ ЎРНИ

Шапсанова Нодира Бердиқуловна
Республика Маънавият ва маърифат маркази
ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти тадқиқотчиси

Бугунги кунда жамият тараққиётининг мезонлари кўп жиҳатдан ҳозирги замонавий билимларга интилувчан, изланувчан, фикри теран баркамол ёшларнинг фаол ҳаётий позициясига эга эканлиги билан белгиланади. Айнан ана шу мезонлар уларнинг ижтимоий воқеликка мослашувига, унда ўз ўрнини қатъий белгилаб олишига, шахсий манфаатларини жамият манфаатлари билан уйғунлаштирган ҳолда амалга оширилаётган янгиланиш ва ўзгаришларнинг фаол иштирокчиси ҳамда ташаббускорига айлантиради. Бир сўз билан айтганда, ўз билими, қобилияти ва эзгу мақсадлари йўлида танлаган ҳаётий позицияси улардаги ижтимоий фаолликни юзага чиқаради. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги эса аввалambор уларнинг етук мутахассис ва юксак инсоний фазилатларга эга шахс бўлиб етишишига ижобий таъсир қилувчи муҳим омилдир.

Шунинг учун айни пайтда амалга ошираётган бунёдкорлик ишларимиз, ислоҳотлар самарадорлиги жамиятнинг энг фаол, ташаббускор кучи бўлган баркамол авлоднинг фаол ҳаётий позициясини шакллантириш ва уни мустаҳкамлаш самарадорлиги билан узвий боғланиб кетган. Ҳозирда мамлакатимиз таълим тизимида амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар туфайли ёшларни ҳар томонлама етук, баркамол инсон қилиб тарбиялаш ҳамда уларнинг замонавий билим олиши, касб-ҳунар эгаллаши учун беқиёс имкониятлар яратилган. Зеро, Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “...глобаллашув даврида таълим-тарбия жараёни замон қўяётган талабларга жавоб бериши, ундан орқада қолмаслиги муҳим ахамиятга эга”[26]. Чунки ҳар томонлама етук баркамол авлодгина бугун ҳаёт олдимизга қўяётган ўта мураккаб оғир синов ва қийинчиликларни енгиши, кўзланган юксак мақсад ва марраларни эгаллаши мумкин. Шу ўринда айтиш жоизки, мамлакатимизда баркамол авлодни тарбиялашга хизмат қилаётган бундай эзгу саъй-ҳаракатлар замирида ёшларнинг фаол ҳаётий позициясини мустаҳкамлашларига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Янгиланаётган жамиятимизда миллий-маънавий тараққиётнинг янги босқичида шахс маданиятини юксалтириш энг асосий маънавий-мафкуравий

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошриш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб - қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106 сонли Фармони // lex.uz 2017 йил 5 июл.

ишлар сарасига киради. Чунки фуқаролик жамиятида соҳавий институционал ўзгаришлар ва жамиятда функционал ислоҳотларни амалга оширилиши бевосита шахс тарбиясига жиддий таъсир ўтказиб, унга жиддий, институционал, функционал ўзгаришлар ясайди. Фуқаролик жамиятида хизмат кўрсатиш, ишлаб чиқариш, нодавлат ва нотижорат уюшмалар гуллаб яшнайди.

Ёшларга оид давлат сиёсатини ривожлантириш соҳасида жисмонан соғлом ва руҳан тетик, ақлан ривожланган ёшларни тарбиялаш, юксак эстетик дидга эга, эстетик идеал руҳида тарбияланган ёшларни тарбиялаш, уларнинг фаолиятида эстетик туйғу, дид ва ижтимоий гўзаллика муносабатини ўзгаритириш; ёшларни шахсий ривожланишида илмий-ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш, уларни санъат, спорт, бадиий адабиёт мутолааси, замонавий компьютер технологиясига жалб қилиш, хотин-қизларни фаоллигини ошириш каби беш муҳим ташаббусни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Ҳаракатлар стратегиясида кўрсатилган устувор йўналишларни яна такомиллаштириш мақсадида 2019 йил 19 март куни ўтказилган видеоселектор йиғилишида Президентимиз барча даражадаги раҳбарлар, ҳукумат аъзолари, давлат ва нодавлат ташкилотлари мутасаддиларидан ёшларга эътиборни кучайтиришни талаб қилганди[27]. Мамлакатимиз аҳолисининг 30 фоизи 14 дан 30 ёшгача бўлган ёшлар ҳисобланиб, уларнинг таълим олиши, касб-ҳунар эгаллаши учун замонавий шароит ва имкониятлар яратиш зарур. Маълумки, давлатимиз раҳбари ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича бешта муҳим ташаббусни илгари сурди. Бу муҳим ташаббус ёшларни эстетик идеалини ривожлантириш ва эстетик иммунитетини янада юксалтиришга хизмат қилади. Бу ташаббуслар қуйидагилардан иборат:

биринчи ташаббус ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқариш;иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтириш;учинчи ташаббус аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланиш, турли эстетик дидни тушрадиган, хунукликни ва гўзалликни ажарата билиш учун тарғибот ва ташвиқотни шакллантииш; тўртинчи ташаббус ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонлик, мутолаа маданиятини кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтириш; бешинчи ташаббус хотин-қизларни ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш кўзга тутилган.

Шунга кўра беш муҳим ташаббусда мақсад – ёшларда эстетик идеални шакллантириш ва ривожлантириш, институционаллашиш – амалга ошириш

[27] Президент беш ташаббус бўйича йиғилиш ўтказди. https://qalampir.uz/news/prezident-besh-tashabbus-buyicha-yigilish-utkazdi-1797

шакллари ва ижтимоий ҳамкорлик – давлат ва нодавлат институтлараро интеграцияни амалга оширишдир:

1. Адабиёт ва санъатга жалб қилиш орқали шахс эстетик идеалини шакллантириш (бадиий-маданий, бадиий-эстетик фаолият, эстетик объектларга жалб қилиш) институтлари. Санъат ва маданият клублари (Олий таълимда талабалар баҳори, Қувноқлар ва зукколар, рақс ансамбиллари, миллий фольклор жамолари, этномаданий гуруҳлар), танловлар (янги аср авлоди, китобхон талаба, Зулфия мукофоти,), ташкилий асослар (турли эстетик тарбия йўналишидаги ижодий уюшмаларнинг – ёзувчилар, рассомлар, композиторлар, актёрлар, меъморлар, файласуфлар, экологлар билан учрашув, театр ва музейларга, туризм объектларига, муқаддас қамжоларга ташриф буюриш;

2. спорт ва соғломлаштиришга жалб қилиш орқали шахсда эстетик идеални шакллантириш институтлари. Булар чемпионатлар (ички, ташқи чемпионат), ОТМлараро мусобақалар (спорт саломатлик гарови, универсиада, оилавий спортни ривожлантириш акциялари), ташкилотлар кубоклари (ректор кубоги, кураш, шахмат ва шашка биринчилиги), соғломлаштирувчи акциялар (югуриш марофонлари, биз чекишга қаршимиз, биз соғлом турмуш тарафдоримиз)дан иборат. Уларнинг таркибий тузилишлари, функционал иерархияси ўзаро алоқадорликда, бирликда шахс тарбиясида миллий-этник ва ахлоқий-эстетик мақсадни уйғунлаштириш, умумисоний эстетик идеал тизимида бағрикенглик (толерантлик), гармония (уйғунлик), атроф-муҳитни гўзаллаштириш тамойилларини ишлаш механизмларига хизмат қилади ва маълум маънода, объектив омил ҳисобланади.

3. Ёшларда ахборот маданиятини шакллантириш орқали компьютер технологияларини ўрганишга жалб қилиш ва интернетдаги киберэкстремизм омилларидан ҳимоялашнинг институционал кўринишлари. Тугараклар (ёш дастурчилар, миллий-этник маданият объектларини 3D форматда ишлаб чиқарувчилар), танловлар (энг кучли компьютер мутахасислиги, компьютер саводхонлиги), виртуал клублар (гейм устаси, компьютер виртуал ўйинлари ғолиби, турли ўлчамдаги шаклларни ясаш), ташкилий асос (электрон кутубхоналар, технологик парклар, виртуал қабулхоналар)дан ташкил топади.

4. Китобхонликни тарғиб қилиш, мутолаа маданиятини шакллантириш ва шахс эстетик идеалини бадиий адабиёт орқали ривожлантириш. Бу ерда мутолаа маданиятини тарғиб қилувчи, билим ва амал бирлаштирувчи клублар, тафаккур синовлари, ёш китобхон, энг кўп китоб ўқиган ёшларга Президентни мукофоти, мен севган китоб сингари танловлар, мен севган бадиий қаҳрамон, энг китобхон мактаб, энг китобхон маҳалла, энг китобхон оила, энг фаол кутубхоначи каби кўрик-танловларни ўтказиш кўзга тутилган. Китоб маҳсулотларини эстетик қадрият сифатида истеъмол эттириш, ўзлаштириш билан шуғулланувчи

институтларга эса, узлуксиз таълим-тарбия тизими (мактабагача, мактаб, ўрта махсус ва олий таълим), тарғибот-ташвиқот билан шуғулланувчи маданият ташкилотлари ва бошқа муассасалар киради[28].

Ташкилий масалаларга оммавий диктантни уюштириш ва китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишнинг устувор йўналишларини келтириш мумкин. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 12 январда — Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш,китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича коммиссия тузиш тўғрисид Фармойиши 2017 йил 13 сентябрда —Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида Қарори ташкилий чора-тадбирларни амалга ошиширишга катта ҳисса қўшмоқда.

5. Хотин-қизларни ижтимоий-сиёсий фаоллаштириш ва касбий маҳоратини шакллантириш. Бу ерда айниқса қизларни касбга, спортга жалб қилиш, соғломлаштириш, турмушга тайёрлаш, қизларни турли йўналишлардаги тугракларини ташкил қилиш, талаба қизларни, ёш оналарни қўллаб-қувватлаш ишларини ташкил этиш кўзга тутилган[29].

Ҳар бир ёш авлод жамиятнинг сиёсий, ҳуқуқий, аҳлоқий маданиятини эгаллаганда, ўзидан аввалги авлодларнинг ижтимоий-сиёсий тажрибаларига ёндашади ва уларни ўз онгидан ўтказади, яхшиларини олиб, фаолиятида тадбиқ қилади, бу билан ўзининг маданиятини юксалтиради.

Ёшларда ҳуқуқий, сиёсий аҳлоқий маданиятни қарор топтиришда аввало уларнинг дунёқарашларида, тафаккурида умуминсоний қадриятлар, миллий қадриятлар билан уйғунликда миллий истиқлол мафкураси ҳам сингиши лозим. Ана шу дунёқараш шаклланган сўнг уни ҳимоя қилишга қодир ҳуқуқий, сиёсий, аҳлоқий маданият шаклланишига шарт-шароитлар яратиш зарурияти туғилади. Чунки ҳуқуқий, сиёсий маданият ва ҳуқуқий ҳимоянинг мавжудлиги жамият демократлашувининг асосий кафолатларидан биридир.

Жамиятимизнинг буюк келажагини таъминлаш учун ёшларга жамиятнинг барча жабҳаларида шу жумладан олий таълимда ҳам дунёвий ва диний билимларнинг уйғунлигини сингдириш, уларда тинчлик маданиятини шакллантириш лозим бўлади. Маданият тушунчасини ўрганиш жараёнида сиёсий, ҳуқ-уқий аҳлоқий маданиятни ривожланиш даражаси билан унинг

[28] Самадов А.Р. Миллий-маънавий тараққиётнинг янги босқичида шахс эстетик идеалининг институционал ва функционал ўзгаришлари. “Миллий юксалиш ва ёшларнинг ижтимоий сиёсий фаоллигини оширишнинг долзарб масалалари” мавзусида республика илмий-назарий масофавий конференцияси материаллари. Самарқанд: СамДАҚИ нашри, 2020. -38- 39-бетлар.

[29] Президент беш ташаббус бўйича йиғилиш ўтказди. https://qalampir.uz/news/prezident-besh-tashabbus-buyicha-yigilish-utkazdi-1797

мазмунини фарқлаш жуда муҳим. Уларнинг мазмунини аҳолининг ижтимоий гуруҳи, жумладан ёшлар шерик бўлган сиёсат, ҳуқуқ, мафкура, ахлоқ мазмунлари белгилайди. Сиёсий, ҳуқуқ, аҳлоқий маданият даражаси эса жамиятнинг аниқ механизмида номаён бўладиган, мазмунан бойитилган изчил даражадир. Давлатимизда юз бераётган жараёнлар шу вақтгача анъанавий бўлиб келган илмий изоҳларни кескин ўзгартирмоқда. Масалан: инсон ҳуқуқлари нуқтаи назари жиҳатидан баҳолаш, янгича ёндашишларни келтириб чиққан ҳолда қонунда таъқиқланмаган барча нарсалар жамият фойдасига хизмат қилиши керак. Шу сабабдан сиёсий, ҳуқуқий аҳлоқий маданият алоҳида аҳамият касб этмоқда, чунки уларнинг мазмунида инсонпарварлик, умуминсоний қадриятлар мужассамдир. Ёшларда сиёсий, ҳуқуқий, аҳлоқий маданият юксалишининг ўзига хос кафолатлари бўлиб улар қуйидагилар ҳисобланади:

- сиёсий, маънавий, ҳуқуқ фикрларнинг илғор ғояларини ўзига сингдирилганлиги,
- иқтисоднинг юқори даражаси унинг барқарорлиги:
- қонунларнинг такомиллашганлиги:
- қонун устуворлиги:
- шарқ мутафаккирларининг ҳуқуқий, сиёсий, ахлоқий қарашлари ва ғояларининг ўзида мужассамлаштирганлиги. Ёшлар билан бўлган суҳбатлар, очиқ ва ёпиқ ҳолдаги социал тадқиқотлар бизга уларнинг ҳуқуқий онгига, ҳуқуқий маданиятига салбий таъсир кўрсатадиган омилларни аниқлашга имкон берди. Булар қуйидагилардир: ёшларда умумий дунёқарашнинг торлиги, ҳамма нарсани пул билан ўлчаши, атрофдаги салбий феъл-атворли шахсларнинг таъсир этиши ва бошқалар[30].

Ҳозирги кунда ёшлар ҳуқуқий маданиятини шакллантиришда ўзига хос тўсиқ бўлаётган омиллар: қонунларга риоя этилишини таъминловчи таъсирчан механизмларнинг тўла куч билан ишламаётганлиги: айрим мансабдор шахслар томонидан қонунларни кўр-кўрона бузилиши; ўқув юртларида ҳуқуқшунослик фанига кам соат ажратилганлиги: ушбу фан таълим муассасаларида ҳаммасида ҳам ҳуқуқшунос мутахассислар томонидан ўқитилмаётганлигидадир. Ҳуқуқ нормаларини мукаммаллаш-тиришда ахлоқ катта рол ўйнайди, ҳуқуқ нормалари эса уни одамлар онгига сингдиришда ёрдам беради. Ҳуқуқий, сиёсий маданиятнинг аҳлоқий маданият билан боғлиқлиги, қуйидаги аҳлоқ категорияларида номаён бўлади: тўғрилик ва ҳаққонийлик, инсонийлик ва ишонч, виждон ва жавобгарлик ҳисси ҳамда бошқалар. Конституциявий нормаларда ҳам аҳлоқий принципларни, ҳуқуқий ва аҳлоқий мажбуриятлар бирлиги мустаҳкамланиб қўйилган: 48-моддасида «Фуқароларнинг Конституция

[30] Президент беш ташаббус бўйича йиғилиш ўтказди. https://qalampir.uz/news/prezident-besh-tashabbus-buyicha-yigilish-utkazdi-1797

ва қонунларга риоя эркинликлари, шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилишга мажбурдирлар»[31].

Ҳуқуқий, сиёсий маданият каби аҳлоқий маданият даражасини ошириш зарурати ҳозирги шароитда мустақил Ўзбекистоннинг мафкуравий-иқтисодий тараққиёти учун ҳам муҳим ҳисобланади. Ёшларнинг аҳлоқий маданияти моҳияти уларнинг индивидуал онгини ва амалий фаолиятини миллий ва умуминсоний тамойиллар даражасига олиб чиқилиши билан алоҳида хусусиятга эгадир. Айни вақтда ёшларнинг аҳлоқий маданиятининг асосий хусусиятлари аҳлоқий билимлар, ҳис-туйғулар, эътиқод ва амалий ишларда номаён бўлади. Ҳуқуқий ва ахлоқий маданиятни шакллантириш турли йўналишларда амалга оширилсада, қуйидагилар асосий фактор бўлиб кўрсатилади. Биринчидан, ёшларга ҳуқуқнинг аҳлоқий қиммати жамият тараққиётининг асосий ҳаракатчиси эканлигини кўрсатиш ва асослаш. Ҳуқуқ нафақат жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий асосини ва сиёсий тузумини мустаҳкамлайди, балки инсонларнинг ҳатти-ҳаракатини ижтимоий жиҳатдан тартибга солувчи, илмий ва маданий қадрият сифатида номаён бўлади. Ҳуқуқ инсонларнинг ижтимоийлашувининг, маънавий баркамоллашуви, дунёқарашнинг кенгайиши, инсониятнинг маданий бойликларини ўзлаштиришнинг асосий воситасидир[32].

Маънавий-аҳлоқий маданият сиёсий ва ҳуқуқий маданиятга қанчалик таъсир этса, ўз навбатида сиёсий, ҳуқуқий маданият ҳам маънавий-аҳлоқий маданиятнинг шаклланиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга эгадир. Сиёсий-ҳуқуқий воқеа-ҳодисаларнинг идрок қилиши, жамиятда ишлаб чиқиладиган ва амалга ошириладиган сиёсатнинг, ҳуқуқий муносабатларнинг аҳлоқ нормаларига мувофиқлиги ёки мувофиқ эмаслиги ёшларнинг онгли фаолияти орқали унинг алоҳида намоён бўлади.

Маълумки, таълим-тарбиянинг асосий мақсади- ёшларда шахс сифатида юксак аҳлоқий фазилатлари шакллантиришдан иборатдир. Аҳлоқ бўлмаса инсон ижтимоий шахс сифатида шаклланмайди.

XXI асрда яшар эканмиз бугунги кунда инсондан кескин сифат ўзгариши ўз-ўзини англаб олишни талаб қилмоқда. Тинчлик маданияти ва зўравонликка қарши ҳаракатга жаҳоннинг турли бурчакларида турли даражада фаолиятлар олиб борилди. Тинчликни тарғиб этувчи, зўравонликка қарши курашувчи, ижтимоий ҳақиқатни ўрнатиш учун ҳаракат қилган давлат арбоблари ва номаёндаларини кўплаб келтириб ўтишимиз мумкин. Улар қаторига Махатмаганди Мартин Лютер Кинг, Нельсон Манделла, Алберт Швейцер, Данло Дольчи, Мать Тереза ва бошқа минглаб тинчликсеварларни келтириб ўтиш мумкин.

[31] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: Ўзбекистон. 2020 й.
[32] Исломов З, Ҳусанов О, Мирҳамидов И. Ҳуқуқшунослик. Маърузалар матни. Т.: 2000 й. 47-б.

Тинчлик маданияти муаммоси ўз ичига давлатлараро, халқлараро, миллатлараро, шунингдек давлат ичидаги турли гуруҳлар орасидаги, ижтимоий келиб чиқиши, ёши, миллати, жинси, маданияти ва дини турлича бўлган инсонлар ўртасидаги муносабатларни қамраб олади. Тинчлик маданияти доимий ҳаракатдаги, кенг қамровли, кўп ўлчамли ва очиқ тушунчадир. Унинг замирида дунёга кенг қараш ётади. У зўрлик ва қуролли тўқнашувларни олдини олиш, тинчлик ўрнатиш, инсон ҳуқуқлари ҳурматини таъминлаш, демократиянинг чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш билан боғлиқ тушунчадир.

Ёшларда тинчлик маданиятини шакллантиришда давлат ва нодавлат ташкилотлари, жамоат бирлашмалари, таълим соҳаси хизматчилари, ёшлар ва аёллар ташкилотлари биргаликда, ҳамкорликда иш олиб боришлари лозим. Ушбу ҳамкорликка халқаро ташкилотларни ҳам жалб қилиш мақсадга мувофиқдир.

TURKIYADAGI 1918 - 1920 YILLARDAGI SIYOSIY JARAYONLARNI TURKISTONDA CHOP ETILGAN MATBUOT NASHRLARIDA YORITILISHI

Hamraqulov Serobjon Soliyevich
Qo‘qon DPI Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada 1918 - 1920- yillarda Turkiyada bo‘lib o‘tgan hukumat o‘zgarishlari Turkistonda chop etilgan Ishtirokiyun va Qizil bayroq gazetalarida berilgan xabar va maqolalar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiy tilli davlatlar kengashi,mabuot,Turkiya,hukumat o‘zgarishlari.

Аннотация: В статье анализируются правительственные изменения, происходившие в Турции в 1918-20 гг., на основе сообщений и статей, опубликованных в газетах «Иштирокиюн» и «Қизил байрак», издававшихся в Туркестане.

Ключевие слова: Организация тюркоязичных государств,пресса,Турция, правительственные изменение.

Abstract: The article analyzes the government changes that took place in Turkey in 1918-20 on the basis of reports and articles published in the newspapers “Ishtirokiyun” and “Kizil bayrak”, published in Turkestan.

Key words: Organization of Turkic-Speaking States, periodical, Turkiye, government changes.

Kirish

Ma’lumki O‘zbekiston turkiy tilli davlatlar bilan tarixan uzviy aloqada bo‘lib kelgan. 2017-yildan boshlab bu borada yangi davr boshlandi.Xususan 2021-yil 11-12-noyabr kunlari Turkiyaning poytaxti Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar kengashining navbatdagi yig‘ilishida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev raqamlashtirish, ekologiya, madaniyat va yoshlar masalalari borasida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Bunday tashabbuslar qatorida Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish tadqiqot markazini tashkil etish ham o‘rin olgan edi[1].

Shu nuqtai nazardan turkiy xalqlar tarixini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan aloqalari bir qator mahalliy manbalarda atroflicha yoritib o‘tilgan. Ammo Turkiyaning XX asr boshlaridagi siyosiy hayoti, uning birinchi jahon urushidagi ishtiroki, jahon urushining Turkiyaga ta’siri va uning natijalari, Mustafo Kamol posho faoliyati, turk –yunon urushlari, Turkiyaning

respublika deb e’lon qilinishi, bu yerda sultonlikning tugatilishiga oid maxsus tadqiqotlar uchramaydi. Bu o‘rinda bizga davriy matbuot yordamga keladi.

1918 yildan so‘ng Turkistonda chop etilgan markaziy “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston” va viloyatlarda chop etilgan “Xalq gazeti”, “Yangi Sharq” (Qo‘qon), “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon” (Samarqand) va boshqa gazeta jurnallarda Turkiya tarixining ushbu davriga oid bir qator muhim va qiziqarli ma’lumotlar aks etgan. Xorijiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning Turkistonda chop etilgan sovet hokimiyati yillarida chop etilgan nashrlarga zid kelishi yoki sovet davri adabiyotlaridagi sinfiylik yondashuvlari mazkur tadqiqot yuzasidan aniq faktlarni, tarixning muayyan davrlarida bildirilgan munosabatlarni to‘g‘ri tahlil qilishni, qiyoslashni talab etadi.

Maqolada tarixnavislik ilmida qabul qilingan usullar, ya’ni tarixiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma-ketlik tamoyillariga tayanib, tahliliy ma’lumotlar yoritildi.

Turkiyada Birinchi jahon urushining so‘nggi yillarida mamlakatda siyosiy inqirozlar boshlanganligini ko‘rish mumkin[2].

Bu erdagi siyosiy jarayonlarda shuni kuzatish mumkin-ki, Jahon urushida Turkiyaning ittifoqchilarining yengilishi aniq bo‘lib qoldi. Turkiya ham o‘zi uchun qulay bo‘lgan sulh tuzishga harakat qiladi. Shu maqsadda Usmoniylar davlati dengiz vaziri Husayn Raufbek, xorijiy ishlar vazirligi vakili Rashod Xikmat, harbiy kengash qo‘mondonlaridan bo‘lgan Sadullabeklardan iborat delegatsiya ingliz generali Taundsen bilan muzokara o‘tkazish uchun keladi. Bu muzokaralar bir oz uzoq davom etadi. Dastlab Turkiya ittifoqchilaridan Bolgariya urushda engiladi, qirol Ferdinand mamlakatdan qochib ketadi, 1918-yil 30-oktyabrda Antanta davlatlari bilan sulh tuzadi. Bu davrda Turkiyada hukumatda bo‘lgan Tal’at posho kabineti iste’fo beradi va uning o‘rniga Izzat posho boshchiligida yangi hukumat shakllantirilib, bu hukumat bir nechta bitimlar imzolaydi. Bu hukumat bir qancha ijobiy islohotlarni amalga oshirsada, ammo 1918- yil 21-noyabrda o‘z o‘rnini Tavfiq posho hukumatiga bo‘shatib beradi[3]. Ushbu hukumatning dastlabki ishlaridan biri bu Majlisi Ma’buson (parlament) ni tarqatish bo‘ldi. Shu bilan birga ushbu hukumat davrida Antanta ittifoqchilari tomonidan Turkiya hukumatiga 52 moddalik sulh shartnomasi taqdim qilinadi. Ushbu shartnomaga muvofiq Turkiyaning dengiz kuchlari va temir yo‘llari ittifoqchilarga berilishi, harbiy kuchlari esa Antanta ko‘rsatmalari bo‘yicha harakat qilishi kerak edi. Shuningdek, Turkiyaning viloyat hokimliklari markaziy hukumat bilan aloqalarini uzishi, agar biror viloyatda qo‘zg‘olon ko‘tarilsa, ushbu qo‘zg‘olonlar ittifoqchi qo‘shin tomonidan bostirilishi belgilangan edi. Tavfiq posho hukumati uzoq vaqt hukumatni boshqarsada, tayinli ishni amalga oshirmadi. Shundan so‘ng o‘z o‘rnini 1919-yil 5-martda Domod Farid posho boshchiligidagi yangi hukumatga bo‘shatib berdi. Ushbu hukumatning amalga oshirgan dastlabki ishlaridan biri bu urush

aybdorlarini aniqlab ularni jazolovchi bir mahkama tuzganligi bo‘ldi.Ushbu mahkamada bir nechta davlat ayonlari mahkamaga tortilib jazo oldi. Shu bilan birga ushbu hukumat davrida yunon qo‘shinlari tomonidan Izmir shahri talon – taroj etiladi. Sulton hukumati bunga etarli choralar ko‘rmaydi. Shu sababli Mustafo Kamol posho boshchiligida Onto‘lida “Millat huquqlarini mudofaa jamiyati” nomli uyushma tuzib yunonlarga qarshi kurashga kirishadi.Bu voqealardan keyin 1919-yil 20-mayda Farid posho yangidan hukumat tuzadi va yangi hukumatga avvalgi hukumatlar raislari Tavfiq va Izzat posholarni ham kiritadi[4]. Ushbu yangi hukumatning asosiy faoliyati urushda g‘olib bo‘lgan davlatlar tomonidan Turkiyaga qo‘yilgan shartlarni muhokama qilish uchun Parij konferensiyasida ishtirok etish bo‘ldi. Ammo bu yo‘nalishda ham ular muvaffaqiyatga erisha olmadi.Shundan so‘ng Farid posho 1919-yil 21-iyulda uchinchi marta yangi hukumat tuzadi. Ushbu yangi hukumat davrida Majlisi Ma’buson yangidan chaqirildi. Hukumat g‘alib davlatlar tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishga kirishdi. Ammo majlisning qaytadan tashkil etilishi ba’zi bir kuchlarga yoqmadi. Bu va boshqa omillar sabab 1920-yil 5-martda hukumat Solih posho boshchiligidagi kabinet qo‘liga o‘tdi.Ushbu voqeadan o‘n kun keyin Istanbul ittifoqchi davlatlar qo‘shini tomonidan ishg‘ol etildi. Bir oy faoliyat yuritgan Solih posho hukumati o‘z o‘rnini 5 apreldan yana Farid posho hukumatiga topshirdi[5]. Farid posho 11-aprel kuni Majlisi Ma’busonni tarqatib yubordi. Matbuot materiallarida Farid poshoning yana hukumat boshiga o‘tishi aholi tomonidan salbiy qarshi olinganligini ko‘rsatadi.Ushbu davrdan boshlab Onato‘li va Istanbul bir – biriga qarshi frontlarga aylanganligini ko‘rish mumkin. Tarqatilgan majlis a’zolarining aksariyati Anqaraga borib faoliyat yurita boshlaydi. 1920-yil 23-apreldan boshlab bu majlis Anqarada yangi “Buyuk Millat Majlisi” nomi ostida Turkiya nomidan faoliyat olib borishini bildiradi. Mustafo Kamol posho uning raisi etib saylanadi. Farid poshoning hukumat raisligi davrida Ittifoqchi davlatlar tomonidan Turkiyaga qo‘yilgan shartlar o‘rin olgan “Sevr” shartnomasi taqdim qilinadi. Ushbu shartnoma olish uchun borgan Turkiya hay’ati sultonga telegramma yuborib, agar mazkur shartnoma imzolansa,Turkiya Istanbuldan iborat kichik bir davlat bo‘lib qolishini bildiradi. Ko‘rinib turibdiki, Turkiyada bu davrda murakkab siyosiy jarayonlar bo‘lib o‘tgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda keltirilmaydi, shu sababli matbuotda mana shunday muhim va faktik ma’lumotlar ko‘plab e’lon qilib borilgan. Bu davrda Turkistonda xorijni o‘rganuvchi maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu o‘rinda esa bu jarayonlar yoritib borilgan davriy matbuot muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga matbuotda e’lon qilib borilgan fakt va dalillardan jaxon tarixi darslarida ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://daryo.uz/k/2021/11/12/turkiy-tilli-davlatlar-hamkorlik-kengashi-nomi-turkiy-davlatlar-tashkiloti-deb-ozgartiriladi/

2. Abu Turg‘ud. Turkiya sultoni iste’folari munosabatila//Ishtirokiyun -1919 yil 6 iyul

3. Turkiya hukumati qanday holda?// Qizil bayroq, 1922 yil 9 iyun

4.Buyuk Turkiya qanday holda? // Qizil bayroq,1922 yil 14 iyun

5. Buyuk Turkiya qanday holda? // Qizil bayroq,1922 yil 18 iyun

6. Solievich X. S. MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924 AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-POLITICAL THOUGHTS IN THE REGION //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 387-390.

7. Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924 AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-POLITICAL THOUGHTS IN THE REGION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 387-390.

8. Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 391-394.

9. Ҳамракулов, С. С. (2017). ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ИРРИГАЦИЯ ТИЗИМИ ВА УНИ ЎРГАНИНИЛИШИДА РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИ МАЪЛУМОТЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ. *Научная дискуссия: вопросы социологии, политологии, философии, истории*, (6), 45-49.

10. Хамракулов, С. (2023). ТУРКИСТОНДА СОВЕТ ХОКИМЯТИ ЙИЛЛАРИДА ЧОП ЭТИЛГАН ЖУРНАЛЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). *Interpretation and researches*, *1*(10).

11. Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924 AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-POLITICAL THOUGHTS IN THE REGION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 387-390.

12.Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 391-394.

13.Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924 AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-POLITICAL THOUGHTS IN THE REGION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF*

MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, *11*(12), 387-390.

14.Solievich, X. S. (2022). MAGAZINES PUBLISHED IN TURKESTAN IN 1918-1924. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 391-394.

15.Elyor Abdullajonovich Rahmonov and Mukhsin Moydinovich Kholmatov. "THE PROCESS OF PROVIDING THE POPULATION WITH HOUSING IN THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION IN UZBEKISTAN.(In the case of the Fergana Valley, 2016-2020)." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 346-350.

16.Rakhmonov E. THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN //Конференции. – 2021.

ZARAFSHON MINTAQASI O‘RTA SHAHARLARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Usmonov Ahrorbek Uyg‘un o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zarafshon mintaqasida joylashgan o‘rta shaharlar, ularning geografik joylashuvi, iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlari va xo‘jalik maqsadidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zarafshon mintaqasi, o‘rta shahar, rayon, aholi manzilgohi, iqtisodiy rayon, Urgut shahri.

Аннотация. В данной статье описаны средние города, расположенные в Зарафшанском районе, их географическое положение, экономические и демогрофические показатели, экономическое значение.

Ключевые слова: Зарафшанский район, средний город, район, жилой массив, экономический район, город Ургут.

Annotation. This article describes the medium-sized cities located in the Zarafshan region, their geographical lokation, economic and demographic indicators, and economic importance.

Key words: Zarafshan region, medium-sized town, region, human settlement, economic region, Urgut city.

Zarafshon iqtisodiy rayoni mamlakatimizning qoq markazida, Zarafshon daryosining o‘rta va quyi qismida shakllangan. Zarafshon mintaqasi O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, ushbu rayon o‘z tarkibiga Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini birlashtiradi. Rayonning maydoni 168,1 ming km^2 bo‘lib, respublika hududining 37,4 foizini tashkil qiladi. Zarafshon mintaqasi O‘zbekiston aholisining qariyb 1/5 qismi yashaydi. Mintaqaning Mirzacho‘l, Quyi Amudaryo hamda Janubiy iqtisodiy rayonlar bilan tutashganligi, qulay iqtisodiy geografik o‘rni, shaharlar to‘ri va tizimining shakllanishiga ta’sir etgan. Hudud shaharlarining umumiy soni jihatidan faqat Farg‘ona va Janubiy rayonlardan keyingi 3-o‘rinda turadi. (jami 232 ta shahar va shaharchalar). Iqtisodiy rayonda 2 ta yirik, 1 ta katta, 4 ta o‘rta va 225 ta kichik shaharlar joylashgan.

Mintaqa shaharlari shakllanish tarixi, katta-kichikligi va bajaradigan funksiyasiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatga ega. Binobarin, mintaqaning ayrim shaharlari mamlakatimiz qadimgi davlatchiligining shakllanish va rivojlanish markazlari bo‘lsa, ba’zilari o‘tgan asrning 50-yillarida paydo bo‘lgan yangi shaharlar sirasiga kiradi.

Iqtisodiy rayonda 4 ta o‘rta shahar mavjud bo‘lib, ularda 312,5 ming kishi yashaydi. Bu 4 shaharda mintaqa shahar aholisining 8,6 foizi istiqomat qiladi. Kattaqo‘rg‘on shahri aholisi katta shaharlar chegarasiga ancha yaqinlashgan (1-rasm).


Aholisi 50-100 ming kishilik shaharlarni ma’muriy bo‘ysunuvi jihatidan tahlil qilinganda, Zarafshon respublikaga bo‘ysunuvchi shahar, Kattaqo‘rg‘on va Kogon esa viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar hisoblanadi. Urgut shahri - tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga mansub.

Vaholanki, Urgut shahri ham kamida viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar qatorida bo‘lishga haqli. Chunki, viloyatga bo‘ysunadigan shaharlar turkumiga kamida 30 ming aholisi bor, muhim ma’muriy ahamiyatga ega, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markaz deb hisoblangan shaharlar kiritilishi belgilangan. Urgut shahrini Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni va demografik salohiyati viloyat ahamiyatidagi shahar bo‘lishi uchun yetarli.

Mintaqa shaharlari joylashuvida o‘ziga xos farqlar mavjud. Masalan, Buxoro viloyatlari hududdining aksariyat qismi cho‘l zonasida joylashgan bo‘lib, ularda shaharlar to‘ri uncha yaxshi shakllanmagan. Samarqand viloyati shaharlarining aynan karvon yo‘llari kesishgan Buyuk Ipak yo‘lida, madaniyat va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashuvi, mikro va mezogeografik o‘rnining qulayligi shaharlar geografiyasining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan

1-rasm

Zarafshon mintaqasi o‘rta shaharlari aholisining o‘sish grafigi



	1926	1939	1959	1970	1979	1989	2000	2005	2010	2015	2021
Zarafshon	0	0	0	0	35,3	47,4	53,3	54,9	72,5	75,7	85,1
Kogon	10,4	17,6	21,1	34,1	41,8	47,9	52,9	53,3	55,3	58,9	61,5
Kattaqo`rg`on	14,5	25,9	34,1	44	53	58,3	66,1	64,5	77,8	83,2	91,7
Urgut	3,7	16,5	10,5	14,7	20,4	36,9	49,4	54	58,8	63,4	74,2

Manba: Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Kogon shahri – Buxoro viloyatidagi shahar. 1929-yilda shahar maqomini olgan. 1935-yilgacha Yangi Buxoro deb atalgan. Buxoro shahridan 12 km janubi-sharqda

joylashgan. Buxoro viloyatida o‘zining xo‘jalik-ma’muriy potensiali jihatidan viloyat markazi bo‘lmish Buxoro shahridan keyingi ikkinchi yirik shahar. Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar qatoriga transport geografik o‘rni, viloyat markaziga yaqinligi, sanoat tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligini keltirib o‘tish mumkin. Kogon viloyatning qadimgi shaharlaridan biri bo‘lib, shahardan 1888-yilda temiryo‘l o‘tkazilgan. Bu aholi manzilgohlari sonining ko‘payishiga o‘ziga xos turtki bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshlarida shaharda 10 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan. Keyingi yillarda shahar aholisi muntazam o‘sib borgan (1-jadval).

Bugundi kunda shaharda 61,5 kishi istiqomat qiladi. 2021-yil boshida tug‘ilganlar 1173 kishi (o‘g‘il bolalar 577 ta, qiz bolalar 596 ta), o‘lganlar 381 kishi (erkaklar 197 kishi, ayollar 184 kishi). Tabiiy ko‘payish 0,8 promilleni tashkil qiladi. Mazkur yilda ko‘chib kelganlar 27 kishi, ko‘chib ketganlar esa 402 kishiga teng.

Ko‘rinib turibdiki, maxanik ko‘payish anchagina manfiy saldoga ega. Tuzilgan nikohlar soni 457 ta, ajrashishlar esa 74 tani tashkil qiladi. Aholisi asosan o‘zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining aksariyat qismi temiryo‘l transportida ishlaydi.

1959-yilda Gazli-Kogon gaz quvuri o‘tkazilib, gaz kompressor stansiyasi barpo etilishi shahar sanoati shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shaharda hozirgi kunda 30 dan ortiq sanoat korxonalari bor. Shaharda yengil va oziq-ovqat, kimyo sanoati yaxshi rivojlangan. Kogon shahri viloyat sanoat mahsulotlarining 4,7 % qismini tashkil qiladi. Tarmoqlar bo‘yicha tahlil qilinganda, Kogon shahri viloyat oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining 11,6 %, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 6,2 %, kiyim ishlab chiqarishning 8,1 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning 7,4 %, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning 17,0 %, metallurgiya sanoati mahsulotlarining 48,2 %, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 58,3 %, Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning 53,9 % ulushi ishlab chiqariladi.

Shaharda ijtimoiy soha obyektlari ham yaxshi rivojlangan. Shaharda 11 ta umumta’lim maktabi, 21 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 5 ta shifoxona muasassasi, 22 ta ambulator-poliklinikalar, 1000 ga yaqin tibbiyot xodimi, 1 ta axborot-kutubxona markazi.

Zarafshon shahri – Zarafshon shahrining shakllanishi o‘tgan asrning 60-yillardagi geologik – qidiruv ishlari natijasi bilan bog‘liq. 1967 yilda Muruntov konining ishga tushirilishi va foydalanishga topshirilishi munosabati bilan shahar posyolkasi bunyod etildi. Navoiy viloyatining yirik “resurs” shaharlaridan biri. 1972-yilda shahar maqomini olgan. Mamlakatimizning markaziy qismida, Qizilqum cho‘lida joylashgan. Shahar tipik cho‘l sharoitida rivojlanayotgan manzilgohlardan biri bo‘lib, uning tabiiy sharoiti va iqlimi o‘rab turgan Qizilqum cho‘li bilan chambarchas bog‘liq. Zarafshon shahri viloyatning markazidan (Navoiy shahri) 200 km uzoqlikda,

shimoliy g‘arbda o‘rnashgan. Ma’muriy jihatdan viloyatga bo‘ysunuvchi 2 ta shahardan biri (ikkinchisi – Navoiy) hisoblanadi. Shaharning tashkil topishi uni yaqinida joylashgan oltin konining ochilishi bilan chambarchas bog‘liq. Zarafshonning keyingi rivojlanishi ana shu tabiiy resursni qazib olish va uni mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi uchun yetkazib berish bilan bog‘liq holda kechdi.

Zarafshon shahri bugungi kunda respublikaning yirik industrial markazlaridan biri. Shaharda ko‘plab sanoat korxonalari, kichik biznes subyektlari, qurilish va transport tashkilotlari ishlab turibdi. Chunonchi, shaharning asosiy korxonasi Navoiy KMK ning Markaziy Kon boshqarmasidir. Uning tasarrufida “Muruntog‘” kon 2-GMZ, Qizilqum fosfort majmuasi va boshqa bo‘linmalar mavjud. Shular bilan bir qatorda Navoiy KMK tasarrufiga kiruvchi Zarafshon qurilish boshqarmasi ham faoliyat yuritmoqda.

Shaharda 2007-yildan buyon Navoy davlat Konchilik institutining Zarafshon filiali, o‘rta-maxsus o‘quv muassasalari, umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, shahar aholisi uchun tibbiyot mussasalari, madaniyat uylari, dehqon va buyum bozorlari xizmat qilayapti.

Zarafshon shahri aholisi XX asrning so‘nggi choragida juda tez sur’atlar bilan o‘sdi. 1970-yildagi aholi ro‘yxati davrida Zarafshon shaharchasida 14,7 ming aholi mavjud edi. Keyingi o‘n yillikda shahar aholisi 2,5 martadan ortiqroq ko‘paydi. Agar 1970-yil Zarafshonda 14,7 ming kishi yashagan bo‘lsa, 1979-yilga kelib shahar aholisi 35,3 ming kishiga yetdi (5-jadvalga qarang). O‘tgan asrning 70- yillarida shahar aholisi soni 20,6 ming kishiga ortdi. 80-yillardan keyin esa shahar aholisining ko‘payishi biroz sekinlashdi. Shunday bo‘lsada, 1979-1989 yillar mobaynida shahar aholisi 12,3 ming kishiga ko‘paydi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizning barcha shaharlari singari Zarafshon shahridan ham tashqi migratsiya kuchaydi. Natijada shahar aholisining o‘sishi nihoyatda sekinlashdi. Agar 1989-yil Zarafshonda 47,4 ming kishi yashagan bo‘lsa, 2000-yilga kelib shahar aholisi 53,3 ming kishiga etdi, ya’ni o‘tgan 11 yil orasida shahar aholisi bor yo‘g‘i 5,9 ming kishiga ko‘paydi, xolos. XXI asrdan boshlab shahar aholisi sonining ortishi yana tezlashdi. Ayni paytda, Zarafshon shahrida 85,1 ming kishi yashamoqda.

Kattaqo‘rg‘on Zarafshon daryo o‘rta oqimining chap sohilida, dengiz sathidan 485 m balandlikda joylashgan. XVII asrning oxirgi choragida (1683 – 1684 yillar) hozirgi Kattaqo‘rg‘onga (uning qadimgi qismi – “eski shahar”) asos solingan. Samarqand shahridan (viloyat markazidan) 76 km shimoli-g‘arbda vujudga kelgan ushbu manzilgoh 1868-yilda shaharlar qatoridan joy oldi. Keyinchalik XIX asr oxirida Turkmanboshi (Krasnovodsk) – Toshkent temir yo‘lining o‘tkazilishi bilan qulay geografik o‘ringa ega bo‘ldi. XX asrning 40-yillarida Zarafshon daryosi suvidan oqilona foydalanish maqsadida Kattaqo‘rg‘on suv ombori (O‘zbekiston dengizi)

qurildi. Bu esa shaharning nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki rekreatsion ahamiyatini ham oshirishga xizmat qildi.

Geografik o‘rnining qulayligi va xomashyo rayonlariga yaqinligi bois, shaharda sanoat tarmoqlari tez rivojlanib bordi va o‘rta shaharlar (aholisi 50-100 ming kishi) qatoridan joy oldi. Jumladan, shaharda yog‘-ekstraktsiya kombinati, paxta tozalash, g‘isht va sutni qayta ishlash zavodlari, go‘sht va un kombinatlari kabi korxonalar ishlab turibdi. Ayni paytda, Samarqand viloyatining “ikkinchi shahri” hisoblangan Kattaqo‘rg‘onda 90 ming kishidan ortiq aholi yashaydi.

Urgut – Zarafshon vodiysining sharqiy qismida, shimolda Turkiston va janubda Zarafshon tizmalari orasida, dengiz sathidan 1000 m balandlikda joylashgan. Urgut shu nomli tuman markazi bo‘lib, Samarqand shahridan 45 km sharqda vujudga kelgan. Shahar ancha qadimiy bo‘lishiga qaramay, hech qachon tarixda muhim markaz vazifasini bajarmagan. Shahar asosan XX asr davomida taraqqiy etdi. Tuman markazi funktsiyasini yuklanishi hamda unda sanoat va xizmat ko‘rsatish obyektlarini mujassamlanishi oqibatida 1973-yilda Urgut shaharlar qatoriga kirdi.

Shahar qadimdan savdo va hunarmandchilikning viloyatdagi eng yirik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Urgutda Samarqand viloyatidagi eng katta bozor joylashgan. Bozor atrofida milliy hunarmandchilikning qator rastalari shakllangan. Urgutning qulay geografik o‘rni, ishlab chiqarish infrastrukturasi va investitsion jozibadorligi erkin iqtisodiy zonani (EIZ) shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Ayni paytda O‘zbekistondagi EIZ lardan biri Urgut shahrida faoliyat olib bormoqda. EIZlarning samarador faoliyati nafaqat mazkur shaharning balki viloyat va mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynamoqda.

Qolaversa, Urgut juda katta turizm va rekreatsion imkoniyatlarga ega. Shahar va uning atrofi xushmanzara tabiati, so‘lim maskanlari, muqaddas buloqlari va boshqa diqqatga sazovor joylari bilan mashhur. Ayniqsa, ming yillik chinorlar, xususan “Chor chinor” qadamjosi ichki va tashqi turizmning doimiy obyekti hisoblanadi. Bundan tashqari, shahardagi jahon bozori va hunarmandchilik rastalari ham mahalliy va xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Shu bois, Urgutning kelajakdagi rivojlanishida ham turizm va rekreatsiya omiliga alohida e’tibor qaratish lozim.

Janubiy O‘zbekiston shaharlar to‘rining shakllanishida gidrologik omillar, yangi yerlar va foydali qazilmalarni o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Mintaqa ichki hududiy mehnat taqsimotini tabiiy sharoiti (agroiqlimiy) va resurslari belgilab beradi. Binobarin, hududda joylashgan shaharlarning aksariyati tog‘oldi va tekislik shaharlari hisoblanadi. Iqtisodiy rayon shahar manzilgohlarining 63.8 foizi (164 ta) va ulardagi aholining 64.9 foizi (1199 ming kishi) tekislik mintaqasiga to‘g‘ri kelgan. Mintaqada o‘rta shaharlar to‘ri yaxshi shakllanmagan bo‘lib, hududda jami 2 ta o‘rta shahar shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
2. Kadirov M.A. Shaharlar geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent.: 2019.
3. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. -Toshkent.: 2019.
4. Mavlonov A.M. Cho‘l urbanizatsiyasi. Monografuya. -Buxoro.: 2015.
5. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
6. Bo‘rieva M.R., Tojieva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
7. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.

GENRE OF VARIATIONS IN THE PIANO WORKS OF S. V. RACHMANINOFF

Gaibova Habiba Sodiqjon qizi
1st year master`s student
The State Conservatory of Uzbekistan

Annotation: this article discusses the embodiment and development of the genre of variations in the piano work of the great Russian composer and one of the best pianists in the history of the world S. V. Rachmaninoff, and highlights the elements which composer uses to enriches the classical form of variations.

Key words: piano music, variations, theme, style, independent miniatures, macrocycle, traditions, cycle, emotions, romanticism, elements of jazz, elements of pop.

S. V. Rachmaninoff the brightest Russian composer, conductor of the late XIX - early XX century, a representative of the late romanticism and rightfully considered one of the best pianists in the world in the history of pianism. “He was a remarkable artist: a composer, a pianist and conductor, phenomenally gifted in all three professions.” [1, P. 5]

An outstanding pianist and composer, Rachmaninoff was a follower of the synthetic tradition of the XIX century romanticists, such as Schumann, Liszt and Rubinstein who, in addition to composing and performing, also engaged in musical criticism and public activism, which promoted these artists to the rank of the most prominent exponents of progressive ideas of their time.

Rachmaninoff’s music is a daunting score of emotions, because emotions are the most delicate instrument to have an insight of the man’s inner world. The composer equally embraces dramatic experiences, elatedly ecstatic and melancholically elegiac moods and contemplative lyrical static, which diversely and colourfully represent the wide-ranging palette of the soul’s experiences.

It can be argued that Rachmaninoff would not have made such a rich and bright contribution to the development of piano literature if he did not have an amazing power and originality. The same embossed elastic rhythm combined with singing, "vocalism", the same sculptural modeling of the phrase, rich and diverse "registration", which were characteristic of the performing manner of Rachmaninoff-pianist, in a hidden form are contained in the musical notation of his compositions.

“He wrote only three piano pieces in variation form. Unlike other composers, he only used borrowed-themes rather than creating his own. His last piano composition, Rhapsody on a theme by Paganini, Op. 43 for piano and orchestra, is in this form. His

last piano solo work is also in variation form—Variations on a theme by Corelli, Op. 42. It is interesting that it took him almost thirty years to write another set of variations after Op. 22. And it is also worth noting that variation was the form he eventually went back to at the end of his compositional career." [2, P. 3-4]

The variational cycles created by Rachmaninoff at different stages of the creative path covering three decades, clearly reflect the process of evolution of the composer's style, which is especially noticeable when comparing op. 22 with his latest works. "Variations on the theme of Chopin" (1903) not only directly precede the first notebook of Preludes op. 23, but also foreshadows the later opuses of the 1900s-1910s, where the main images of the variational cycle receive an in-depth and detailed embodiment. At the same time, op. 22, being a kind of pen test, reflects the process of creative search, reveals the influence of romantic variations of the XIX century and, above all, Schumann, Tchaikovsky, which could not but affect the interpretation of the genre, form, style of the work as a whole. "The "Gen of Romanticism", so characteristic of the early stage of Rachmaninoff's creativity and especially for piano works, or rather, its echoes, refracted through the prism of the aesthetics of the Silver Age, and then new trends in the field of poetics, stylistics of the 1910s and 1920s, will be preserved in the late opuses of the composer, however, as well as some musical images, the principles of writing.

Created in 1931, "Variations on the theme of Corelli" became a kind of prologue to "Rapsody on the theme of Paganini" (1934) and more broadly - to the tragic triad of Rachmaninoff's last works, forming a kind of macrocycle with them. Being a continuation of the characteristic properties of the musical style of the "Russian period", "Variations on the theme of Corelli" also reveal features of the late style. This is revealed in op. 42 and - their artistic concepts, complexity and depth of content, features of dramaturgy, composition and as a result of development. "Rapsody on the theme of Paganini" turns out to be the culmination in the implementation of the variational method by Rachmaninov and one of the top examples of the genre of variations as a whole.

First of all, the choice of themes for building a variational form is indicative. In the 1900s, a period of creative rise and formation of style, Rachmaninoff turns to Chopin's mourning prelude, the theme of which undoubtedly belongs to a group of characteristic, individualized. On its basis, the composer creates a cycle of free, typically romantic variations. In the foreign period, after severe shocks, Rachmaninoff switches to a world of tragic feelings, more restrained and harsh. Hence the appeal to the themes of Folia, the 24th Caprice of Paganini and Dies irae, the style of which is dominated by generalized features that open up the widest opportunities for subsequent transformations. At the same time, when comparing the last two cycles, it becomes obvious that there is great rigor, restraint, graphic design and musical fabric in dealing

with the topic in the "Variations on the theme of Corelli", despite the depth of processing and rethinking of the topic. Similar properties in Rhapsody are combined with a special freedom due to the philosophical nature of the concept, which, in turn, is concretized by the process of interaction of two topics: Paganini and Dies irae. Hence the uniqueness of the genre, dramaturgy and composition of the work, the role of intonation symbolism, etc.

An important feature of "Variations on the theme of Corelli" and "Rapsody on the theme of Paganini" is the manifestation of some neoclassical features, generally characteristic of Rachmaninoff's late style - such as the economy of means of expression, strengthening the role of polyphony, intellectual and constructive beginning. This reflects one of the most significant style trends of the first third of the 20th century.

In later variations, this feature is due to the very nature of the themes. These are: the synthesis of saraband and chorale in Folia, generalized intonation formulas underlying Paganini's theme (tonic-dominant scheme-frame and melodic contour of the "golden sequence" descending second-tertz "staircase" as a hidden prototype of Dies irae). Together with the initial motifs, they perform the function of microthemes in the process of deploying a musical plot. The neoclassical trends are also evidenced by the appeal to the ancient genres of the menouet, Sarabanda, Siciliana, chorale, etc.

The evolution of the composer's worldview is clearly reflected in the artistic, semantic result of the three cycles. In particular, the direction of the development of Chopin's theme corresponds to the principle of "from darkness to light": from the mourning procession in the theme and the first variations to the triumphal-heroic finale of Maestoso (XXII variation), from moll - to C dur, - thereby causing an analogy with Schumann's "Symphonic Etudes". The influence of the Schuman cycle is also manifested in figurative-textured, genre parallels. Such are, for example, the kertzous XV variation of Rachmaninoff and the V variation of Schumann, polyphonic XI-XII variations of Rachmaninoff and IV, VIII variations of Schumann, etc. Analogies of a compositional and dramatic nature are revealed in the introduction of slow variation as a lyrical center before the final, the rondo-shaped form of the final, saturated with development, etc.

The slow code of "Corelli Variations" with its piercing nostalgic intonation after previous motor variations plunges you into the opposite world of reflections, memories, causing associations with the slow endings of the First Piano Sonata, the Elegy Trio, the First Symphony and at the same time Adagio III Symphony and the waltz from the "Symphonic Dances".

In the code of "Rapsody on the Theme of Paganini" of the general culmination of the work - the tutti's sound of the chorale with Dies irae absorbs the main theme, personifying the triumph of fatal forces, their triumph, from the point of view of

semantics coinciding with the general culminations of the Third Symphony and "Symphonic Dances".

Overall, it is worth noting that Rachmaninoff variations combine the features of the so-called "strict" and "free" type. The variational cycle in the late work of Sergei Vasilyevich reaches a different pedestal. The ancient musical form is embodied in the concert genre, variations acquire independence, thanks to which the effect of a separate miniature is created within one cycle.The development is gradual from simple to more complex. If in the first links of the variational cycle the structure and harmonic plan of the theme are preserved inviolably, then in the future the composer goes far from the original image and uses only individual intonation elements, developing them freely and this giving some variations the character of individualistic, finished by the expression of small plays.

The nature of Rachmaninoff's art is virtuoso and concert scale, enlargement of expression. These properties will remain with him outside his homeland. Far from his native Russia, Sergei Vasilyevich composed "Rhapsody on the Theme of Paganini", "Variations on the Theme of Corelli", 3 symphony, remake "Variations on the Theme of Chopin", "Symphonic Dances", complete the Fourth Piano Concerto, make a transcription of Tchaikovsky's romance "Lullaby".

Later works include elements of variety, jazz, but it should be noted that Rachmaninoff did not recognize exoticism in music, he aspired to traditional origins. The composer experimented by entering pop elements into classical forms. The means of avant-garde familiar to him, neo-baroque, neo-Russian, neoclassical styles were combined with a banner chant. The writings of this period are characterized by elements of the "near-jazz subculture" ("Symphonic Dances" II part, "Variations on the theme of Corelli" (variation № 4), "Rapsody on the theme of Paganini" (variation № 7), the Third Symphony (final)); the introduction of elements of traditional music characteristic of Spanish and Latin American peoples ("Variations on the theme of Corelli" - variation № 17, "Symphonic Dances", Third Symphony).

Rachmaninoff's "pop" is individualized. The elements of pop music of later works absorbs the effects of irony, sarcastic, obsession, entertainment. The superficiality of the effects falsely obstructs the composer's gloomy and tragic idea ("Rhapsody on the Theme of Paganini", "Symphonic Dances", "Third Symphony", the final of the Fourth Piano Concerto). Internal philosophical spirituality in an external entertainment show.

In fact, S. V. Rachmaninoff can be considered the last Russian, national romantic of the twentieth century. He completes "Russian" romanticism and at the same time paves a new path of compositional research in music.

References:

1. J. H. Kim. A study of Rachmaninoff `s variations on a theme by Chopin, op. 22. Indiana. 2018

2. G. Norris. Rachmaninoff. New York. 1976

3. Zh. Ming. Aesthetic phenomenon piano music Rachmaninov. Tashkent. 2011

4. Yu. Keldysh. Rachmaninoff and his time. Moscow.1973

5. K. Zenkin. Piano miniature and the ways of musical romanticism. Moscow. 2019

6. V. Bryantseva. Rachmaninoff `s piano works. Moscow.1966

SHARQIY YEVROPANI KOMMUNIZATSIYALASHTIRISH JARAYONI

Yuldashev Akmal Kurbanbayevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyin Sovet davlati sharqiy va markaziy Yevropa hududlariga o‘z kommunistik go‘oyasi va boshqaruvini joriy qila boshlaganligi haqida hamda bunga G‘arb davlatlarining xususan, Aqsh hukumatining siyossiy munosabatlari haqida atroflicha yoritiladi. Shuningdek ushbu hudud aholisining yangi kommunizm g‘oyasini qabul qilishidagi qiyinchiliklar va turli aholi qatlami orasidan siyosiy qochoqlarning oshib borishiga sabab bo‘lgan omillar haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Kompartiya, Sovet Ittifoqi, Sharqiy Yevropa, Kompartiya, Siyosiy qochoqlar, GDR, Temir parda, NATO, Totalitar, BBC, CNN, Media, Gulag, Berlin devoir, Konsepsiya, Propaganda.

Ikkinchi jahon urushi natijasiga ko‘ra Sovet Ittifoqining ta’sir doirasini, Sharqiy Yevropa davlatlari hisobidan kengaytirish hamda bu safga yangidan qo‘shilgan mintaqalarda Sovet tuzumini joriy qilish Kompartiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraldi. Natijada davlat g‘oyasi bo‘lmish “kommunistik mafkura”ni Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlariga majburiy tarzda kiritish haqida qarorlar qabul qilindi va buni amaliyotga joriy etish boshlandi.[33] Bu esa, avval fashizm va antikommunistik g‘oyalar ostida yashagan mamlakatlarda kommunistik tuzumni kuch bilan o‘rnatilishidan darak berardi. Shuningdek hukumatning kuch ishlatar tuzilmasi ushbu siyosatni yanada chuqurroq bosim ostida amalga oshirishga undardi. Haqiqat shu ediki, kommunistik partiya yangi ijtimoiy – siyosiy muhit bilan to‘qnashishi va bu yerda jiddiy g‘oyaviy kurash bo‘lishi muqarrar ekanini anglatardi. Sovet hukumati ayniqsa kommunistik partiyaning kuch ishlatar tuzilmalari rahbarlariga bu mamlakatlarni nazorat qilishda katta mushkulotlar mavjud ekanligi yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Chunki, antikommunistik, fashizm kabi turli mafkuraviy g‘oyalar ostida yashab kelgan bu mintaqalarning aholisi sovet tuzumidan unchalik ham mamnun emasdi. Qolaversa, bu xalqlarning ayrimlari fashistlar Germaniyasini yoqlagan, aksari o‘z mustaqilliklari uchungina fashizmga qarshi qurol ko‘targan kishilardan iborat edi. Bundan tashqari, “Yevropada oralab yurgan sharpa – kommunizm sharpasi”[34] xuddi Rossiyadagidek

[33] Harrison, Hope M. “The Berlin Wall after Fifty Years: Introduction.” German Politics & Society, vol. 29, no. 2 (99), 2011, pp. 1–7. JSTOR, http://www.jstor.org/stable/23744556. Accessed 24 Nov. 2023.
[34] Fuchs-Schündeln, Nicola, and Matthias Schündeln. “The Long-Term Effects of Communism in Eastern Europe.” The Journal of Economic Perspectives, vol. 34, no. 2, 2020, pp. 172–91. JSTOR, https://www.jstor.org/stable/26913189. Accessed 24 Nov. 2023.

amaliy qiyofa kasb etishidan yurak hovuchlab yurgan kapitalistik doiralar, reaksion kuchlar sotsializmni o‘z xalqiga ola-bo‘ji qilib ko‘rsatishga tirishib kelardi. Buning uchun propaganda vositalaridan unumli foydalanib, targ‘ibot uchun mablag‘larini ayashmasdi. G‘arb axborot vositalari, oktyabr inqilobidan keyin Rossiya va Ukrainada ro‘y bergan qurg‘oqchilik tufayli vujudga kelgan ocharchilik va buning oqibatida million-million kishining yostig‘i quriganini; bolsheviklarning qatag‘on siyosati – sovet davlatining jazo mashinasi ming-minglab begunoh fuqarolarni avaxta va surgunga giriftor etgani haqidagi ma’lumotlarni tinmasdan tarqatardi. Xuddi shunday muammoga duch kelinishi avvaldan tahlil qilinib, sovet hukumati bu haqda alohida qarorlar ham chiqargan edi. Masalan Kompartiyaning (1945 yil 31 avgustdagi) navbatdan tashqari yig‘ilishida Sovet Ittifoqi kommunistlari Markaziy va Sharqiy Yevropaga kommunistik g‘oyalarni kirgizish va uni sovet tuzumi mexanizmlari asosida boshqarishning quyidagi konsepsiyasini[35] ishlab chiqishgandi:

1) Kommunistik partiyaning asosiy nashrlaridan boshqa barcha turdagi mafkuraviy (antikommunistik, fashistik) nashrlarni hamda Yevropaning barcha kundalik ommaviy axborot vositalarini (belgilangan hududda yoyilishini) bloklash;

2) Markaziy va Sharqiy Yevropaning Sovetlar hukmronligida bo‘lgan hududlarda g‘arb ommaviy axborot vositalarining ta’sirini to‘xtatish va unga qarshi amaliy mafkuraviy ishlar olib borish.[36]

Shundan keyin Sovet hukumatining kuch ishlatar tuzilmalari ushbu masalaga alohida jiddiy yondashib shug‘ullanishga kirishdi. Maxsus topshiriqlar asosida ushbu harakatlar jiddiy tus ola boshladi. Bu esa Sharqiy Yevropaliklarga kommunizm g‘oyalarini targ‘ib qilishning dastlabki bosqichlari edi. Bundan tashqari bu hududlarda mavjud bo‘lgan tuzumga ehtiyotkorlik bilan barham berish lozimligi alohida vazifa sifatida nazoratga olindi. Shu borada dastlabki qadam sifatida, Sovet kuch ishlatar tuzilmalari yangi hududlardagi barcha ommaviy axborot vositalari harakatini bosqichma-bosqich nazorat qilishga va ba’zi nashriyotlarni butunlay yopishga kirishdi. Asosan g‘arbiy Germaniyadan keladigan Nemis jurnallari, radio efirlari va turli-tuman informatsion xarakterdagi varaqalar qattiq nazoratga olindi. Sharqiy hududlarda propoganda mashinasi, asosan kommunistik g‘oyalarni tarqatishi lozim edi va ixtiyoriy ravishda buning iloji bo‘lmagan taqdirda, bu ishni majburiy ravishda amalga oshirish ko‘zda tutilgandi. Sovet ittifoqi kommunistik partiyasining se’zdlari va siyosiy byuro Plenumi qarorlarida, kuch ishlatar tuzilmalarining bu boradagi vakolatlari belgilab qo‘yilgandi. Qonun hujjatlarida, sovet tuzumiga qarshi fikr aytish, uni ko‘pning

[35] Konsepsiya – biror-bir masalaga nisbatan, bir-biri bilan bog‘langan yaxlit bir tizimni tashkil etadigan qarashlar jamlanmasi; biror-bir voqea va hodisaning talqinini bir xil tushunish vositasi.

[36] Советы депутатов трудились в СССР. Известия 31 августа 1945 g. № 205 (8815) “Sovietsof Working People's Deputies of the USSR” Izvestiia, No.205, August 31, 1945, page(s):4. Among the longest-running Russian newspapers, Izvestiia was founded in March 1917and during the Soviet period was the official organ of the Presidium of the Supreme Soviet of the USSR. Remarkable for its serious and balanced treatment of subject matter, Izvestiia has traditionally been a popular news source within intellectual and academic circles.

e’tiboriga havola etish isyon yoki xoinlik deb ayblanib, juda og‘ir jinoyat sifatida baholangani va keskin jazo moddalari bilan belgilanganidan ham bilishimiz mumkin.

Bu ishlarning asosiy sababi, sovet xalqi va kompartiyani turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga qaratilgani bilan ifodalandi. Bu fikrni har jihatdan rivojlantirib va asoslab, barcha ommaviy axborot vositalari orqali doimiy targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Barcha ommaviy axborot vositalari faoliyatini senzura qilish va uni amaliyotga joriy qilish rejasi ishlab chiqilgan.

Sovet hukumatining markaziy va Sharqiy Yevropada kommunizm g‘oyalarini yoyish bir muncha qiyin edi. Chunki kommunizmni O‘rta Osiyo hududdlariga kirib kelishi va amaliyotga joriy etilishi kabi holatlar, bu hududlarda juda qaltis vaziyatni keltirib chiqara boshlagan edi. Chunki Markaziy va Sharqiy yevropaliklar kommunizmdan qochib qutilishga harakat qilishi va bu hududdlarda qochoqlarning ko‘payishi xalqaro maydonda Sovet hukumatini obro‘sizlantirar edi. Shunday bo‘lsa-da, bu hududlarga kommunizm g‘oyasi va kommunistik tuzum majburiy kiritildi. Buni yanada mustahkamlab qo‘yish maqsadida “politbyuro” “Profilaktika” “Amaliy” ishlarni jadallik bilan olib bora boshladi. Xususan, bu kabi yig‘ilishlardan so‘ng Kommunistik partiya Markaziy va Sharqiy Yevropada SSSR bilan mafkuraviy birdamlikni ta’minlash maqsadida «amaliy» ish doirasida boshqacharoq jiddiy choralarni ham ko‘rdi.[37]

1952 yili GDR (Germaniya demokratik respublikasi) GFR (Germaniya federatik respublikasi) bilan ichki chegarasini belgilab oldi. 1961 yili Berlin devori bunyod etilgandan so‘ng, bu chegara butkul yopildi. Bu chora, birinchi navbatda GDRdagi tajribali mutaxassislarning g‘arbiy Germaniya hududiga o‘tib ketishining oldini olish, nemis tuprog‘ida qaror topgan birinchi va Yevropada yagona sotsialistik davlatning xavfsizligini himoya qilish singari maqsadlarga xizmat qilardi. GDRni tark etib, g‘arbiy Germaniyaga o‘tib ketib qolishga qonunbuzarlik sifatida qaralardi. GDRdan vaqtinchalik rasman chiqish ruxsati kamdan-kam hollarda, o‘shanda ham iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot, madaniy va siyosiy sohalarda qo‘lga kiritiladigan natijalar maqsadlarida mumkin edi. GFR hukumati Sharqiy germaniya fuqarolarni, asosan siyosiy mahbuslarni katta mablag‘ evaziga sotib olardi. Berlin devori qulagunga qadar xuddi mana shu kabi 35 ming kishini, 3,5 mlrd. nemis markasi evaziga sotib oldi. GFR Sharqiy Germaniyani rasman tan olmas, shuning uchun siyosiy mahkumlarni to‘lov evaziga xarid qilish masalasini hukumat darajasida hal etmasdi. Bu masala bilan Davlat xavfsizlik vazirligi, narigi tomondan esa ichki aloqalar federal vazirligi va cherkov ishtirok etardi.

[37] Scott Shane. Dismantling utopia. The end of the USSR. 1995, pp. 75-80.

Izoh: Ikki davlat sifatida mavjud bo‘lgan paytda GDRdan G‘arbiy Germaniyaga, umumiy hisobda 3 300 000 kishi o‘tgan (shundan 2 700 000 kishining ko‘chib o‘tishi 1949 va 1961 yillar oralig‘ida bo‘lgan)[38]

Hukumat siyosatining asosiy maqsadi Markaziy va Sharqiy Yevropani butun Sovet ittifoqi tarkibidagi respublikalar qatori teng boshqarish va o‘z siyosiy irodasini bu hududlarda ham joriy qilish edi. Shuningdek, ushbu hududlarning yaxlitligini ta’minlash maqsadida bu kabi jiddiy amaliy vazifalar kun tartibiga chiqa boshladi. Boshqa barcha tarkibiy hududlarda bo‘lgani kabi, bu hududlarni yagona g‘oya ostida boshqarish asosiy vazifa bo‘lib, kommunizm buning asosiy vositasi sifatida qaraldi. Bu kabi amaliy chora-tadbirlarning aksariyatini amalga oshirish uchun SSSR Kommunistik partiyasining 31 avgustdagi yig‘ilish rezolyutsiyasi asos qilib olindi. Bunda Markaziy va Sharqiy Yevropada kommunizm g‘oyalarini keng tarqatish hamda antikommunistik g‘oyalarga qarshi «amaliy ishlar» amalga oshirish talab qilinar edi. Natijada Sovet hukumati chegara hududlarini har tomonlama mustahkamlashga kirishdi, hattoki Amerika va Britaniya ommaviy axborot vositalarining tarqatma materiallari ham alohida bosim ostiga olingan.

Bu harakatlarni moliyalash ham juda katta mablag‘ni tashkil qilar edi, Xususan, 1945 yil oxiriga kelib radio va televideniye to‘lqinlarini to‘xtatib qo‘yadigan yoki to‘sib qo‘yadigan asbob-uskunalarga 1 milliard rubldan ortiq mablag‘ sarflandi.[39] Bu sarfu xarajatlar to‘g‘risida 1945 yil 25 dekabrda bo‘lib o‘tgan, Kompartiyaning navbatdagi yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar orqali ajratilgan mablag‘lardan ham bilish mumkin. Chunki ushbu amaliy ishlarni amalga oshirish uchun juda katta mablag‘ talab qilar edi. Bunday uskunaga 1 milliard rubldan ko‘proq mablag‘ sarflanishining asosiy sababi “AQSh va G‘arb davlatlarning ta’sirida, deb izohlanadi. Ya’ni G‘arb ommaviy axborot vositalarining Markaziy va Sharqiy Yevropada ta’siri o‘sib bormoqda”[40] deb berilgan hisobotlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu mablag‘lar evaziga esa radio va televideniya to‘lqinlarini Sovet hududlari bo‘ylab tarqalishining oldini olish, blokirovka qilish va o‘chirish uchun uskunalar va zamonaviy texnikalar bazasi shakllantirildi. Shuningdek bu qurilmalar Belarus Sovet Sotsialistik Respublikasida, Yugoslaviyada, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida, shu jumladan GDRda va sovet qo‘shinlari tomonidan bosib olingan boshqa hududlarga ham o‘rnatildi.

Bu haqda rossiyalik siyosiy tahlilchi Yuriya Sandrikinaning 2012 yilda bergan intervyusidan ham bilib olishimiz mumkin. Uning aytishicha “1989 yilgacha (o‘rtacha) 300 dan ortiq tele va radio to‘lqinlarini bloklash bo‘yicha malakali mutaxassislar

[38] Hickerson, Joseph C., et al. “Current Bibliography, Discography and Filmography.” Ethnomusicology, vol. 31, no. 1, 1987, pp. 103–23. JSTOR, http://www.jstor.org/stable/852293. Accessed 24 Nov. 2023.
[39] Scott Shane. Dismantling utopia. The end of the USSR. 1995, pp. 75-80.
[40] Советы депутатов трудились в СССР. Известия 12.1945. str: 1. “Soviets of WorkingPeople's Deputies of the USSR” Izvestiia, December 25, 1945, pages: 1

blokirovka qilish stansiyalarida ishlagan. Shuningdek ularning maoshi yiliga 50 000 rublni tashkil etgan.”[41] Umuman olganda senzura uchun kadrlar xarajatlari yiliga 15 million rubldan oshgan. Bu harajatlar uchun mablag‘ budjetdan ajratib kelingan. Masalan, 1950 yil yanvar oyida Kommunistik partiyaning qarori va Markaziy komitet mafkuraviy ishlar bo‘limining maslahati bilan alohida qonun ishlab chiqilgan va buning ijrosi uchun yetarlicha mablag‘ ajratilgan. Bunda asosiy maqsad va topshiriq “barcha sovet ommaviy axborot vositalari orqali AQSh va G‘arb ommaviy axborot vositalariga qarshi sovet tashviqotini kuchaytirish, shuningdek ulardan kelayotgan g‘arb propagandasiga qarshi amaliy ish olib borish bo‘yicha barcha Ittifoqdagi ommaviy axborot vositalariga ko‘rsatma berilgan.”[42] Bu Qaror butun Ittifoq bo‘ylab bir ovozdan ijro uchun qabul qilingan.

O‘sha yillari kommunistik g‘oyalarni targ‘ib qilmaydigan, hamda kommunist bo‘lmagan ommaviy axborot vositalari faoliyatini cheklash, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilish va blokirovkaga tushirish uchun yangi stansiyalar tashkil etildi. Markaziy va Sharqiy Yevropada «Amerika Ovozi» va G‘arbiy Yevropada (Britaniya) radio eshittirishlarning ta’siri kuchayib borayotganligi sababli, kompartiya Markaziy Kengashining 1954 yildagi qarori bilan hukumatning kuch ishlatar tuzilmalari zimmasiga bloklash stansiyalari va ularning jihozlarini doimiy modernizatsiya qilish, shuningdek doimiy ravishda kapital ta’mirlash ishlarini olib borish yuklangan edi.[43] Bu vazifani kuch ishlatar tuzilmalari zimmasiga yuklanishi bejizga bo‘lmagan. Chunki barcha ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sovet rahbariyatiga borib turishini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Bu amaliyot qaysidir ma’noda o‘zini oqladi: hukumatni qoniqtiradigan darajada faoliyat olib bordi. Partiya bu bilan cheklanmadi, xususan, jamoatchilikni Amerika va Britaniya ommaviy axborot vositalarining ta’siridan himoya qilish uchun “maxsus chora-tadbirlar”ni qo‘llab-quvvatladi.[44] Butun Ittifoq bo‘ylab har kuni kommunizmning juda ustunligini isbotlash va doimiy targ‘ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirdi. Bu esa o‘z tinglovchilari va o‘quvchilari qalbi va ongiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan sovet targ‘iboti tomonidan nashr etilayotgan va efirga uzatilayotgan ma’lumotlarning sonini oshirib borishiga sabab bo‘ldi. Mafkura sohasi mutasaddilari hatto xorijdan kirib keladigan xalqaro jurnallarni ham nazorat ostiga oldi. Rasmiy axborot nashrlaridan tashqari, boshqa barcha mavzudagi nashriy mahsulotlarni ham Sovet Ittifoqi hududida

[41] За железным занавесом, №32, 08 августа 2012 г., стр. 5. “Behind The Iron Curtain” Rossiyskaya Gazeta, No.32, August 08, 2012, page 5.
[42] За железным занавесом, №32, 08 августа 2012 г., стр. 5. “Behind The Iron Curtain” Rossiyskaya Gazeta, No.32, August 08, 2012, page 5.
[43] За железным занавесом, №32, 08 августа 2012 г., стр. 5. “Behind The Iron Curtain” Rossiyskaya Gazeta, No.32, August 08, 2012, page 5. Eslatma: G‘arbiy Germaniya AQSh ommaviy axborot vositalarining aksariyati faoliyatini qo‘llab quvvatlagan
[44] За железным занавесом, №32, 08 августа 2012 г., стр. 5. “Behind The Iron Curtain” Rossiyskaya Gazeta, No.32, August 08, 2012, page 5. Eslatma: Bi-bi-si va Amerika ommaviy axborot vositalari ham ko‘proq ishtirok eta boshladi.

tarqatilishiga ruxsat berishdan oldin, g‘alvirdan o‘tkazish – muntazam senzura amaliyoti qo‘llanildi.

Shu o‘rinda qiziq bir savol, nima uchun Kompartiya deputatlari budjetning ko‘p qismini to‘lqinlarni to‘sish, blokirovka qilish qurilmalariga sarfladi? Shuningdek nima uchun odamlarni antikommunistik materiallardan foydalanganlik yoki tarqatish uchun javobgarlikka tortish uchun katta miqdordagi kuch resurslarini harakatga keltirdi? Tadqiqot davomida buning asl ildizi qayerda ekani va qachon boshlanganini bilish uchun arxiv ma’lumotlarini yanada chuqurroq o‘rganishga to‘g‘ri keldi. Natija esa quyidagicha: buning asosiy sababi 1922 yilgi SSSR Jinoyat kodeksining 70-moddasida yaqqol aks ettirilgan bo‘lib, u oddiygina “kommunistik g‘oyaga qarshi har qanday mafkuraviy harakat taqiqlanadi”[45] degan moddada o‘z ifodasini topgan. Bu qonun bilan, ikkinchi jahon urushidan keyin SSSRning nazorati ostiga o‘tgan hududlarning yaxlitligini ta’minlash hamda ichki va tashqi “axborot xurujlar”ning oldini olish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar davom ettirildi. Va senzuraga tayyorgarlik yuqori darajadaligi bilan ajralib turdi. SSSRning bu xatti-harakatlari G‘arbning e’tiboridan chetda qolmadi: u yerda bu harakatlar keskin qoralandi va keskin tanqid ostiga olindi. Bu esa butun dunyoga mashhur iboraning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ya’ni Uinston Cherchilning:

“Boltiq bo‘yi Shtettindan Adriatika dengizi sohilidagi Triyestagacha bo‘lgan mintaqaga temir parda tushdi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining qadim poytaxtlari pardaning ortida qoldi”, degan iborasi edi va bu davr – xalqaro maydonda Sovet Ittifoqini qoralashga xizmat qilgan o‘sha mashhur ibora e’lon qilingan davr edi.[46]

Shu o‘rinda “temir parda” atamasining tug‘ilishi, u nimani anglatib, bu bilan nimaga urg‘u berilgani haqidagi fikrlar ustida bir batafsil to‘xtalamiz. Sababi, biz tahlil etayotgan mavzuda mana shu tarixiy sanalar va voqelikning o‘rni alohida. Mavzuni esa sal nariroqdan, ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq voqealar girdobidan boshlaymiz.

Nemis fashist bosqinchilariga qarshi ikkinchi front ochish qarori SSSR, AQSh va Angliya antegitlea koalitsiyasining vakillarining uchrashuvida qabul qilingandi. Bu fikrni Buyuk Britaniya bosh ministri Uinston Cherchell ilgari surgandi. O‘zaro kelishuvga ko‘ra uni 1942 yilda boshlash mo‘ljallangandi. Lekin, Ittifoqchilar bu muhim tadbirni, imkon qadar ortga surib keldilar. Bundan ko‘zlangan maqsad esa, Gitler Germaniyasi qarshisida SSSRni uzoqroq ushlab, uni holdan toydirish bo‘lgan. Chunki, kommunistik g‘oyalarga ham, sovet tuzimiga ham tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lgan bu ikki kapitalistik imperiya, vaqti kelib SSSR bilan manfaatlari to‘qnashishini bilgan. Xullas, ikkinchi front belgilangan muddatidan ikki yil o‘tib, 1944 yilning may

[45] Создание Всероссийского Центрального Исполнительного Комитета О Введения В Действие вие Угольного Кодекса РСФСР.1922. Статя 70. “Decision Of The All-Russian CentralExecutive Committee On The Introduction Of The Criminal Code R.S.F.S.R.,” 1922. June 1 https://pravo.by/upload/pdf/krim-pravo/UK_RSFSR_1922_goda

[46] Speech of Winston Churchill on March 5, 1946 at Westminster College, in Fulton, Missouri. (https://winstonchurchill.org 1945 year March 5

oyida ochiladi.[47] Bu orada esa SSSR xalqi jon olib-jon berib, fashist bilan yakkama-yakka kurashdi. Juda ko‘p qurbonlar berdi...

Bu paytga kelib sovet armiyasi urushning taqdirini deyarli hal qilib bo‘lgandi. Buni bilgan Amerika va Angliya ortiq bir chetda turib, voqealarni kuzatuvchisi bo‘lib qololmasliklarini anglashdi. Chunki, g‘alaba o‘ljasiga sherik bo‘lish uchun maydonga kirmasalar bo‘lmasdi. O‘sha davrning ommaviy axborot vositalari, Neman daryosi bo‘yida jang boshlagani Ittifoqchi qo‘shinlar bilan Sovet askarlarining Elba daryosi sohilida bir-birlari bilan ko‘rishishlari aks etgan fotosuratlarni paydar-pay chop etib turgan.

Biroq, urushdan keyin oraga sovuq epkin oraladi. Amerika Prezidenti Ruzveltning vafotidan so‘ng xalqaro aloqalarda chigal, noaniq bir tus oldi. Garchi anti gitler koalitsiyasi shaklan o‘z faoliyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, SSSRning g‘arb Ittifoqchilari bilan o‘rtalaridagi kelishmoqchilik chuqurlasha bordi. Stalin hamisha qo‘lga kiritilgan g‘alabada sovetlarning roli ustun ekanini ta’kidlab, dunyoning siyosiy xaritasiga o‘zgartirish kiritish va uni tartibga keltirishda asosan vakolatli ekanini ta’kidlashi hamkorlarga xush yoqmasdi. Urushdan keyingi Yevropa va Osiyoning manzarasini yaratishda, Sharqiy Yevropa va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarining taqdirini hal etishda, G‘arbiy Yevropaga kommunistik ta’sir ko‘rsatish masalalarida birinchi safda turishga intilishi ham ularning g‘ashiga tega boshladi.

Aslida, munosabatlarning zil ketishiga, mana shunga o‘xshash sabablar ro‘kach qilib ko‘rsatiladi-yu, ammo ikki o‘rtadagi asosiy ziddiyatning asl sababi bu emas aslida. G‘oyaviy qarama-qarshilik, bu kelishmovchiliklarning asl o‘zagini tashkil etadi. Kapitalistik G‘arb hech qachon, kommunizm g‘oyasi bilan chiqisha olmagan. Karl Marksning: “O‘zgalar mehnatining mahsulini o‘zlashtirish orqali topilgan foyda – kapital”., – degan talqini, quldorlik davrida qulning o‘zligini tanishiga sabab bo‘lgan omil bilan barobar aslida. Shuning barobarida, sotsializmcha “Har kimning mehnatiga qarab, ehtiyojiga yarasha”, – degan mezon ham kapitalistlar uchun yot tushuncha.

SSSR Turkiyaga hududiy e’tiroz bildirib, Erondan qo‘shinlarini olib chiqib ketishni talab qildi. Cherchill o‘sha mashhur nutqini irod qilgan chog‘, ikki o‘rtadagi munosabatlar rosa taranglashgandi. Amerika Prezidenti Trumen hattoki yadro quroli bilan po‘pisa qilishgacha bordi. General Eyzenxauerning ish stolida SSSR bilan yaqin kelajakda bo‘ladigan birinchi urushning «Totaliti» nomli harbiy rejasi tayyorlandi. Bu loyihani tayyorlashga, hali 1945 yildayoq Cherchillning tashabbusi bilan kirishilgandi.

U. Cherchillning 1946 yil 5 mart kuni AQShning Missuri shtatidagi Fulton Vestminster kollejida qilgan mashhur “Fulton nutqi” (ingl. Sinews of Peace) «sovuq urush»ning boshlanish fazasi bo‘ldi.

[47] Izoh: «Ikkinchi front» — 1944 yilning 6 iyun kuni G‘arb ittifoqchilarining birlashgan qo‘shinlarini Normandiyaga tushirish bilan boshlandi.

Cherchil, SSSR Jinoyat kodeksining (keyingi o‘rinlarda: JK) 70-moddasiga doir qonun ijrosini Sharqiy Yevropada joriy qilinishi haqida fikr bildirgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. 1946 yildan 1989 yilgacha “Temir parda” – Amerika ta’siri ostida bo‘lgan G‘arbiy Yevropani Sharqiy Yevropada mavjud kommunistik blokdan ajratib turgan chegara vazifasini o‘tab keldi. Bu ibora shuni anglatar ediki, qit’aning g‘arbiy qismida qolgan aholi hadeganda Sharqiy Yevropaga kelib-ketolmasdi. “Temir parda”ning bu yog‘ida qolgan fuqarolar uchun ham xuddi shunday qiyinchiliklarni yuzaga keltirardi. Hattoki g‘arb davlatlari tomonidan doimiy targ‘ib qilinadigan antikommunistik g‘oyalarning emin-erkin harakati murakkablashdi. Xususan, Cherchilning nutqidan keyin ta’qiqlar va cheklovlar yana-da kuchaytirildi. Bu esa “Sovet Ittifoqi o‘z himoya qobig‘iga o‘ralib qoldi” degannamo bayonotlar berilishiga sabab bo‘ldi. Buning oqibatida Sovetlar xalqaro maydonda tashqi siyosat bobida juda katta siyosiy muammolarga duch kela boshlashdi. Hatto, ularni xalqaro shartnomalar, inson huquqlarini buzganlikda va nodemokratik harakatlar qilishda ayblashdi.

Bundan tashqari, NATO tuzildi va unga a’zo bo‘lgan davlatlar SSSRdan himoyalanish bahonasida harbiy salohiyatlarini oshirishga kirishdilar. Bunga javoban SSSR ommaviy axborot vositalari va boshqa mafkuraviy axborot tuzilmalari ustidan nazoratni yanada kuchaytirdi. Shuningdek KPSS Markaziy Kommitetining fan va targ‘ibot hamda tashviqot bo‘limi mudiri Yu.A. Jdanov “Agar Amerika va Britaniya gazetalariga e’tiborsiz qarasak, hademay mamlakatda norozilik namoyishlari avj oladi”, deb dastlabki ogohlantirish mavzusidagi maqolasini matbuotda e’lon qildi va barcha nashrlar, tele va radio eshittirish qo‘mitalariga sovetlar siyosati targ‘ibotini kuchaytirishga buyruq berdi. Bundan tashqari, Stalinning tashabbusi bilan boshlangan Angliya va Amerikaga qarshi materiallar asosiy mavzu darajasiga ko‘tarildi. SSSRdagi iqtisodiy-ijtimoiy hamda madaniy sohada erishilgan yutuqlar mavzusidagi teledasturlarni tarqatish va efirga uzatish asosiy maqsad qilib qo‘yildi.[48]

Qolaversa Sovet targ‘ibotchilari oldida juda katta mas’uliyat ko‘ndalang bo‘ldi, ya’ni “temir parda” haqida jamoatchilik ongida ijobiy fikr uyg‘otish kerak edi. Ya’ni, salbiy ma’noda aytilgan bu gapni, odamlar ongiga ijobiy mazmunda singdirish lozim bo‘lgan. Bu borada qisman muvaffaqiyatga erishilgan ham. Shu bois sovet davlati ideologlari “temir parda” tushunchasini jamoatchilikka quyidagicha talqin qilishdi: “Biz temir parda ortida yashaymiz”, demak, “bizni Kommunistik partiya himoya qiladi” degan g‘oyalarni tarqatishdi.[49] Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad “Temir parda”ni Sovet Ittifoqining aholisi ongiga qamoq emas, balki qasr tarzida qabul qildirish edi.

[48] А.Зданов «О международной обстановке». Правда стр. 2-3. 1947.10.22 (“On the international situation’ Pravda p,2-3. 1947.10.22)

[49] Советский народ в борьбе за соксранение и упрочение мира. Правда стр. 1, 29 августа 1970 г. (The Soviet People In The Struggle For The Preservation And Strengthening Of Peace).Pravda Page 1. Wednesday "August 29, 1970

Basharti, Sovet hukumatining axborot tarqatish borasida juda kata ustunligi bor edi. Ya’ni, barcha ma’lumotlar kompartiya qo‘mitalari qoshida tashkil etilgan senzura ko‘rigidan o‘tkazilib, keyin butun ittifoq bo‘ylab tarqatilardi. Bu ishlar uchun juda katta mablag‘ ajratilgandi. Bundan tashqari yaqindagina ikkinchi jahon urushini boshidan o‘tkazgan ittifoq aholisi, ayniqsa front ortida xizmat qilgan va armiyani kerakli resurslar bilan ta’minlab turgan butun boshli xalq, har bir xabarni diqqat bilan o‘qir va shak-shubhasiz ishonar edi. Chunki, ular urush davrida Sovet hukumatining qarorlari, yangiliklari, erishilgan yutuqlar, asosiysi urush o‘choqlaridan kelgan xabarlarga ixlos bilan yondashar edi. Shu sababli, bu holat hukumatga o‘z pozitsiyasini yetkazishda juda qo‘l kelardi. Hattoki sovuq urush davrida ham bu ustunlikdan muntazam foydalanib keldi

Kommunizm mafkura targ‘ibotning bu kabi usulidan omilkorlik bilan foydalandi. Matbuot uning doimiy diqqat-e’tiborida bo‘ldi. Gazeta va jurnallarni iste’molchining qo‘liga benuqson yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Radio xizmati ham bir qator afzalliklar bilan shakllantirildi. Boshqa bir muqobil manbaa bo‘lmagan sharoitda kishilar nimani o‘qisa yoki nimani eshitsa o‘shanga ishonadi. Axborot olish tizimi yagona Markazdan boshqariladigan joyda esa, uning aytgani aytgan-degani degan. Shuning uchun sovet jamiyatida hukumat tomonidan keladigan har qanday xabarni rost deb qabul qilish shakllana boshlagan edi. Natijada “Temir parda” muammosidan ham hukumat osonlik bilan qutila oldi. Holat shu darajaga borib yetdiki hatto odamlar bundan faxrlanadigan ham bo‘lib qolishdi. O‘z pozitsiyasini aniq belgilab olgan Sovet hukumati mafkuraviy birlikni saqlash masalasini mamlakat siyosiy-ijtimoiy sahifasining asosiy mavzusi sifatida qarar edi. Natijada, sovet ommaviy axborot vositalari “temir parda”ni har xil tahlillar bilan muhokama qilishga tushdilar. Uni xalqning ongiga “ya’juj-ma’juj”lardan asranish uchun barpo etilgan Xitoy devoriga o‘xshash bir muhofaza to‘sini sifatida singdirildi. Gap bu pardani ochish, aloqalarni mustahkamlash, keskinlashgan munosabatlarni yumshatish haqida bormasdi, aksincha “Bu pardani yana-da, mustahkamlash”, “chidamliligini oshirish” “Parda ortida tinch va faravon panohimiz va biz undan faxrlanamiz” mavzusidagi chiqishlar qanoatlantirilar, masalaga bundan ayru yondoshuv qoralanardi. Quruq gap bo‘lib qolmasligi uchun bu mavzularni atroflicha dalillar bilan, xalqchil, ommabop qilib OAV vositasida yoritib borilardi.[50]

Yuqorida eslatganimizdek, urush yillari front ortida yashagan sovet aholisining aksariyati kommunistik partiyaning xabarlarini hech qanday qarshiliksiz eshitgan va ishongan. Chunki otasi, bolasi yoki boshqa bir yaqini janggohlarda qon kechib yurgan kishilarning qiziqishlariga muvofiq axborotlar tarqatilardi. Bu holat urushdan keyin ham saqlanib qoldi va partiyaning axborot tarqatishdagi hukmronligi, sovet

[50] Пропагандистское и агитационно-боевое идеологические вооруженные партии. «Правда» стр. 1. 1953.02.11. (Propaganda and agitation-battle ideological weapon of the party) Pravda, p 1. 1953.02.11

siyosatining samaradorligini yanada oshirib ko‘rsatdi.[51] Demak, sovet targ‘iboti “temir parda”ni qamoqxona tushunchasidan ezgulik va baxt, G‘arb tajovuziga qarshi xavfsizlik timsoliga aylantirdi. Bu borada asosiy vosita sifatida eng qizg‘in faoliyatni, kommunistik partiyaning asosiy gazetasi – “Pravda” olib bordi. Mazkur gazeta butun ittifoq bo‘ylab har kuni nashr etilar va chekka hududlargacha muntazam yetkazib berilardi. Barcha bu gazetani arzimagan pulga sotib olar va undan foydalanadi. Boshqa gazetalarning qamrovi va tiraji butun ittifoqni qamrab ololmagan. Asosiy ma’lumotlar va so‘nggi yangiliklar aynan shu gazetada e’lon qilinar edi.

Ammo, ko‘p millatli, hajman yirik bu davlatda, siyosiy targ‘ibotni tarqatish oson emasdi. Muayyan bir tushunchalarning ittifoq bo‘ylab bir xilda taqsimlanishini ta’minlash juda mushkul edi. Chunki, bilamizki SSSR rasman 16 tilli davlat sifatida barchaga ma’lum edi. Lekin, eng dolzarb mavzudagi ma’lumotlarni tez va aniq tarqatish uchun, uning barcha mintaqalarida rus tilini bilishga bo‘lgan ehtiyojni tug‘dirar va kuchaytirardi. Shuning uchun ham rus tilida faoliyat olib boradigan xodimlar doimiy rag‘batlantiriligan. Juda ko‘pchilik ziyoli qatlam va talabalar orasida rus tilini o‘rganish sezilarli ko‘payib bordi. Bunda ham asosiy maqsad axborotlarni tarqatish auditoriyasini kengaytirishga sabab bo‘lar edi. Ikkinchi masala esa hukumat kuch ishlatar tuzilmalarining nazoratini osonlashtirar edi. Chunki hududlarda nashr etilayotgan va tarqatilayotgan ma’lumotlarni tushunish va undan unimli foydalanish osonlashar edi. Chunki, ba’zi hollarda senzura nazorati shu darajada chuqur monitoring olib borar ediki, hatto chop etilganiga bir necha yil bo‘lgan maqola mualliflari ham jazolanmay qolmagan.

Ayni shu o‘rinda, biz hukumatning kuch ishlatar tuzilmalari tomonidan o‘tkazilgan senzura operatssiyalarining o‘sish darajasiga ko‘z yugurtiramiz. 1950 yillardan boshlab mafkuraviy muxolifatni jazoga tortish kompaniyasi kuchaydi. Qatag‘onlar milliy chekka o‘lkalarda ayniqsa avj oldi. Butun Ittifoqda kommunistik mafkuraviy mexanizmlar hukumatning kuch ishlatar tuzilmalari yordamida mustahkamlandi. Chunki ikkinchi jahon urushi paytida e’tibordan chetda qolgan Gulag sistemasi (Glávnoye upravléniye ispravи́telno-trudovы́x lageréy (**GULAG**) – Lagerlar bosh boshqarmasi, 1933-1953) ommaviy ravishda qayta jonlantirildi. Buning asosiy sababi, aynan kommunistik g‘oyalarini yanada keng yoyishga qaratilgan ishlardan biri edi. Oqibatda, ming-minglab kishilar, sovet qonunchiligiga xilof ish qilganlikdan ayblanib, “Gulag”larga tiqilgan. Ayniqsa, SSSR JK 70-moddasi bo‘yicha sudlangan mahkumlar ko‘pchilikni tashkil etgan.

Buning kabi jazoni o‘tash muassasalarining ko‘payishiga asosiy sabablardan biri kommunizm g‘oyalarini Markaziy va Sharqiy Yevropa hududlariga majburan tarqatish oqibatida yuzaga kela boshladi. Chunki, JK ning 70-moddasi bo‘yicha jazo choralarining keskinlashuvi bu lagerlarda mahkumlar sonini ham tezda oshib ketishiga

[51] Манифест народам мира 1950. (Manifesto to the peoples of the world) Pravda p-3. November 23, 1950

olib keldi. G‘arb tarafdan doimiy tarqatilayotgan targ‘ibot materiallari qattiq senzura ostiga olindi. Har bir uy va fuqarolar diqqat bilan tekshirildi, adabiyotlar, kitoblar senzura ostiga olindi. Ko‘rilgan choralar juda qattiq bo‘lgani bois, ijtimoiy muhitda murakkab holatlar keltirib chiqara boshladi. Eng qizig‘i bu tendensiya Sovet ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallarda ijobiy muhokama qilindi va yoritildi.[52] “Gulag” tizimi Markaziy va Sharqiy Yevropada kuchayib bora boshladi. Bu esa xalqaro maydonda juda qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Bu haqda g‘arb OAVlari baralla bong urishga kirishdi. Bu kabi xabarlar oqimi, ayniqsa Sharqiy Yevropa, ya’ni GDRda juda faol harakatlar boshlanishiga omil bo‘ldi. Odamlar g‘arbiy Germaniyaga ko‘chib o‘tishga va o‘z uylarini tashlab ketishga harakat qila boshladilar. Qochoqlar soni keskin ortib bordi. Xalqaro maydonda e’tirozlarga sabab bo‘layotgan bu kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida, Sovet hukumati chegaralarni mustahkamlab, o‘z ta’siri ostidagi hududga kirib-chiqish masalasiga qattiq e’tibor qaratdi. Bu holat Berlin devorining qurilishigacha davom etdi. Shunday bo‘lishiga qaramay g‘arbga intilish GDRda saqlanib qoldi. Buni qochoq fuqarolarning muntazam ravishda Berlin devoridan oshib o‘tishga bo‘lgan urinishlari tasdiqlaydi.

Dunyo davlatlari tomonidan olib borilgan geosiyosat XX asrning boshlariga kelib, muayyan bir to‘xtamga keldi. Gegemon davlatlar, xususan Rossiya, AQSh, Buyuk Britiniya, Fransiya, Germaniya (va hokazolar) tomonidan, yer yuzini bir sira tamoman egallab olindi. Bularning barchasi(anneksiya) bosqinchilik yurishlari tufayli yuz berdi. Bu mavzugi uzoq to‘xtalmaymiz, faqat bir-ikki fakt ustida to‘xtalib o‘tamiz. 1846-48 tyilgi Amerika va Meksika o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urush tufayli Meksikaning juda katta hududi(Hozirgi Texas, Yuta, Nyu Meksika va boshqa bir qator shtatlari) AQShning qo‘l ostiga o‘tdi. 1905 yilgi Rus-Yapon urushi tufayli Kuril orollari Rossiya mintaqasining tarkibiy bir qismiga aylandi. Buning kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Osiyo qit’asi va Lotin Amerikasida ham juda ko‘m mamlakatlar gegemon davlatlar ta’siri ostiga o‘tdi. Shu bilan dunyoda jangu jadal, o‘zaro nizo va kelishmovchiliklar barham bopdi, deya olmaymiz. XX asrning boshlaridan dunyoni qayta taqsimlash harakatlari avj oldi. Birinchi va ikkinchi jahon urushi shuning yaqqol tasdig‘i. Xususan, ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropanig siyosiyo qiyofasi tubdan o‘zgardi: u G‘arbiy va Sharqiy Yevropaga bo‘lindi. Amerik va SSSR va ularga xayrixoh bo‘lgan davlatlar o‘rtasida sovuq urush epkinlari oraladi. Biz yuqorida ana shu vaziyatning vujudga kelishi, o‘z ta’sir doirasini kengaytirish va mustahkamlash maqsadida amalga oshirilagan kurash taktikasi va bu jarayonda matbuotning tutgan o‘rni kabi masalalarda to‘xtaldik.

Adabiyotlar:

1. Harrison, Hope M. “The Berlin Wall after Fifty Years: Introduction.” German

[52] Новое Русское Слово, No.14266, «Правда», 17 мая 1951 г., стр.:3

Politics & Society, vol. 29, no. 2 (99), 2011, pp. 1–7. JSTOR, http://www.jstor.org/stable/23744556. Accessed 24 Nov. 2023.

2. Fuchs-Schündeln, Nicola, and Matthias Schündeln. “The Long-Term Effects of Communism in Eastern Europe.” The Journal of Economic Perspectives, vol. 34, no. 2, 2020, pp. 172–91. JSTOR, https://www.jstor.org/stable/26913189. Accessed 24 Nov. 2023.

3. Советы депутатов трудились в СССР. Известия 12.1945. Страница 1. (8815) “Soviets of Working People's Deputies of the USSR” Izvestiia, No.205, August 31, 1945, page(s):4.

4. Among the longest-running Russian newspapers, Izvestiia was founded in March 1917and during the Soviet period was the official organ of the Presidium of the Supreme Soviet of the USSR. Remarkable for its serious and balanced treatment of subject matter, Izvestiia has traditionally been a popular news source within intellectual and academic circles.

5. Scott Shane. Dismantling utopia. How Information The ended the Soviet Union. Chicago 1995

6. Советы депутатов трудились в СССР. Известия 12.1945. Страница 1. “Soviets of Working People's Deputies of the USSR” Izvestiia, December 25, 1945, pages: 1

7. За железным занавесом, №32, 08 августа 2012 г., стр. 5. “Behind The Iron Curtain” Rossiyskaya Gazeta, No.32, August 08, 2012, page 5.

8. Создание Всероссийского Центрального Исполнительного Комитета О Введения В Действие вие Угольного Кодекса РСФСР.1922. Статя 70. “Decision Of The All-Russian Central Executive Committee On The Introduction Of The Criminal Code R.S.F.S.R.,” 1922. June 1 https://pravo.by/upload/pdf/krim-pravo/UK_RSFSR_1922_goda

9. Speech of Winston Churchill on March 5, 1946 at Westminster College, in Fulton, Missouri.(https://winstonchurchill.org 1945 year March 5

10. А.Зданов «О международной обстановке». Правда стр. 2-3. 1947.10.22 (“On the international situation’ Pravda p,2-3. 1947.10.22)

11. Советский народ в борьбе за сокранение и упрочение мира. ул. Правда-1, 29 августа 1970 г. (The Soviet People In The Struggle For The Preservation And Strengthening Of Peace).Pravda Page 1. Wednesday "August 29, 1970

12. Пропагандистское и агитационно-боевое идеологические вооруженные партии. «Правда» стр. 1. 1953.02.11. (Propaganda and agitation-battle ideological weapon of the party) Pravda, p 1. 1953.02.11

13. Манифест народам мира 1950. (Manifesto to the peoples of the world) Pravda p-3. November 23, 1950

14. Новое Русское Слово, No.14266, «Правда», 17 мая 1951 г., стр.:3

15. Current Digest of the Post- Soviet Press, Featured News Stories. Minneapolis, USA.1985-1991

16. In 1948, the United States Information and Educational Exchange Act (Smith-Mundt Act; Public Law 80–402). https://2009-017.state.gov/documents/organization/177574.pdf.

17. Manfred O. Media, Migrantsand Marginalization: The Situationin the Federal Republic of Germany. The International Migration Review, Spring, 1984, Vol. 18, No.1 (Spring,1984), Publishedby: Sage Publications, Inc. on behalf of the Center for Migration Studies of New York, Inc.

18. William C. Fletcher. Religious Dissentin the USSR in the 1960s. Cambridge University Press 1971.

19. Peter Kenez. A History of the Soviet Union from the Beginning to the End. University of California, Santa Cruz. Cambridge University Press. 1999, 2006.

20. John N. Hazard, The Soviet System of Government, ended. Chicago, 1960

21. John M. Kramer. Political Corruption in the U.S.S.R. The Western Political Quarterly, Jun. 1977, Published by: University of Utahon behalf of the Western Political Science Association

22. AdaW.Finifter and Ellen Mickiewicz. Redefining the Political System of the USSR: Mass Support for Political Change. The American Political Science Review, Dec. 1992, Vol. Dec. 1992. Published by: American Political Science Association.

23. Religious Dissentin the USSR in the 1960s. William C. Fletcher. Cambridge University Press 1971.

24. The History Of The Soviet Bloc 1945–1991 A CHRONOLOGY. Part 5 1988–1991 Edited by Csaba BÉKÉS Research Chair, Center of Social Sciences, Institutefor Political Science, Hungarian Academy of Sciences; Budapest 2017.

25. Steven Pfaff. Collective Identity and Informal Groups in Revolutionary Mobilization: East Germany in 1989. Published by: Oxford University Press 1996.

26. Evgeny DODOLEV. Author of the book “The Musketeers of Perestroika. 30 years later" Moscow 2017

27. Serge Schmemann. A New York Times Book. When the Wall Came Down. The Berlin Boston Massachusetts 2006.

28. .William F. Buckley Jr. Foreword by Henry A.Kissenger. The Fall of The Berlin Wall. 20th Anniversary Edition. Publishedin USA 2004

29. Marshall I.Goldman. USSR IN CRISIS. The failure of an EconomicSystem.byW.W.Norton&Company,Inc1983.

30. John Miller. Mikhail Gorbachev and the End of Soviet Power.1993

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN BOSHQA JINOIY-HUQUQIY TA'SIR CHORALARNI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Shamsidinov Zayniddin Ziyovidinovich
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi katta o'qituvchisi, y.f.f.d.
Qo'shiyev Mirjalol Saidvali o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
mirjalolqoshiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o'ziga xos xususiyatlari, ularni jazodan ozod etish, jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash va davlat uchun foydali shaxs qilib yetishtirish uchun jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llash, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarlikka tortish yoshi, majburlov choralarini qo'llash uchun asoslar, xorijiy davlatlarda voyaga yetmagan huquqbuzar uchun qo'llaniladigan ta'sir choralarni tahlil etish va shu asnoda milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida xulosalar qilingan.

Abstract: In this article, the specific features of juvenile delinquency, the application of criminal-legal measures to release them from punishment, re-educate them without separating them from society and make them useful persons for the state, the age of criminal responsibility of minors, coercion the grounds for the application of measures, the analysis of the impact measures used for minor offenders in foreign countries, and the conclusions regarding the improvement of the national legislation.

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности преступности несовершеннолетних, применение уголовно-правовых мер по освобождению их от наказания, их перевоспитанию, не отделяя от общества и превращению их в полезных лиц для государства, возраст наступления уголовной ответственности. несовершеннолетних, принуждение, основания применения мер, анализ воздействия мер, применяемых к несовершеннолетним правонарушителям в зарубежных странах, и выводы по совершенствованию национального законодательства.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, majburlov ta'sir choralar, jinoyat, javobgarlik, uzr so'rash, huquqbuzarlik.

Kirish

Mamlakatning rivojlanishi va taraqiy etishi ko'p jihatdan yoshlarning qo'lida. Jahonning rivojlangan davlatlari yoshlar siyosatiga katta e'tibor qaratishmoqda, shu jumladan, O'zbekiston ham jamiyatning barcha sohalarida ayniqsa sud-huquq tizimida

bir nechta islohotlar amalga oshirmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy vazifasi demokratik huquqiy davlat barpo etish va voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta’minlash va yod g‘oyalardan himoya qilishga qaratilgan. Bunda voyaga yetmaganlar uchun qo‘llaniladigan jazolash tizimini liberallashtirilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidaga maruzasida ”Biz voyaga yetmaganlar ,ayollar va keksalarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolash tizimini qayta ko‘rib chiqmog‘imiz zarur. Aminmanki, bu sohada liberallashtirish jarayoni hali davom etadi. Tan olish kerak, yoshlar orasidagi jinoyatchilikning sababi – ko‘pincha biz kattalar mas’ul bo‘lgan ularning tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning natijasidir” [1]. deb aytib o‘tgan edilar. Mana shu fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, yoshlar orasidagi jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri bu uning ota–onasi tomonidan yo‘l qo‘yilgan e’tiborsizlik natijasida ular orasida jinoyatchilik avj olmoqda. Mamlakatimizning jinoyat qonunchiligi insonparvarlik, odillik prinsplariga asoslangan holda, jinoyat sodir etgan ayollar va yoshlarga nisbatan jazo tayinlashda bir qator yengilliklar nazarda tutib o‘tilgan. Davlat rivojlanar ekan, rivojlanish bilan hamohang holda uning qonunlarini ham rivojlantirish, liberallashtirish lozim hisoblanadi.

Bizning munosabatimiz, e’tiborimiz voyaga yetmaganlarga katta ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Voyaga yetmaganlar bilan kam bandlik, ularning o‘qishlariga e’tibor bermaslik oqibatida voyaga etmaganlar jinoyati ko‘payib bormoqda. Bundan tashqari, voyaga etmaganlar jinoyati yangi hodisa bo‘lmasdan va ko‘p yillar davomida huquqni muhofaza qilish organlari va umuman jamiyat uchun muammo bo‘lib kelmoqda. Jamiyatdagi sodir bo‘layotgan “antiijtimoiy” xatti-harakatlarga, zo‘ravonlik, tajavuz va shunga o‘xshash turli g‘ayriqonuniy hodisalar muhitida o‘sayotgan va ularning guvohi bo‘lgan o‘smirlar jinoyat yo‘liga kirib qolishlari oson bo‘ladi. Yosh huquqbuzar institutlari so‘nggi 20 yil ichida o‘z darvozalaridan kirib kelayotgan voyaga yetmaganlar ko‘tarilishi va pasayishini ko‘rishdi. voyaga yetmagan huquqbuzatlar uchun bu kattalar qamoqxonasi tomon dastlabki qadamdir. M.A. Lyubvinaning fikricha, — ijtimoiy adolatni tiklash, jinoyat sodir etgan shaxsni tuzatish va yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat bo’lgan jazoning maqsadlaridan farqli o’laroq tarbiyaviy ta‘sir ko’rsatishning majburlov choralarini qo’llash voyaga yetmaganni tuzatish maqsadini ko’zlaydi[2]. Oxirgi yillarda yoshlar miyasi turli xil antiijtimoiy faoliyat bilan qamrab olinmoqda. Odatda voyaga yetmagan shaxs hayotiy tajribaga ega bo’lmaganligi onggi va irodasi to’liq shakllanmaganligi sababli boshqalar ta’siriga beriluvchan bo’ladi[3].

Kimlar voyaga yetmagan hisoblanadi va ular necha yoshdan boshlab javobgarlikka tortiladi? Shu kabi savollarga Jinoyat kodeksi (keying o‘rinlarda JK deb yuritiladi) va Bola huquqlari kafolati to‘g‘risidagi qonundan javob topamiz.

O‘zbeksiton Respublikasining Jinoyat kodeksi 17-moddasida jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar[4]. Lekin ba’zi og‘irlashtiruvhi holatlar aniqlanadigan bo‘lsa javobgarlikka tortish yoshi 14(o‘n to‘rt) yosh etib belgilab qo‘yilgan. Bu jinoyatlarga odam o‘ldirish, zo‘rlash, bosqinchilik, tovlamachilik va qastdan badanga o‘g‘ir shikast yetkazish kabi holatlar kiradi. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarlikka tortish JK ning oltinchi bo‘limiga muvofiq javobgarlikka tortiladi. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar) bola hisoblanishi belgilangan[5]. Ushbu qonundan ham ko‘rinib turibdiki 18 yoshga tolmagan shaxsni voyaga yetgan deya olmaymiz ekan .shu sababli ham ularga jazo tayinlashda ularni qayta tarbiyalash va ular bu xatoni qayta qilmasliklari uchun ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun ularga nisbatan turli xil jinoiy-huquqiy ta’sir choralarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jinoiy huquqiy ta’sir choralari JK umumiy qismining XVI bobida alohida sanab o‘tilgan. Bular quyidagilar hisoblanadi;

a) jabrlanuvchidan belgilangan tartibda uzr so‘rash;

b) 16 yoshga to‘lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o‘z mablag‘i yoki mehnati hisobidan to‘lash;

c) voyaga yetmaganlarni maxsus o‘quv tarbiya kaloniyasiga joylashtirish[6]. Ushbu ta’sir choralar qo‘llangan holda ularni axloqan tuzalishiga zamin yaratadi. Ta’sir chorasining asosiy maqsadi ham qayta tarbiyalash hisoblanadi.

Majburlov choralarini qo‘llash natijasida voyaga yetmaganlarga nisbatan hukm chiqariladi va u jinoiy jazodan ozod etiladi. JK ning 87- moddasining birinchi qismida ta’kidlanganimizdek, voyaga yetmagan shaxs birinchi marta ijtimoiy xafi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan bo‘lsa, aybning xususiyatini xisobga olib uni jazo chorasi qo‘llamasdan ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ulanuvchi komissiya ko‘rishga topshirishi mumkin. JK ning 87-moddaning ikkinchi qismida esa, voyaga yetmagam shaxs tomonidan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etishi va ushbu moddaning birinchi qismidagi asoslar mavjud bo‘lsa voyaga yetmagan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi va majburlov choralari ko‘rilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Majburlov choralari qo‘llashning ham oz asoslari mavjud. Bular:

a) besh yildan ko‘p bo‘lmagan mudatga ozodlikdan maxrum etish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo‘lsa;

b) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni takroran sodir etgan bo‘lsa;

d) qilmishning xususiyati, aybdorning shaxsi, ishning boshqa holatlarini inobatga olib jazo qo‘llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa[7]. Mazkur asoslarga tayanib majburlov ta’sir choralari qo‘llaniladi.

Voyaga yetmaganlar bilan shug‘illanadigan idoralararo komissiyaning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi PQ-2833-sonli qarori qabul qilindi[8]. Ushbu qaror bilan Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralaro komissiyaning nizomi tasdiqlandi. Mazkur nizomga muvofiq, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mintaqaviy komissiyalari, tuman (shahar) idoralararo komissiyalari tashkil etildi.

Shu o‘rinda jinoyat qonunchiligini liberallashtirishda turli xorijiy davlatlar qonunchiliklarini o‘rganishimiz, ularning jazolash va majburiy ta’sir choralarini qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish bilan bog‘liq yutuqlarini jinoyat qonunchiligimizga tadbiq etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xususan, Rossiya va Germaniyada voyaga yetmagan huquqbuzarga tarbiyaviy ta’sir etish va ularning xulq-atvorini nazorat ostiga olish uchun ota-onalarga yoki ularning o‘rnini bosuvchi boshqa shaxslarga yoxud ixtisoslashtirilgan muayyan davlat organiga javobgarlikni yuklash, Angliyada voyaga yetmaganni belgilangan ta’lim dasturlarida qatnashish, Shvetsiyada voyaga yetmagan shaxsni harakatlarini kuzatish uchun elektron bilak uzuk taqish majburiyati yuklatilgan, Germaniyada ularni yashash joyidan ajratmagan holda o‘quv mashg‘ulotlarda qatnashishga, ma’lum shaxslar muloqot qilishni va ma’lum joylarga borishni taqiqlash, Fransiyada ta’lim yoki kasb-hunar o‘rgatish uchun davlat yoki xususiy muassasaga joylashtirish va AQSh, Italiya, Braziliya, Norvegiyada jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni, maxbuslarni kitobxonlik bilan tanishtirish kabi turlari bolalarni qilmishlarini anglab yetish va qayta bu huquqbuzarliklarni sodir etishni oldini olishda eng yaxshi ta’sir choralar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Jinoyat sodir etgan shaxslarga, xususan, voyaga yetmagan jinoyatchilarga represiv jinoiy choralarni qo‘llash to‘g‘ri tanlov hisoblanmaydi, yoshlarning psixologik va fizologik tomonlarini, kattalar bosimi va ta’siri ostida jinoyatga qo‘l urish hollari amaliyotda ko‘p uchrashini hisobga olgan holda jinoiy ta’sir choralarni amaliyotga ko‘proq tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir choralar JK ning 88-moddasida keltirilgan majburlov choralari hozirgi vaziyatga mos tushish yoki tushmasligidan aniqlagan holda unga yangi turlarini qo‘shish orqali kengaytirish lozim. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi uchun tayinlanadigan jinoiy-huquqiy ta’sir choralarni qo‘llash institutini takomillashtirish masalalari yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish lozimdir.

Elektron monitoring. Sudya balog‘atga etmagan bolani har doim bilak yoki to‘piq bilaguzuk yordamida kuzatishni talab qilishi mumkin.

To‘garaklarga biriktirish. Turli kasb hunarlarni o‘rganish uchun ularni to‘garaklarga qanashishga ta’sir chorasini qo‘llash.

Kitob o‘qishga majburlash. Voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash uchun ularga ma’lum bir asarlarni o’qib tugatish majburiyatini yuklash.

Muayyan joylarga bormaslik yoki muayyan shaxslar bilan aloqa qilmaslik majburiyatini yuklash. Shu kabi majburlov ta’sir choralarni JK ning 88-moddasiga kiritish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adolat - qonun ustuvorligida Ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi VI sessiyasida ―Xavsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak mavzusida qilingan ma’ruza. 10-tom. – T. O’zbekiston, 2002-yil
2. M. A. Любавина. Особенности уголовной ответственности и наказания несовершеннолетних. Учебное пособие. Санкт’Петербург.2015. ст 17.
3. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish masalalari‖ Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to’plami. TDYU.Toshkent-2017.
4. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo’lgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) Rasmiy nashr O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T. Adolat, 2022 y. 17-modda.
5. Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonuni.
6. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo’lgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) Rasmiy nashr O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T. Adolat, 2022 y. 88-modda.
7. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo’lgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) Rasmiy nashr O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T. Adolat, 2022 y. 87-modda
8. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son

YO’LOVCHI TASHUVCHI ELEKTROBUSLARDA BORT AXBOROT TIZIMINING AFZALLIKLARI

Raximjonov Muslimjon Ravshanjon o’g’li
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
Xikmatov Ravshan Saidiumarovich
Toshkent davlat transport universiteti texnika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Jamoat transportini doimiy nazorat qilish, xizmat sifatini yaxshilaydi. Maqolada yo‘lovchi tashuvchi avtobus, elektrobuslarda bort axborot tizimining qo‘llanilishi, to‘g‘ri foydalanish va uning qanday afzalliklarga ega ekanligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: avtobus, elektrobus, bort axborot tizimi, qatnov jadvali, yo‘lovchi, energiya, ekologiya.

ADVANTAGES OF THE BORT INFORMATION SYSTEM IN PASSENGER ELECTROBUSS

Muslimjon Rakhimjonov
a doctoral student, Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan
Ravshan Khikmatov
candidate of technical sciences, associate professor
Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: Control of public transport improves the quality of service. The article provides information on the use of the on-board information system on passenger buses, electro bus, proper use and what advantages it has.

Keywords: bus, electro bus, on-board information system, travel schedule, passenger, energy, ecology.

Elektrobuslarda bort axborot tizimlarining paydo bo‘lishi aniq qilib qayerdadir yozib keltirilmagan, lekin avtobuslarda bort axborot tizimlaridan foydalanish 1990-yillarga borib taqaladi. Birinchi bort axborot tizimlari haqiqiy vaqt rejimida yetkazish xizmati agentliklari va haydovchilarga ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu ularga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam bergan [1]. Vaqt o‘tishi bilan bort axborot tizimlari raqamli displeylar, audio eshitgichlar, videokuzatuv va tushuntirish imkoniyatlarini beruvchi bir qator xususiyatlarni o‘z ichiga oldi. Ushbu tizim transport

korxonalari uchun avtobusga texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va undan foydalanishni qulaylashtirdi[2].

O‘zbekistonda 2018-yildan boshlab Rossiyaning “KAMAZ”, Belarusning “Belkommunmash”, Xitoyning “Yutong” elektrobuslarini sinov tariqasida olib kelish borasida muzokaralar boshlandi. Bunga ko‘ra 450000 AQSh dollariga xarid qilingan belorus elektrobusi 2019-yilning 13-sentabridan harakatlanishni boshlagandi. 2020-yilning 1-dekabridan Zhongtong, mart oyidan esa Yutong elektrobuslari poytaxt ko‘chalarida sinov qilish boshlangan edi [3].

Sinovlar natijasida Yutong elektrobuslarini qabul qilish ko‘paydi. Uning bitta to‘liq quvvatlanishi bilan 300 kilometrdan ortiq masofani bosib o‘tishi ham asosiy sabab deb belgilandi. Misol uchun belorus elektrobusi atigi 15-19 kilometr masofani bosib, bosh bekatda quvvatlash talab qilardi [4]. Bu esa har bir avtobus uchun qo‘shimcha bekatlar talab qilardi. Bundan tashqari Yutong elektrobuslari bort axborot tizimidan olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar ko‘pligi, yo‘lovchilarga ko‘plab qulayliklar yaratilganligi, ularga axborotni yetkazish va yo‘lovchilar oqimi haqida ma’lumot olish imkoniyatlari kengroq edi.

Bugungi kunda bort axborot tizimlari ko‘plab elektrobus modellarida standart xususiyatga aylandi. So‘ngi yillarda elektrobuslarning bort axborot tizimlari bir qator afzalliklarni taqdim etadi, misol uchun yo‘lovchilar harakatini o‘rganish va bu, avtobuslarning ishlashini optimallashtirishda turli maqsadlarga xizmat qiladi [5].

Birinchidan, bort axborot tizimlari bilan jihozlangan elektr avtobuslar yo‘lovchilarga avtobus jadvali, taxminiy kelish va jo‘nash vaqtlari, kechikishlar yoki yo‘nalishdagi o‘zgarishlar haqida haqiqiy vaqt rejimida ma’lumot berishi mumkin. Bu yo‘lovchilarga sayohatlarini yanada samarali rejalashtirishga yordam beradi va kutish vaqtlarini qisqartiradi.

Ikkinchidan, bu tizimlar, axborot-ko‘ngilochar tizimlar va interaktiv displeylar kabi multimedia funksiyalarini o‘z ichiga olib, yo‘lovchilar ko‘ngilochar kontentga ko‘rishlari, internetga ulanishlari mumkin. Bu qatnov vaqtini yanada qiziqarli qiladi.

Uchinchidan, bort axborot tizimlari har qanday hodisa yoki favqulodda vaziyatlarda ogohlantirishlar, e’lonlar va ko‘rsatmalar berish orqali yo‘lovchilar xavfsizligini oshiradi. Bu tizimlar yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash va ehtimoliy jinoiy harakatlarni oldini olish uchun kuzatuv kameralari bilan ham jihozlanganligi bilan ahamiyatli.

To‘rtinchidan, elektrobuslar batareyadan foydalanishni maqbullashtirish uchun energiya boshqaruv tizimlariga tayanadi. Ushbu tizimlar energiya iste’moli, batareya quvvati darajasi va zaryadlash jarayoni haqida ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa energiya sarfini yanada samarali nazorat qilish va boshqarishga yordam beradi.

Beshinchidan, bu tizimlar transport korxonalariga har bir avtobusning ishlashi, jumladan energiya sarfi, texnik xizmat ko‘rsatish ehtiyojlari va ish samaradorligi

to‘g‘risida keng qamrovli ma’lumotlarni taqdim etish orqali parkni boshqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu ma’lumotlar mutaxassislarga texnik xizmat ko‘rsatishni rejalashtirish, yo‘nalishni rejalashtirish va parkning umumiy ish faoliyatini qulay holatga keltirish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni tejash va xizmat sifatini yaxshilashga olib keladi.

Oltinchidan, vizual va audio e’lonlar, real vaqt rejimida bir nechta tillardagi ma’lumotlar va brayl yozuvlari kabi imkoniyatlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bu xususiyatlar imkoniyati cheklangan yo‘lovchilarga inklyuzivlikni va jamoat transportidan teng foydalanishni ta’minlaydi.

Yettinchidan, yo‘lovchilarga tashuv xizmatiga to‘lov qilishda to‘lov tizimi kartalaridan foydalanish imkonini beruvchi bort axborot tizimlariga integratsiyalashgan tariflarni yig‘ish tizimlari kiritilishi mumkin. Bu to‘lov jarayonini soddalashtiradi, avtobusga chiqish, tushish vaqtini qisqartiradi. Karta orqali tushumlar haqida aniq ma’lumotlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari bort axborot tizimlariga integratsiyalashgan atrof-muhitni nazorat qiluvchi qurilmalar yordamida shaharning haqiqiy ekologik holatini kuzatish va to‘g‘ri ko‘rsatmalar berishi mumkin. Ushbu tizimlar havo sifatini, shovqin darajasini va boshqa atrof-muhit omillarini o‘lchashi mumkin, bu shaharni rejalashtiruvchilar va siyosatchilar uchun shaharning umumiy ekologik holatini yaxshilash uchun qimmatli tushunchalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, avtobuslarning bort axborot tizimlari yo‘lovchilar va transport korxonalari jamoat transporti bilan o‘zaro munosabatida inqilob qildi. Haqiqiy vaqt rejimida axborot berishdan tortib, yo‘lovchilar xavfsizligini oshirish va energiya sarfini optimallashtirishgacha bo‘lgan ko‘plab afzalliklarni taqdim etdi. Qolaversa ushbu tizim imkoniyatlaridan foydalangan holda, transport korxonalari yo‘lovchilar uchun uzluksiz va sifatli sayohatni ta’minlashi, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirishi mumkin [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Nan Qin, Dr. R. Paul Brooker, Dr. Ali Raissi. Electric Bus Systems. Final Research Project Report EVTC Project 14 . 2017y. p19.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/On-board_diagnostics
3. https://daryo.uz/2022/02/03/toshkentga-xitoydan-20-ta-elektrobus-olib-kelindi-video%2F
4. Yuliya Yafremava, «Reducing environmental footprint through energy efficiency and application of renewables in Belarus». EEF.DEL/31/19. May 2019.
5. R.S.Khikmatov, M.R.Rakhimjonov. Description of the Passengers Flow Ascertainment Device Installed in Public Transport of Tashkent City. Nexus: journal of innovative studies of engineering science (jises). 2023V-02. 201-204p.
6. А.Я. Андреев. ИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ НА ТРАНСПОРТЕ. Конспект лекций. Минск-2009.

SOVET DAVLATINING PARCHALANISHI VA SOBIQ SOVET RESPUBLIKALARIDA MUSTAQILLIKNING E'LON QILINISHI

Egamberdiyev Xojiakbar Pahlavon o'g'li
Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakultet 03/22 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lib SSSR hududida tashkil topgan mustaqil davlatlarda siyosiy jihatdan o'z mustaqilliklarini e'lon qilishlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: SSR, MDH, Assambleyasi, mustaqillik, poytaxt, Latviya, Litva, Estoniya, Afg'oniston, Belorus, Moldaviya, Gruziya, Deklaratsiya.

1991 yil oxiriga kelib barcha sobiq ittifoq respublikalari SSSR tarkibidan chiqqanliklarini e'lon qildilar. Ularga 15 ittifoq respublikalari: Ozarbayjon SSR, Armaniston SSR, Belorus SSR, Gruziya SSR, Qozog'iston SSR, Qirg'iziston SSR, Latviya SSR, Litva SSR, Moldaviya SSR, RSFSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR, Ukraina SSR, Estoniya SSR kirdi. 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belorussiya hahbarlarining yig'ilishida SSSR siyosiy tuzilma sifatida o'z faoliyatini to'xtatib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil etilishi e'lon qilindi. Shuningdek, 1991-yil 25-dekabrda M.Gorbachyov SSSR Prezidenti lavozimidagi faoliyatini to'xtatganini e'lon qildi. 1991 yil dekabr oyida Turkmaniston poytaxti Ashxobodda Markaziy Osiyoning beshta davlati rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi, unda a'zo Davlatlarning teng huquqliligi va MDHga muassis sifatida kirishi e'lon qilindi. 1991 yil dekabr oyida Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda SSSRning xalqaro huquq va geosiyosiy voqelikning sub'ekti sifatida mavjudligi to'xtatilganligi qayd etilgan Deklaratsiya imzolandi. Joriy yil oxiriga kelib Boltiqbo'yi respublikalaridan tashqari barcha sobiq Sovet respublikalari – Latviya, Litva, Estoniya MDHga kirdi. Ammo 2008-yilda Gruziya MDHni tark etdi, Ukraina esa 2014-yildan beri MDH faoliyatida qatnashmaydi. Mo'g'uliston MDHning qator tuzilmalarida kuzatuvchi sifatida qatnashadi. 2008-yilda Afg'oniston MDHga a'zo bo'lish istagini bildirdi va hozirgacha MDH Parlamentlararo Assambleyasida kuzatuvchi maqomida. SSSR parchalanishining sabablari. Birinchi guruh muxoliflarining fikricha, SSSRning parchalanishiga davlat boshida turgan rahbarlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar sabab bo'lgan. Masalan, 1991-yilda Belarus Respublikasi rahbari sifatida Belovej bitimlarini imzolagan S.S. Shushkevich Sovet Ittifoqining mavjudligining tugashiga ichki binolar emas, balki B.N.Yeltsin va M.S.Gorbachyov o'rtasidagi nizolar sabab bo'lgan deb hisoblaydi (mamlakatni qamrab olgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz) yoki xalqaro maydondagi hozirgi vaziyat (sovuq urush). 1990 yildan beri RSFSR Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari G. A.

Yavlinskiy 1991 yil dekabr oyida Belovej kelishuvlari tuzilgandan so'ng o'z hamfikrlari bilan birgalikda B. N. Yeltsinning harakatlariga rozi bo'lmaganlik belgisi sifatida hukumatni tark etdi.

Tarix fanlari doktori D.E.Furman Ittifoqning parchalanishida Rossiya hukumati vakillarini aybladi, ular o‘z maqsadlarini mamlakat taraqqiyotini emas, balki shaxsiy manfaatni ko‘zlagan. SSSR parchalanishi sabablarini ham o‘rgangan uchinchi guruh olimlari xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarni ushbu hodisaning asosiy sharti deb hisoblaydilar. Masalan, professor V.V.Serebryannikov Sovuq urush davrida AQSH qo‘llagan tashqi kuchlar, siyosiy, axborot, iqtisodiy harakatlar ta’sirini ta’kidlaydi. Bunday siyosatning natijasi kommunizmning yo'q qilinishi va SSSRni ilgari uning tarkibini tashkil etgan alohida hududiy tuzilmalarga bo'linish jarayonining boshlanishi bo'lishi kerak edi. Tarixchilar va siyosatchilar SSSRning qulashi sabablari to'g'risida bir xil fikrda emaslar.Jamiyat hayotining ko'plab sohalarida qayd etilgan turli sabablar qayd etilgan: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy. ayrim respublikalarning Sovet davlatidan ajralib chiqish istagining kelib chiqishiga aylangan bema'ni «islohotlar»; Ittifoq respublikalarida milliy elitaning shakllanishi. Sotsialistik davlatlar “erkin bozor va demokratiyani afzal ko‘rgan” kommunistik mafkuraning barbod bo‘lishi; Favqulodda vaziyatlar qo'mitasining muvaffaqiyatsiz urinishi, bu mamlakatning parchalanishi jarayonining boshlanishi; KPSS tashabbusi bilan boshlangan va dastlab partiyaning o'zida amalga oshirilgan siyosiy tizimni markazsizlashtirish. SSSRning dunyo xaritasidan yo'q bo'lib ketishining oqibatlari haqiqatan ham juda katta. Va eng asosiysi, vaziyatga qarab dunyo hakami, jandarmi yoki jallod maqomini olgan AQSh gegemonligi ostida dunyo tartibining bir qutbli modelini tasdiqlashdir. Buni tushuntirish uchun men bir nechta misollar keltiraman:

- bu Yevropa davlatini yo‘q qilish bilan Yugoslaviyaga qarshi tajovuz;
- Iroqqa bostirib kirish, buning natijasida “Islomiy davlat” (Rossiyada taqiqlangan) terror tashkiloti shakllanishi va tez o‘sishi;
- Liviyadagi AQSh harbiy kampaniyasi, bu mamlakatni demokratiya o'rniga uzoq muddatli fuqarolar urushiga olib keldi;
- NATOning (aslida Qo'shma Shtatlarning) Afg'onistonga muvaffaqiyatsiz aralashuvi, 20 yil davomida kutilgan natijalarga olib kelmagan, Amerika askarlarining qochishi va Tolibonning g'alabasi bilan yakunlangan. Shu bilan birga, u erda qurol-yarog', o'q-dorilar va terrorchi jangchilarning o'qitilgan otryadlari qoldirildi.

1991 yil 24 avgustda Ukraina o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1991 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan Referendumda aholining mutlaq ko'pchiligi Ukraina mustaqilligi uchun ovoz berdi. Leonid Kravchuk Ukrainaning birinchi prezidenti etib saylandi. 1994 yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiq Belarus Respublikasi unitar demokratik ijtimoiy huquqiy davlat deb e'lon qilindi. Yoniq 1994 yilgi saylovlarda Aleksandr Lukashenko mamlakat prezidenti etib saylandi. 1991-yil 27-avgustda Moldova o‘z

mustaqilligini e’lon qildi. Mircha Snegur Moldova Respublikasi deb nomlangan davlatning birinchi Prezidenti etib saylandi. 1988-yilda tashkil etilgan Latviya Xalq fronti boshlanadi Mustaqillik uchun kurash. Natijada 1990-yil 4-mayda Latviya o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Raimonds Vejonis birinchi Prezident bo'ldi 1988-yil iyun oyida Litvada tashkilot tuzildi Litva mustaqilligiga erishish vazifasini o'z oldiga qo'ygan «Sąjūdis» («Harakat»). 1990-yil 11-martda Litva Oliy Kengashi Litva Respublikasining mustaqilligi haqida gapirdi. Dalya Gribauskayte Litvaning birinchi prezidenti bo'ldi.

1991-yil 9-aprelda Gruziya prezidentlik saylovlarida o‘z mustaqilligini e’lon qildi, muxolifat yetakchisi Zviad Gamsaxurdiya mamlakat prezidenti etib saylandi. 1988-yil 16-noyabr Estoniya Oliy Kengashi “Estoniya SSR davlat suvereniteti to‘g‘risida”gi deklaratsiyani qabul qildi. Estoniyaning birinchi prezidenti Kersti Kaljulay edi. Rossiya Federatsiyasi 1990-yil 12-iyunda mustaqillikka erishdi. Yeltsin 1996 yilda Rossiya prezidenti etib qayta saylandi 1991-yil dekabr oyida Turkmaniston MDHga a’zo bo‘ldi. 1999 yilda Turkmaniston Xalq Kengashi Saparmurod Niyozovni umrbod prezidentlik qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. 1990-yil 24-martda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida xalq deputatlari O‘zbekiston SSRning birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovni sayladilar. 1991-yilda Armanistonda “Armanistonning davlat mustaqilligi deklaratsiyasi” qabul qilindi. 1991-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan saylovlarda Levon Ter-Petrosyan Armanistonning birinchi prezidenti etib saylandi. 1991-yil 31-avgustda Qirg'iziston e'lon qildi uning mustaqilligi. Asqar Akayev birinchi prezident etib saylandi. 1991-yil 16-dekabrda Qozog‘iston o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Prezidentlik majlisida Nursulton Nazarboyev Qozog‘istonning birinchi prezidenti etib saylandi. 1991-yil 9-sentabrda Tojikiston o‘z mustaqilligini e’lon qildi. 1994-yil 6-noyabrda Imomali Rahmon Tojikiston prezidenti etib saylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. СтКонституции СССР 1977 года.
2. Ст. 72-я Конституции СССР 1977 года.
3. Кремнев П. П 2010.
4. Венгеров А. Б 2014.
5. Закон СССР от 03.04.1990 «О порядке решения вопросов, связанных с выходом союзной республики из СССР».
6. Ст. 80-я Конституции СССР 1977 года.
7. Морозов Н.Е „Партократия за перестройку. Почему?“,. Горькая правда. Семипалатинск (Казахстан): ОАО «Семей Полиграфия», 2002 — 154 bet. ISBN 9965-557-15-2.

TRIATLON SPORT TURIGA YO‘NALTIRILGAN SPORTCHILARDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USLUBLARI

Tilavov Sh. S.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchi
O‘zbekiston, Chirchiq shahri
tilavovshaxboz395@gmail.com
Xolboyev N. S.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, talaba
O‘zbekiston, Chirchiq shahri

Annotatsiya. Keltirilgan maqolada triatlon sport turi bilan shug‘lanuvchi sportchi yoshlaninng jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini, hususan chidamkorlik sifatini besh bosqichli shiddatli zonalarda rivojlantirish darajasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh triatlonchi sportilar, chidamlilik, vosita, uslub, shiddat, xajm, yuklama, aerob, anaerob, mashq.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ У СПОРТСМЕНОВ ПО ТРИАТЛОНУ

Аннотация. В представленной статье исследуется степень развития физических качественных показателей молодого спортсмена, занимающегося триатлонным видом спорта, в частности, качеством выносливости в пятиуровневых зонах интенсивности.

Ключевые слова: Юные спортсмены-триатлонисты, выносливость, моторика, стиль, интенсивность, объем, нагрузка, аэробная, анаэробная, физическая упражнение.

METHODS OF DEVELOPING ENDURANCE IN TRIATHLON SPORTSMEN

Annotation. In the article presented, the level of development of physical quality indicators of the athlete yoshlaninng, the quality of endurance in five-stage zones of intensity is studied.

Keywords: Young triathlete athletes, endurance, motor, style, intensity, volume, load, aerobic, anaerobic, exercise.

Jahonning ilg‘or davlatlarida chidamlilikni rivojlantirish, ayniqsa bolalik yoshidan rivojlantirish masalalari yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda,

chunki bolalik davri sportga ixtisoslashishning boshlanishi hamda ushbu jismoniy sifatni rivojlantirish uchun qo‘lay davr hisoblanadi. Bolalar organizmining chidamliligini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-trenirovka jarayonini hamda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishni optimallashtirish, yosh sportchilarda sport chidamliligini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, bu, harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mushaklar guruhini ortib boruvchi toliqishga qarshiligini oshirishga imkon yaratishi maqolaning qanchalar **dolzarb**ligini belgilaydi.

Triatlon sport turlarida ixtisoslashuvchi yosh sportchilarda chidamlilikni rivojlantirishda shiddat zonalari ta’snifi birinchi jadvalda keltirilgan. Yosh sportchilarda chidamlilikni rivojlantirish uchun mashg‘ulot yuklamalarini oqilona qo‘llash hamda ularni muntazam ravishda pedagogik nazorat qilib borish zarur. Mashg‘ulot yuklamalari musobaqa faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga bog‘liq holda turli xildagi chidamlilikni rivojlantirishga qaratish kerak. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan shiddat zonalari ta’snifi yosh triatlonchilarni o‘quv-mashg‘ulot jarayonida tajribada tekshirildi. (n=120)

Birinchi shiddat zonasi aerob chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan turli xil mashqlardan iborat. Mashqlar nisbatan past shiddat va katta xajm bilan ifodalanadi. Bu yog‘larning kislotalanishi hamda metoxondiryalarning biosintezini ta’minlaydi bu mashqlarning ko‘rsatilgan rejmda bajarilishi yuqori yuklamalardan so‘ng ansa tiklanishga yordam beradi. Bu mashqlar odatda mashg‘ulotning turli qismlarida va yakuniy qismida qo‘llaniladi. Birinchi zona mashqlarini bajarishda tomir urishi odatda daqiqaga 130 zarbadan oshmaydi, loktat esa 1-2ml/l ga teng bo‘ladi.

Ikkinchi shiddat zonasi anaerob ostonani siljitish uchun mashqlardan foydalanishga qaratilgan. Bu mashqlar tanaffusli rejmda YuQS daqiqasiga 150 zarba bo‘lganda va loktat darajasi 2 - 4ml/l dan oshmagan sharoitda bajariladi. Dam olmsh tanaffuslari 40 soniyagacha va serialar orasida 4 daqiqagacha. Bu mashqlar 10-16 yoshdagi yosh triatlonchilar o‘quv-mashg‘ulot jarayonidagi baryaa mashqlarning 40% gacha bo‘lgan xajmini tashkil etadi.

Uchinchi shiddat zonasida aralash aerob-anaerob rejimda YuQS daqiqaga 150-170 zarba va loktat darajasi 5-8 ml/l bo‘lgan sharoitda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan foydalaniladi.Bu shiddat zonasi mashqlari aerob shiddatning o‘sishini rag‘batlantiradi. Bu mashqlar o‘quv-mashg‘ulot jarayonida umumiy xajmga nisbatan 20% gacha xajmni tashkil etadi.

1-jadval

Triatlon sport turlariga ixtisoslashgan sportchilarda chidamlilikni rivojlantirish

Shiddat zonalari	**Yo‘nalish**	**YuQCH zarba/daq**	**Laktat (mm/l)**	**Mashg‘ulot jarayoni vazifalari**	**Mashqlar jadalligi**	**Mashqlarni bajarish me’yori**	**Tashkiliy uslubiy ko‘rsatmalar**
1-zona	Umumiy aerob ta’sir	110-130	1-2	Organizmni tiklanishi Kapilyarlar zichligi Mitoxondriyalar sintezi Yog‘larni oksidlanishi	Past Pastdan o‘rtagacha O‘rta O‘rta	Mashqlarning davomiyligi 30-120 m dan	Mashqlarni bajarilish texnikasiga diqqatni jamlash (e’tibor berish)
2-zona	Aerob ostona	130-150	2-4	Aerob sig‘im Ishning iqtisodliligi	O‘rata	3x6, dam olish 2 daq.2-4 seriya 4x2 daq, dam olish 1 daq, 2-4 seriya 8-16s, dam olish	YuQCH 2-zona qiymatidan oshib ketmasligini kuzatib borish zarur
3-zona	Aerob-anaerob	150-170	5-8	Aerob kuch Aerob-anaerob ta’sir	Yuqori	4x6 daq, dam olish 4 daq. 2-4 seriya 6x6 daq, dam olish 2 daq 2-4 seriya 8x40 soniya, dam olish 30 s 2-4 seriya 10x20 soniya, dam olish 30 s, 2-4 seriya 10x50 soniya, dam olish 6 daq, 2-4 seriya	YuQCH jadallikning 1-zona qiymatigacha seriyalar orasida 8-10 daqiqa dam olish
4-zona	Aerob glikolitik	180-190 180-200	8-10 8-10	Anaerob glikolitik sig‘im Anaerob glikolitik sig‘im	Yuqori submaksimal submaksimal	6x2 daq, dam olish 2 daq 2-4 seriya 4x3 daq, dam olish 2 daq 2-4 seriya 8x30 soniya, dam olish 30 soniya 6x30 soniya, dam olish 2 daq. 2-4 seriya 4x30 soniya, dam olish 2 daq. 2-4 seriya 10x30 soniya, dam olish 4 daq. 2-4seriya	Mashqlar qo‘shimcha qarshilik bilan bajariladi Sportchining tezkorlik imkoniyatlari ustidan nazorat o‘rnatish maqsadga muvofiq
5-zona	Aerob-aloktat	160-180	4-6	Maksimal darajadagi sprinterlik qobiliyati	Maksimal	4x10 soniya, dam olish 2 daq. 2-4 seriya, 4x15 soniya, dam olish 4 daq. 2-4 seriya 10x20 soniya, dam olish 4 daq. 2-4 seriya	Mashqlarni maksimal kuch bilan bajarish lozim

To‘rtinchi shiddat zonasida YuQS daqiqasiga 180-200 zarba va loktat ko‘rsatkichi 8-10 ml/l ni tashkil etgan sharoitlarda bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi. Bu mashqlar ko‘p jixatdan organizmning kordio resperator va metobolik tizimlariga ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida bu shiddat zonasidagi mashqlar ko‘pi bilan 10 % ni (umumiy yillik yuklamaga nisbatan) tashkil etadi.

Beshinchi shiddat zonasi 10-15 soniya davom etadigan yuqori shiddatli mashqlarni o‘z ichiga oladi, bu yerda energiyaning alaktat manbalarini safarbar etish

talab qilinadi. YuQS daqiqasiga 160-180 zarbani tashkil etadi, laktat miqdori 4-6 ml/l ga teng. Dam olish tanaffuslari keyingi yuklamagacha to‘liq tiklanib ulgurishni ta’minlash zarur. Shunday qilib yosh sportchilar chidamlilikni maqsadli rivojlantirish 5 ta shiddat zonasi tasnifiga taksimlash kerak. Bu zonalar turli xil rejimdagi mashg‘ulot yuklamalari hamda mos ravishda bola organizimining fiziologik reaksiyalarini namoyon qiladi. Bolalar organizmining chidamlilikka qaratilgan mashg‘ulot yuklamalariga nisbatan moslashishning ayrim xususiyatlari aniqlandi. Yosh sportchilarda gipoksiya sharoitidagi yuklamalarga qobilyati hamda o‘sib boruvchi toliqishga qarshilik qilish qobilyatlari susaygan. Biroq yosh sportchilar tanaffusli va qisqa muddatli mashqlardan so‘ng ancha tez tiklanishni nomoyon qildilar. Triatlonchilarning jismoniy tayorgarligi jarayonida umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirishda mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddati bo‘yicha rejalashtirilishi ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi: 10 yoshdagi triatlonchilarda ko‘rsatkichlar 11% gacha 11 yoshda 12 %, 12 yoshda 13% , 13 yoshda 14%, 14 yoshda 16%, 15 yoshda 17% ga, 16 yoshda 18% gacha o‘sdi. Mashg‘ulotlar davomida tiklanish vositalaridan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Niyazova R.R., Kun E., Matkarimov R.M. Triatlon nazariyasi va metodikasi (Sport tayyorgarligi asoslari) O'QUV QO'LLANMA – T.: 2020y-207 b.
2. Bobomuratov I.B. «Triatlon nazariyasi va uslubiyati». Darslik. Chirchiq: O‘zDJTSU, 2022.
3. Ниязова Р.Р. «Повышение спортивного педагогического мастерства (триатлон)». Учебное пособие. УГУФКС - Ч., -2023.
4. Raximova.Z.D., Niyazova R.R. Sport pedagogik mahoratini oshirish (triatlon) o‘quv qo‘llanma Chirchiq-2023.

INSULIN QARSHILIGI NIMA?

Bakirova Dilorom
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola inson organizmida insulin garmonining ahamiyati, organizmda ortiqcha insulin ishlab chiqarilishining sabablari va buning organizmga salbiy ta'siri haqidadir. Bundan tashqari insulinga qarshilik oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar, bu kasalliklar va patologik holatlarni bartaraf etish yo'llari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Insulinorezistennost, metabolik kasallik, Beta hujayralar, 2-toifa diabet, gipertenziya, gormonal buzilishlar, steroid dorilar, endokrinolog.

WHAT IS INSULIN RESISTANCE?

Abstract: This article is about the importance of the insulin hormone in the human body, the causes of excess insulin production in the body and its negative effects on the body. In addition, information is given about diseases caused by insulin resistance, ways to eliminate these diseases and pathological conditions.

Key words: Insulin resistance, metabolic disease, Beta cells, type 2 diabetes, hypertension, hormonal disorders, steroid drugs, endocrinologist.

Bugungi kunda insulin, uning organizmdagi ahamiyati, unga bog'liq bo'lgan qandli diabet kasalligi ommaga ancha tanish tushunchalar bo'lib qoldi. Bizga ma'lumki insulin tufayli tanamiz hujayralari glyukozani o'zlashtiradi va keyin uni energiya manbai sifatida ishlatadi. Aslida, insulin hujayra ichiga glyukoza uchun eshikni ochadigan kalitdir.

Ammo unga bog'liq yana bir xolat – organizmning insulin garmoniga qarshilik qilish xolati ya'ni insulinorezistennost ham kuzatilib turarkan. Insulin qarshiligi - bu to'qimalarning insulin ta'siriga sezgirligining pasayishi bilan tavsiflangan metabolik kasallik. Ushbu patologik holatda hujayralar insulin ta'siriga qarshilik ko'rsatganligi sababli glyukozani to'g'ri metabolizatsiya qilmaydi. Bu kasallik ko'pincha genetik xususiyatga ega, ammo yallig'lanish, metabolik kasalliklar va turli gemodinamik jarayonlar fonida rivojlanishi mumkin. Xo'sh insulinga qarshilik nima?

"Qarshilik" tushunchasi inglizcha "resist" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rus tiliga tarjima qilinganda "qarshilik ko'rsatish" degan ma'noni anglatadi. Moddalar almashinuvi buzilishi oqibatida mushak, yog 'va jigar hujayralari insulin ta'siriga qarshilik ko'rsatadi va shuning uchun qon oqimidan glyukozani to'g'ri qabul qila

olmaydi. Oshqozon osti bezi ushbu to'siqni yorib o'tish va glyukozani hujayra ichiga "kirish" uchun ko'proq miqdorda insulin ishlab chiqarishi kerak bo’ladi. Beta hujayralari qarshilikni engish uchun etarli miqdorda insulin ishlab chiqarishga qodir ekan, qondagi glyukoza darajasi normal bo'lib qoladi. Biroq, ertami-kechmi beta-hujayralar etarli darajada gormon ishlab chiqarishni to'xtatishi mumkin. Natijada, qonda glyukoza to'plana boshlaydi. Shunday qilib, insulin ta'siriga qarshilik birinchi navbatda prediabetga, keyin esa 2-toifa diabetga olib kelishi mumkin.

Insulin qarshiligining o'zi diabetga olib kelmasa ham, uning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Buning sababi, beta-hujayralar tobora ortib borayotgan talablarga duch keladi. Prediabet bilan oshqozon osti bezi endi kerakli miqdorda insulin ishlab chiqara olmaydi. Natijada, qondagi glyukoza darajasi me'yordan yuqori bo'lib qoladi, ammo hali diabet tashxisi qo'yilgan darajadan oshmaydi.

Qandli diabetdan farqli o'laroq, insulin qarshiligi va prediabetni engish mumkin. Siz qila oladigan eng yaxshi narsa bu vazn yo'qotish va muntazam ravishda mashq qilishdir.

Insulin qarshiligining sabablari nima? Ushbu holatning rivojlanishining aniq sabablari hali to'liq tushunilmagan. Bugungi kunda olimlar 2 ta asosiy sababni aniqladilar. Birinchi sabab - ortiqcha vazn. Ba'zi ekspertlar semizlik, ayniqsa bel atrofidagi ortiqcha yog'lar insulin qarshiligining asosiy sababi deb hisoblashadi. Ilgari olimlar yog 'to'qimalari faqat energiya saqlash vazifasini bajaradi, deb ishonishgan. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qorin yog'i jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin bo'lgan gormonlar va boshqa moddalarni ishlab chiqaradi. Bularga quyidagilar kiradi: Gipertenziya, xolesterin muvozanatining buzilishi, yurak-qon tomir kasalliklari. Qorin bo'shlig'idagi yog'lar butun tanadagi surunkali yallig'lanish jarayonlarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Vaqt o'tishi bilan surunkali yallig'lanish tanaga zarar etkazishi mumkin - hech qanday alomatlarsiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vazn yo'qotish insulin qarshiligini kamaytirishi va 2-toifa diabetning oldini olish yoki kechiktirishi mumkin.

Ikkinchi sabab - past jismoniy faollik. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollikning etishmasligi insulin qarshiligi va 2-toifa diabetning rivojlanishi bilan bog'liq. Boshqa to'qimalarga qaraganda, skelet mushaklari glyukozani eng ko'p ishlatadi. Odatda, faol ishlaydigan mushaklar ularda saqlanadigan glyukozani "yoqadi" va keyin ularni yangi glyukoza bilan to'ldiradi. Ushbu mexanizm tufayli qon shakar darajasi pasayadi.

Jismoniy faollikdan so'ng mushaklarning insulinga sezgirligi oshadi. Shu tufayli nafaqat qondagi glyukoza darajasi pasayadi, balki insulin qarshiligi ham kamayadi. Bundan tashqari, mashq qilish mushaklaringizga ko'proq glyukoza singishiga yordam beradi, hatto insulin kerak bo'lmasa ham. Boshqacha qilib aytganda, glyukoza mushak to'qimalariga "kirish" uchun “trening”dan so'ng darhol insulin kerak emas.

Insulin qarshiligining boshqa sabablari: Ushbu holatning rivojlanishiga boshqa omillar ham yordam beradi: muayyan kasalliklarning mavjudligi, gormonal buzilishlar, steroid dorilarni qabul qilish, Yosh, uyqu muammolari, ayniqsa uyqu apnesi, ya’ni 10 soniyadan ko'proq vaqt davomida uyqu paytida o'pka ventilyatsiyasining to'xtashi bilan tavsiflangan apneaning bir turi, chekish.

Simptomlarni qanday aniqlash mumkin?

Insulin qarshiligi odatda hech qanday tarzda o'zini namoyon qilmaydi. Odamlar yillar davomida yashashlari mumkin va hatto sog'lig'i bilan bog'liq muammolardan bexabar bo'lishlari mumkin. Biroq, shifokorlar xavf ostida bo'lgan odamni jismoniy xususiyatlarga ko'ra aniqlashlari mumkin.

Kuchli insulin qarshiligi bo'lgan odamlarda terida, odatda bo'yinning orqa qismida qora dog'lar paydo bo'lishi mumkin. Ba'zida bo'yin atrofida qoramtir halqa hosil bo'ladi. Tirsaklar, tizzalar, bo'g'imlar va qo'ltiqlarda ham dog'lar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu hodisa akantoz nigrikans deb ataladi.

Agar insulin qarshiligi kuchayganida va qondagi qand miqdori me'yordan yuqori bo'lsa, bemorda quyidagi alomatlar paydo bo'lishi mumkin: charchoq, ochlik, diqqatni jamlashda qiyinchilik.

Kim sinovdan o'tishi kerak? Amerika qandli diabet assotsiatsiyasi ortiqcha vaznga ega bo'lgan barcha kattalarga testdan o'tishni tavsiya qiladi. Qandli diabet rivojlanish xavfi bo'lgan odamlar ham tashxis qo'yilishi kerak. Vaqti-vaqti bilan tekshirilishi kerak bo'lgan uchinchi guruh - 45 yosh va undan katta yoshdagi odamlar. Yosh va ortiqcha vazndan tashqari, prediabet rivojlanishi uchun xavf omillari quyidagilardan iborat: kam jismoniy faollik, ota-onalar yoki aka-ukalarda qandli diabetning mavjudligi, og'irligi 4 kg dan ortiq bo'lgan chaqaloqning tug'ilishi. Yuqori qon bosimi - 140/90 yoki undan yuqori yoki gipertenziya uchun dori-darmonlarni qabul qilish, qondagi yuqori zichlikdagi lipoproteinlar ("yaxshi" xolesterin) darajasining pasayishi - 35 mg / % dan kam; Qonda triglitseridlar darajasining oshishi - 250 mg/% dan yuqori, polikistik tuxumdon sindromining mavjudligi, yurak-qon tomir kasalliklarining mavjudligi.

Insulin qarshiligini davolash mumkin. Buning uchun siz turmush tarzingizga o'zgartirishlar kiritishingiz kerak. Hech bo'lmaganda ortiqcha vazndan xalos bo'ling, muntazam ravishda harakat qiling va mashq qiling.

Keng miqyosli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, prediabetli odamlar diabet rivojlanishining oldini olishi yoki hech bo'lmaganda kechiktirishi mumkin. Buning uchun siz muntazam jismoniy faollikni saqlashingiz lozim.

Ortiqcha vaznli odamning asosiy vazifasi iste'mol qilinadigan kaloriyalar sonini kamaytirishi kerak. Har kuni kamida 5 porsiya sabzavot va ikki porsiya meva iste'mol qiling. To'liq don va past glisemik indeksli boshqa uglevodlarni iste'mol qiling. Dukkaklilar haqida unutmang. To'yingan yog 'miqdorini kamaytiring. Do'konda sotib

olingan shirinliklar (shu jumladan tortlar) va qizarib pishgan ovqatlarni iste'mol qilishni cheklang. Yog'siz go'shtni iste'mol qiling.

Esingizda bo'lsin, insulin qarshiligi uchun eng yaxshi parhez ozishga qaratilgan parhezdir. Shaxsiy ovqatlanish rejasini tuzish uchun dietolog bilan bog'laning. Qandli diabetdan farqli o'laroq, insulin qarshiligi va prediabetni engish mumkin. Siz qila oladigan eng yaxshi narsa vazn yo'qotish va muntazam ravishda mashq qilishdir. Agar siz xavf ostida bo'lsangiz yoki oddiygina diagnostikadan o'tmoqchi bo'lsangiz, endokrinologlarga keling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мишарина Е. В., Бородина В. Л., Главнова О. Б., Николаенков И. П., Потин В. В., Тарасова М. А. Инсулинорезистентност и гиперандрогения. – Журнал акушерства и женских болезней, Москва. 2016 год.

2. Макишева Р. Т. Адаптивный смысл инсулинорезистентности. – Научная работа, Вестник новых медицинских технологий, Тула, 2016 год.

3. Гейслер К.Э., Гимир С., Брюггинк С.М., Миллер К.Э., Венингер С.Н., Кроненфелд Дж.М., Ренквист Б.Дж. Критическая рол печеночной ГАМК в метаболической дисфункции и гиперфагии при ожирении. Селл Репортс, 35(13),

4. Николин К. *М.* Синдром сонного апное (лекция для врачей).- Санкт-Петербург, 2005.

ТАСКАЗГАН КОНИ ГРАФИТ РУДАСИНИ ФЛОТАЦИОН УСУЛДА БОЙИТИШ ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Турсунов Азамжон Салимжон ўғли
т.ф.ф.д. (PhD), Озиқ-овқат технологияси ва муҳандисли халқаро институти
E-mail: turcunov-farpi@mail.ru
Турдиалиев Умид Мухтаралиевич
т.ф.д. (Дс), катта илмий ходим, Андижон машинасозлик институти

Abstract: Enrichment processes of graphite ore obtained from the Taskazgan mine, Bukhara region of the Republic of Uzbekistan in a flotation machine using various organic and inorganic collectors and agitators were studied.

Аннотация: Ўзбекистон Республикаси Бухоро вилояти Тасказган конидан олинган графит рудасини Флотация машинасида турли хилдаги органик ва ноорганик йиғувчилардан хамда кўпиртирувчилардан фойдаланиб бойитилиш жараёнлари ўрганилган**.**

Калит сўзлар: Графит рудаси, флотация машинаси, керосин (КЕ), мотор мойи (ММ), иммерсион мой (ИМ), трансформатор мойи (ТМ), ишлатилган машина мойи (ИММ), саноат мойи (СМ), Т92, Т66, Т80, ПТ-2, ПТ-4, УГК, концентрат.

Кириш

Дунёда юқори ҳароратга чидамли учиш қурилмаларининг конструкциялари, электр двигателларининг чўткалари, электролиз жараёнларидаги электродлар, ишқорий литий-ион батареялари аноди учун қимматли материал сифатида графитнинг доимий равишда ишлаб чиқарилишининг ўсиши кузатилмоқда. Бундан ташқари, графит сурков ва юқори ҳароратга чидамли материаллар ишлаб чиқаришда, ядро реакторлари энергоблокларида, металлургияда қуйма қолиплар ва графит толали маҳсулотларда ишқаланишга қарши материаллар олишда ўзини яхши намоён қилмоқда. Мамлакатимизда графит ишлаб чиқариш йўқлиги сабабли, заҳираси етарлича катта бўлган Тасказган конининг графит рудаларини қайта ишлашга катта эътибор бериш муҳим аҳамият касб этади.

Дунёда кўпик ҳосил қилувчи (терпен мойи, метилизобутилкарбинол), йиғувчи (керосин) ва депрессор (натрий силикат) вазифасини бажарадиган анъанавий реагентларни қўллаган ҳолда, бойитилиши қийин бўлган графит рудаларини флотацион усулда бойитиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бу борада, самарали флотореагентларни танлаш ва уларнинг сарфини камайтириш бўйича олиб бориладиган тадқиқотларга; жараённинг кўп босқичлилигига йўл қўймайдиган самарали қурилма ва технологик ёндашувни

яратишга; кичик миқдорда ягона кимёвий реагент ёрдамида графит рудасини бойитишга; саноат учун зарур бўлган Тасказган кони графит рудасини бойитишнинг ресурс ва энергия тежамкор технологиясини ишлаб чиқиш ҳамда саноат тармоқлари учун муҳим бўлган графит концентратини сурков ва оловбардош материалларга қайта ишлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Натижалар ва мухокама

Турли хилдаги флотореагентларнинг Тасказган кони графит рудасини *Essa FTM101* маркали флотомашинада бойитиш жараёнига таъсири ўрганилди.

Тажрибаларда қуйидаги йиғувчилар: керосин (КЕ), мотор мойи (ММ), иммерсион мой (ИМ), трансформатор мойи (ТМ), ишлатилган машина мойи (ИММ), саноат мойи (СМ). Кўпикловчилар, шу жумладан янги маҳаллий: қарағай ёғи, Т92, Т66, Т80, ПТ-2, ПТ-4, УГК ишлатилган Синов натижалари шуни кўрсатдики, доимий миқдоридаги ПТ-2 кўпиклагич ва ҳар хил миқдордаги йиғувчи ёрдамида графит концентратининг оптимал чиқиши КЕ йиғувчининг 0,02 мл миқдорида ва ПТ-2 кўпиклаштиргичининг 0,22 мл миқдорида эришилди.

Ўтказилган синовлар натижалари турли тип ва комбинациядаги йиғувчи ва кўпикловчиларнинг графит концентратини чиқишига таъсири кўрсатилган. Графит концентратнинг орқали максимал чиқиши флотореагентлар қуйидаги нисбатларда: КЕ (0.016 гр.) + кўпиклаштиргич ПТ-2 (0.202 гр.) ва ТМ (0.016 гр.) + кўпиклаштиргич ПТ-2 (0.202 гр.) мослашувчанлиги аниқланди.

Бундан ташқари, йиғувчи сифатида керосин, ПТ-2 кўпиклаштиргич билан флотациялаш тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, графит концентратининг максимал чиқиши 1:6 нисбатда, яъни 300 мл сув ва 50 гр. бойитилмаган графит рудаси бўлган ҳолатда кузатилди.

Лаборатория шароитида Тасказган конининг графит рудасини биринчи, иккинчи ва учинчи флотацион бойитишдан сўнг, графит концентрати ва қолдиқ массанинг тажриба намуналари олинган, уларнинг технологик хусусиятлари 1-жадвалда келтирилган.

Қайта ишлашнинг турли босқичларида бойитилган рудаларнинг олинган намуналари Навоий шаҳар НКМКМИТЛ га углерод чиқиш миқдорини аниқлаш учун топширилган, уларнинг натижалари 2-жадвалда келтирилган.

Углерод миқдори 96% гача бўлган тоза графит концентратини олиш учун танланган флотореагентлар (йиғувчи КЕ + кўпикловчи реагент ПТ-2) билан олти маротаба флотацион тозалаш керак бўлади. 1 тонна графит рудаси учун ПТ-2 кўпикловчи реагентнинг сарфи 3,0 кг, КЕ нинг сарфи эса 0,5 кг ни ташкил этди. Графитни олти маротаба тозалашдан кейин графит концентратини чиқиши 46,85 г (93,7%) ни ташкил этди.

1-жадвал

Турли хил бойитиш босқичларидан кейин графит концентратининг технологик хусусиятлари

Флотация №	Флотация учун ишлатилган сув (l), t=20 ^{0}C	Йиғувчи керосин(КЕ) миқдори, томчи/грамм	Фаоллаштириш вақти (мин)	Кўпикловчи реагент ПТ-2 миқдори, томчи/грамм	Флотация вақти (мин)	50 гр. графит рудасидан олинадиган графит концентрати		50 гр. графит рудасининг флотациядан кейинги қолдиғи		Флотация жараёнида графит рудасининг йўқотилиши	
						грамм	%	грамм	%	грамм	%
1	1	4/0.016	7	10/0.202	7	29.7	59.4	17.3	34.6	3.0	6.0
2	1	4/0.016	7	7/0.141	5	39.3	78.6	9.8	19.6	0.9	1.8
3	1	4/0.016	7	6/0.024	2	43.3	86.6	5.5	11.0	1.2	2.4

2-жадвал

Бойитилган графит концентратининг тажриба намуналарида углерод миқдори

№	Материалнинг номи	Углероднинг миқдори (%)
1	Бойитилмаган графит рудаси	17.1
2	1-босқич бойитишдан кейинги графит консентрати	25.0
3	1-босқичдан кейинги қолдиқ	7.3
4	2-босқич бойитишдан кейинги графит консентрати	31.0
5	2-босқичдан кейинги қолдиқ	4.0
6	3-босқич бойитишдан кейинги графит консентрати	35.1
7	3-босқичдан кейинги қолдиқ	11.3

Олинган концентратлар ҳосил бўлган майда кристалли графит миқдорининг қийматини аниқлаш учун рентгенографик таҳлилдан ўтказилди. Тадқиқот натижаси шуни кўрсатдики, олти марта бойитилган графит концентратининг углерод миқдори 96% ни ташкил қилади.

Кейинги тадқиқотлар юқори молекуляр синтетик-модификацияланган, сирт фаол моддалар гуруҳига тегишли бўлган чизиқли полимер, янги маҳаллий УГК кўпикловчи реагентини қўллашга қаратилган. Сув ва графит рудасининг турли нисбатлардаги таъсирини аниқлаш учун 1:2 нисбатидан 1:8 нисбатигача кўпикловчи моддалар билан бир қатор лаборатория синовларини ўтказдик (3-жадвал). Экспериментал йўл билан шуниси аниқландики, бўтқа ичига йиғувчи

(керосин) киритилганда ва кейин УГК кўпикловчи реагенти қўлланилган сўнг, кўпик миқдори йиғувчисиз бўлганидан кўра анча кам эканлиги аниқланди, бу ҳолда йиғувчи ўзини кўпик сўндирувчи сифатида намоён қилган. Шунга кўра, бу графит рудасини бойитиш жараёнига, хусусан, графит концентратининг чиқишига салбий таъсир кўрсатди.

3-жадвал

***Essa FTM101* флотомашинасида графит рудасини флотация қилиш жараёнига сув : руда нисбатининг таъсири**

Номланиши	Сув миқдори (л),	Графит рудаси (гр.).	УГК Флотореагент миқдори, (гр.·томчи)	Флотация вақти (мин)	Тайёр концентратсия чиқиши (гр.), (%)	Флотациядан кейинги қолдиқ (гр.), (%)
1:2						
Намуна 1-6	15	1250	0.031·22 (0.682)	80	872.7 (69.8%)	293.4 (23.5%)
1:4						
Намуна 1-5	12.5	625	0.031·20 (0.62)	60	430.2 (68.8%)	146.6 (23.4%)
1:6						
Намуна 1-3	10.2	416	0.031·16 (0.496)	36	292.13 (70.2%)	98.3 (23.6%)
1:8						
Намуна 1-3	10.2	312.5	0.031·16 (0.496)	25	212.4 (67.9%)	72.3 (23.1%)

Умуман олганда, УГК кўпикловчи реагентнинг сарфи йиғувчиларни ишлатмаган ҳолда 0,70-0,85 кг/т ни ташкил қилади, бу кимёвий реагентларга кетган харажатларни тежашга имкон беради, флотация вақтини қисқартиради, энергия ресурсларидан фойдаланиш харажатларини камайтиради ва технологик жараённи соддалаштиради.

4-жадвал

Турли флотореагентлар билан флотациянинг қиёсий якуний натижалари

Кўпикловчи номи	Кўпикловчи миқдори		КЕ йиғувчининг миқдори		Олинган графит		Қуруқ қолдиқ	
	томчи	гр.	томчи	гр.	гр.	%	гр.	%
1:6 (300 мл сув - 50 гр. руда)								
ПТ-2	10	0.202	4	0.016	29.7	59.4	17.3	34.6
1:6 (2500 мл сув - 416 гр. руда)								
УГК	8	0.496	-	-	292.13	70.2	98.3	23.6

ХУЛОСА

Замонавий физик-кимёвий, классик ва технологик таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда олиб борилган тадқиқотлар Бухоро вилояти Тасказган конининг графит рудаларидан графит концентратини олишнинг ҳақиқий имконияти мавжудлигини кўрсатди.

Тажрибалар шуни кўрсатдики, графитни одатий ишлатиладиган иккита реагент ўрнига маҳаллий ишлаб чиқарилган янги тур УГК кўпикловчи реагентни алмаштириб бойитиш усули иқтисодий самаралироқ бўлиб чиқди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Минерально-сырьевые ресурсы Узбекистана (часть 2). Т., Фан, 1977, 553 с.101-104.

2. Статья В.И. Брагина, И.И. Бакшеева «Разработка технологии обогащения графитовых руд» научно-технический журнал «Горный информационно - аналитический бюллетень»№ 9 стр.133-137 изд. ЗАО «Горная книга» М 2012 г.

3. Турсунов А.С., Адылов Дж.К., Ахмедов Р.К., Турдиалиев У.М., Черниченко Н.И., Мирзаев Б.А., “Исследования процесса флотационного обогащения графитовой руды месторождения тасказган Республики Ўзбекистан”, UNIVERSUM: технические науки, Выпуск: 10(67), 2019 г, 42-47 ст.

4. Д.К. Адылов, Р.К. Ахмедов, Н.И. Черниченко, А.С. Турсунов, Б.А. Мирзаев. Флотационное обогащение графитовой руды Тасказганского месторождения местным универсальным пенообразователем. Of the international conference on integrated innovative development of zarafshan region achievements, challenges and prospects. 2019 г, 220-227 стр.

5. Адылов Д.К., Ахмедов Р.К., Черниченко Н.И., Турсунов А.С., “Опытно – лабораторные испытания местного универсального пенообразователя при флотационном обогащении графитовых руд” // Научнотехнический и производственный журнал Горны вестник Узбекистана. - №1(80). -2020. - 84-87 с.

YUMSHOQ BUG'DOYDA DURAGAYLASH ISHLARI VA (F_1) DOMINANTLIK BELGI VA XUSUSIYATLARNING.IRSIYLANISHI НАСЛЕДОВАНИЕ ПРИЗНАКОВ И ПРИЗНАКОВ ГИБРИДИЗАЦИИ И ДОМИНАНТНОСТИ (F1) У МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ INHERITANCE OF HYBRIDIZATION AND (F1) DOMINANCE CHARACTERS AND TRAITS IN SOFT WHEAT

Хуррамов Асилбек Абдусамат ўғли
ассистент
Тошкент давлат аграр университети
Тошкент
E-mail: xurramovasilbek1@gmail.com
G'ulomova Ruxshona Muxtor qizi
Талаба
Тошкент давлат аграр университети
Тошкент
E-маил: mirshodgulomov75@gmail.com
Elmurodova Nilufar Xudoyor qizi
Талаба
Тошкент давлат аграр университети
Тошкент
E-маил: nilufarelmuratova11@gmail.com
Jo'rayeva Gulrux Abdulla qizi
Талаба
Тошкент давлат аграр университети
Тошкент
E-маил: jorayevagulruh04@gamil.com

Аннотация. Tadqiqot doirasida yumshoq bug‘doyning yangi navlarini yaratish doirasida tanlab olingan qimmatli xo‘jalik belgilariga ega turli ekologik geografik mintaqalardan keltirilgan nav va tizmalardan foydalanib, Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo filiali (Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti)da 8 ta kombinatsiyada oddiy duragaylash ishlari olib borildi.

Аннотация. Простая гибридизация в 8 комбинациях в Кашкадарьинском филиале НИИ зерновых и зернобобовых культур (ЮНИИСХ) с использованием сортов и линий из разных эколого-географических регионов с ценными хозяйственными признаками, отобранными в рамках исследований для создания новых сортов мягкой пшеницы. работы проводились.

Abstract. Simple hybridization in 8 combinations at the Kashkadarya branch of the Scientific Research Institute of Cereals and Legumes (Southern Agricultural Research Institute) using varieties and lines from different ecological geographical regions with valuable economic traits selected as part of the research to create new varieties of soft wheat works were carried out.

Калит сўзлар: Yumshoq bug‘doy, duragaylash, tizma, irsiylanish.

Ключевые слова: Мягкая пшеница, гибридизация, гребень, наследственность.

Keywords: Soft wheat, hybridization, ridge, heredity.

Kirish.

3.1-§. Yumshoq bug’doyda duragaylash ishlari va duragay ashyolarini tanlash

Tadqiqot doirasida yumshoq bug‘doyning yangi navlarini yaratish doirasida tanlab olingan qimmatli xo‘jalik belgilariga ega turli ekologik geografik mintaqalardan keltirilgan nav va tizmalardan foydalanib, Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo filiali (Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti)da 8 ta kombinatsiyada oddiy duragaylash ishlari olib borildi. Duragaylash uchun olingan navlar tashqi muhit omillariga chidamliligi, hosildorligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, don sifatining yuqoriligi kabi muhim hususiyatlarni o‘zida jamlagan shaklllardan foydalanildi.

Yumshoq bug‘doy duragaylaridan olingan donlar

№	Nomi	Chatishtirilgan boshoqlar soni,	Sana		Changchilardan tozalangan don	Hosil bo‘lgan donlar	
			Gullarni bichish	Changlatish		Dona	%
1	Pervitsa/G‘ozg‘on	3	21 apr	24.apr	60	35	58
2	Vassa/Hisorak	3	26 apr	29.apr	60	42	70
3	Lebed/Bunyodkor	3	26 apr	29.apr	60	53	88
4	Navro‘z/Kesh-2016	3	26 apr	29.apr	60	32	53
5	Koperniko/Shukrona	3	26 apr	29.apr	60	29	48
6	Bologna/G‘ozg‘on	3	3 may	06.may	60	36	60
7	Egizio/Shukrona	3	3 may	06.may	60	52	87
8	Brigada/Kesh-2016	3	29 apr	02.may	60	55	92

Olingan natijalarga ko‘ra, duragaylash natijasida olingan donlar soni 29-55 donani yoki foiz hisobida 48-92 foizni tashkil etganligi aniqlandi. Eng kam duragay donlar hosil bo‘lishi Koperniko/Shukrona duragay kombinatsiyasida kuzatilib, 29 tani yoki 48 foizni tashkil etgan bo‘lsa eng yuqori duragay don hosil bo‘lishi Brigada/Kesh-2016 duragay kombinatsiyasida 60 ta yoki 92 foizni tashkil etganligi aniqlandi.

Yumshoq bug‘doy durugaylarining F_1 avlodda ota va ona shakllarga nisbatan belgilarning irsiylanishi o‘rganildi.

1000 ta don vaznining irsiylanishi. O‘rganilayotgan 8 ta duragay kombinatsiyasining birinchi avlodida duragaylarning 1000 ta don vazni ota va ona shaklidan ustun ekanligi aniqlandi va F_1 avlodda 10 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 2 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 3 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi. 1000 ta don vazni ko‘rsatkichini yuqori bo‘lishi navlarning hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, uning yuqori bo‘lishida katta ahamiyatli hisoblanadi. Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra birinchi avlodda 1000 ta don vaznining og‘irligi 40,2-46,5 g ni tashkil etganligi qayd etildi. Vassa/Hisorak duragay avlodda 1000 ta don vazni eng past ko‘rsatkichni 40,2 g, Brigada/Kesh-2016 duragay kombinatsiyasida 1000 ta don vazni 46,5 g bo‘lib eng yuqori darajadagi geterozis kuzatildi.

Duragaylarda 1000 ta don vaznining irsiylanishi

№	Duragaylar	Ona shakl	Ota shakl	1000 ta don vazni, g	
				F_1	(hp)
1	Pervitsa/G‘ozg‘on	37,2	43,2	44,2	1,37
2	Vassa/Hisorak	40,3	43,4	40,2	-0,42
3	Lebed/Bunyodkor	37,2	44,8	44,4	0,58
4	Navro‘z/Kesh-2016	36,4	45,4	46,1	1,22
5	Koperniko/Shukrona	39,1	43,8	45,9	1,98
6	Bologna/G‘ozg‘on	40,6	43,2	45,8	2,62
7	Egizio/Shukrona	41,1	43,8	44,6	1,67
8	Brigada/Kesh-2016	42,6	45,5	46,5	1,83

Yumshoq bug‘doy duragaylarini F_2 avlodda 1000 ta don vazni irsiylanishi tahlil etilganda 3 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 3 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 2 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi. Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra ikkinchi avlodda 1000 ta don vaznining og‘irligi 39,8-45,9 g ni tashkil etganligi qayd etildi. Vassa/Hisorak duragay avlodda 1000 ta don vazni eng past ko‘rsatkichni 39,8 g, Brigada/Kesh-2016 duragay kombinatsiyasida 1000 ta don vazni 45,9 g bo‘lib eng yuqori darajadagi geterozis kuzatildi.

Belgilarni irsiylanishi ikkinchi avlodda x^2 usulida tahlil etildi va buning uchun har bir kombinatsiyada 200 tadan o‘simlik tahlil etildi. Olingan natijalarga ko‘ra, irsiylanish darajasi 3:1 nisbatda bo‘lib 1000 ta don vazni yuqori bo‘lib irsiylangan avlodlar tanlab olinib seleksiya ishlariga jalb etildi.

O‘simlik bo‘yining irsiylanishi. Kuzgi yumshoq bug‘doyning 8 ta duragay kombinatsiyasining birinchi avlodida duragaylarning o‘simlik bo‘yi ota va ona shaklidan ustun ekanligi aniqlandi va F_1 avlodda 9 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 4 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 2 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.

Duragaylarda o‘simlik bo‘yining irsiylanishi.

№	Duragaylar	Ona shakl	Ota shakl	O‘simlik bo‘yi, sm	
				F_1	(hp)
1	Pervitsa/G‘ozg‘on	93,6	110,2	112,4	1,27
2	Vassa/Hisorak	98,3	78,5	106,8	1,86
3	Lebed/Bunyodkor	94,7	105,8	109,3	1,63
4	Navro‘z/Kesh-2016	96,1	109,6	100,6	-0,33
5	Koperniko/Shukrona	93,5	103,3	108,5	2,06
6	Bologna/G‘ozg‘on	91,9	110,5	108,4	0,77
7	Egizio/Shukrona	88,7	104,6	106,5	1,24
8	Brigada/Kesh-2016	97,4	109,2	112,3	1,53

Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra birinchi avlodda o‘simlik bo‘yining uzunligi 100,6-112,5 sm ni tashkil etganligi qayd etildi. Navro‘z/Kesh-2016 duragay avlodda o‘simlik bo‘yini eng past ko‘rsatkichni 100,6 sm, Barhayot/Shams, H.Bashir/Hisorak duragay kombinatsiyasida o‘simlik bo‘yi 112,5 sm tashkil etdi.

Yumshoq bug‘doy duragaylarini F_2 avlodda o‘simlik bo‘yini irsiylanishi tahlil etilganda 6 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 7 ta kombinatsiyada qisman dominantlik, 2 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi. Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra ikkinchi avlodda o‘simlik bo‘yining uzunligi 98,3-110,6 sm ni tashkil etganligi qayd etildi. Pervitsa/G‘ozg‘on duragay avlodda o‘simlik bo‘yi eng yuqori ko‘rsatkichni 110,6 sm, Bunyodkor/Esaul Hisorak/Koperniko duragay kombinatsiyasida o‘simlik bo‘yi 98,3 sm bo‘lib eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi.

Belgilarni irsiylanishi ikkinchi avlodda x^2 usulida tahlil etildi va buning uchun har bir kombinatsiyada 200 tadan o‘simlik tahlil etildi. Olingan natijalarga ko‘ra, irsiylanish darajasi 3:1 nisbatda bo‘lib o‘simlik bo‘yi o‘rtacha bo‘lib irsiylangan avlodlar tanlab olinib seleksiya ishlariga jalb etildi.

Oqsil miqdorini irsiylanishi. Kuzgi yumshoq bug‘doyning 15 ta duragay kombinatsiyasining birinchi avlodida duragaylarning dondagi oqsil miqdorini ota va ona shaklidan ustun ekanligi aniqlandi va F_1 avlodda 7 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 5 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 3 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.

Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra birinchi avlodda dondagi oqsil miqdori 14,2-16,7 foizni tashkil etganligi qayd etildi. Koperniko/Shukrona duragay avlodda oqsil miqdori eng past ko‘rsatkichni 14,2 foiz, Omad/Bunyodkor H.Bashir/Grom duragay kombinatsiyasida oqsil miqdori 16,7 foizni tashkil etdi.

Yumshoq bug‘doy duragaylarini F_2 avlodda dondagi oqsil miqdorini irsiylanishi tahlil etilganda 5 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 5 ta kombinatsiyada qisman dominantlik, 4 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi va 1 ta duragay kombinatsiyada dominantlik kuzatilmadi. Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra ikkinchi avlodda dondagi oqsil miqdori 14,1-16,5 foizni tashkil etganligi qayd etildi. Omad/Bunyodkor H.Bashir/Grom duragay avlodda dondagi oqsil miqdori eng yuqori ko‘rsatkichni 16,5 foiz, Andijon-4/Hisorak//Zmina/Bunyodkor va Koperniko/Shukrona duragay kombinatsiyalarida oqsil miqdori 14,1 foiz bo‘lib, eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi.

Belgilarni irsiylanishi ikkinchi avlodda x^2 usulida tahlil etildi va buning uchun har bir kombinatsiyada 200 tadan o‘simlik tahlil etildi.

Duragaylarda don oqsil miqdorini irsiylanishi.

№	Duragaylar	Ona shakl	Ota shakl	Oqsil miqdori, %		
				F_1	(hp)	x^2
1	Pervitsa/G‘ozg‘on	14,1	16,3	16,5	1,18	0,9
2	Vassa/Hisorak	13,2	14,3	14,6	1,55	1,3
3	Lebed/Bunyodkor	14,3	16,4	14,3	-1,00	0,5
4	Navro‘z/Kesh-2016	15,2	14,1	15,4	1,36	0,9
5	Koperniko/Shukrona	13,4	15,8	14,2	-0,33	0,2
6	Bologna/G‘ozg‘on	15,3	16,2	16,1	0,78	1,3
7	Egizio/Shukrona	12,7	15,9	16,3	1,25	0,9
8	Brigada/Kesh-2016	14,7	14,3	15,4	4,50	0,2

Olingan natijalarga ko‘ra, irsiylanish darajasi 3:1 nisbatda bo‘lib dondagi oqsil miqdori yuqori bo‘lib irsiylangan avlodlar tanlab olinib seleksiya ishlariga jalb etildi.

Don shishasimonligini irsiylanishi. Kuzgi yumshoq bug‘doyning 8 ta duragay kombinatsiyasining birinchi avlodida duragaylarning donning shishasimonligi ota va ona shaklidan ustun ekanligi aniqlandi va F_1 avlodda 3 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 2 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 3 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.

Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra birinchi avlodda don shishasimonligi 52,5-82,5 foizni tashkil etganligi qayd etildi. Egizio/Shukrona duragay avlodda don shishasimonligi eng past ko‘rsatkichni 52,5 foiz, Shams/G‘ozg‘on Zmina/Bunyodkor duragay kombinatsiyasida don shishasimonligi eng yuqori 82,5 foizni tashkil etdi.

Yumshoq bug‘doy duragaylarini F_2 avlodda don shishasimonligini irsiylanishi tahlil etilganda 2 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 4 ta kombinatsiyada qisman dominantlik, 2 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.

Duragaylarda don shishasimonligini irsiylanishi.

№	Duragaylar	Ona shakl	Ota shakl	Don shishasimonligi, %	
				F_1	(hp)
1	Pervitsa/G‘ozg‘on	64,5	78	80,5	1,37
2	Vassa/Hisorak	56,5	36,5	58,5	1,20
3	Lebed/Bunyodkor	71,5	83,5	76	-0,25
4	Navro‘z/Kesh-2016	54	73,5	75	1,15
5	Koperniko/Shukrona	35,5	66	67,5	1,10
6	Bologna/G‘ozg‘on	40,5	76,5	75	0,92
7	Egizio/Shukrona	52,5	67,5	52,5	-1,00
8	Brigada/Kesh-2016	68	74	76,5	1,83

Duragaylar tahlili natijalariga ko‘ra ikkinchi avlodda don shishasimonligi 51,5-81,5 foizni tashkil etganligi qayd etildi. Shams/G‘ozg‘on Zmina/Bunyodkor duragay avlodda don shishasimonligi eng yuqori ko‘rsatkichni 81,5 foiz, Egizio/Shukrona duragay kombinatsiyalarida don shishasimonligi 51,5 foiz bo‘lib, eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi.

Belgilarni irsiylanishi ikkinchi avlodda x^2 usulida tahlil etildi va buning uchun har bir kombinatsiyada 200 tadan o‘simlik tahlil etildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, irsiylanish darajasi 3:1 nisbatda bo‘lib don shishasimonligi yuqori bo‘lib irsiylangan avlodlar tanlab olinib seleksiya ishlariga jalb etildi.

Xulosa qilib aytganda,duragaylarning donning shishasimonligi ota va ona shaklidan ustun ekanligi aniqlandi va F_1 avlodda 3 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 2 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 3 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.Yumshoq bug‘doy duragaylarini F_2 avlodda 1000 ta don vazni irsiylanishi tahlil etilganda 3 ta duragay kombinatsiyasida yuqori dominantlik, 3 ta kombinatsiyada qisman dominantlik va 2 ta kombinatsiyada salbiy dominantlik kuzatildi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бойсунов, Н., Хуррамов, А., Раҳматуллайев, С., & Хуррамова, Г. (2023). МАРКЕРЛАРГА АСОСЛАНГАН СЕЛЕКЦИЯ ЁРДАМИДА ТУПРОҚ ШЎРЛАНИШИГА ЧИДАМЛИ БЎЛГАН БАҲОРГИ БУҒДОЙНИНГ ЯНГИ НАВ ВА ТИЗМАЛАРИНИ ТАНЛАШ. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).

2. Бойсунов, Н., Хуррамов, А., Раҳматуллаев, С., & Уринбоева, М. (2023). ТУПРОҚ ШЎРЛАНИШИГА ЧИДАМЛИ БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ДОН СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ ЮҚОРИ БЎЛГАН НАВ ВА ТИЗМАЛАРИНИ ТАНЛАШ. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).

3. Бойсунов.Н.Б.,Хуррамов.А.А.,Рахматуллайев.С.А.,Хуррамова.Г.А. ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚЛАРДА ИШЛОВ БЕРМАСДАН ЭКИШ ВА УРУҒНИ КАПСУЛАЛАШ УСУЛЛАРИНИНГ БАҲОРГИ БУҒДОЙ БИОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ.Оъзбекистон Аграр фани хабарномаси. № 6 (12/2) 2023.278-280.

4. Boysunov, N. B., & Nurillayev, I. X. (2023). OROLBO ‘YI HUDUDINING MURAKKAB STRESS OMILLARIGA (SHO ‘RGA, QURG ‘OQCHILIKKA, KASALLIKGA) BARDOSHLI, BAHORGI BUG ‘DOYNING SERHOSIL, DONNING SIFAT KO ‘RSATKICHLARI YUQORI BO ‘LGAN NAVLARNI TANLASH VA RESURSTEJAMKOR AGROTEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 860-863.

5. Бойсунов, Н., Хуррамов, А., G'ulomova,R., & Elmurodova, N., (2023).

ЭРКИН ВОҲИДОВ ЛИРИКАСИДА ТИЛ ВА УСЛУБ МАСАЛАЛАРИ
ERKIN VOHIDOV LYRICS ISSUES OF LANGUAGE AND STYLE

Давлатжон Каримов
Фарғона давлат университети магистранти
davlatkarimov1991@gmail.com

Аннотация: Эркин Воҳидов шеърияти тадқиқ қилинади. Ижодкор услуби ва унинг ўзбек адабиётига қўшган ҳиссаси ўрганилади. Ижодкор лобараторияси ва у ўзбек адабиётига олиб кирган янги сўзлар ва уларнинг экприссив бўёқдорлиги текширилади.

Abstract: The poetry of Erkin Vahidov is studied. The author's style and his contribution to Uzbek literature are studied. The creator's laboratory and the new words he brought to Uzbek literature and their expressive coloring are examined.

Аннотация: Изучается поэзия Эркина Вахидова. Изучается стиль автора и его вклад в узбекскую литературу. Рассмотрена лаборатория творца, новые слова, которые он привнес в узбекскую литературу, их выразительная окраска.

Таянч сўз ва иборалар: Эркин Воҳидов шеърияти, сўз ўйини, истеъдод, маҳорат, янги сўзлар, Эркин Воҳидов услуби, ижодкор лабораторияси, экспрессив бўёқдорлик.

Basic words and phrases: Erkin Vohidov's poetry, word play, talent, skill, new words, Erkin Vohidov's style, creative laboratory, expressive painting.

Основные слова и фразы: поэзия Эркина Вохидова, игра слов, талант, мастерство, новые слова, стиль Эркина Вохидова, творческая лаборатория, экспрессивная живопись.

Менга Пушкин бир жаҳону
Менга Байрон бир жаҳон,
Лек Навоийдек бобом бор,
Кўксим осмон, ўзбегим [1.].

Ҳар бир ўзбек ушбу жумлаларни ўқиганида юраги чексиз фахр ва ифтихорга тўлади. Мен ҳам ҳар сафар бу шеърни такрорлаганимда Навоийга бўлган катта эҳтиром Эркин Воҳидовга бўлган эҳтиром билан уйғунлашиб кетади. Назаримда Навоийга замондошларимиздан ҳеч ким бунчалик гўзал ва юксак баҳо бера олган бўлса керак. Ҳайратланаман... Эркин Воҳидовнинг ажойиб сўз ўйинидан ҳайратланаман. Пушкин ва Байронни ҳурматини жойига қўйиб, Навоийни улуғлаш фақат Эркин Воҳидовнинг қўлидан келади, менимча. Бунинг учун ижодкор катта истеъдод ва маҳорат соҳиби бўлиш билан бирга баланд ақл ва чинакам инсоний маданият эгаси бўлиши ҳам лозим. Мазкур шеърдаги каби

жасорат ва латофат шоирнинг барча шеърларида акс этади. Хусусан, “Уятчанглар”, “Дангсалар”, “Замонавий шум бола”, “Мажлис қилинг” сингари ўткир сатирик шеърларда бу ҳолат яққал сезилади.

Эркин Воҳидовнинг мероси мана шундай латофатли шеърлар билан бирга латофатли сўз бойлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Албатта, Гёте ва Есенинни ўзбекча гапиртирган ижодкор жуда катта сўз бойлигига эга бўлиши талаб этилади. Ижодкор атоқли шоир, шу билан бирга заррабин олим ҳам эди. Унинг шеърларини синчиклаб ўқиган инсон шоирнинг араб, форс, рус ва ҳатто инглиз тилини ҳам мукаммал билганини ҳис қилади. Бирорта сўз йўққи, ноўрин ишлатилган бўлсин. “Сўз латофати” асари ҳам узоқ йиллик кузуатиш ва тажрибанинг самараси ўлароқ дунёга келгани шубҳасиз. Шу билан бирга Эркин Воҳидов ўзбек тилига янги сўзлар олиб кирган ижодкор сифатида ҳам алоҳида ҳурматга лойиқ.

“Тилни бойитиш кенг халқ оммасидан ташббускорликни, олиму мутахассислардан ижодкорликни, янги сўзни ҳаётга киритувчи мутасаддилардан хайрихоҳликни, ўзбекчалаштиришга бўлган қатъий иродани талаб этадиган катта ***Ватаний*** ишдир”- дейди шоир “Сўз латофати” асарида[4]. Ватаний сўзига эътибор беринг. Нима учун шоир Ватанпарвар ишдир эмас, ватаний ишдир демоқда. Назаримда, шоирга ватанпарвар сўзи жуда кўп ишлатилган ва оҳори тўкилган сўздек туюлган бўлса керак. Чиндан ҳам, сўз қанчлар кўркам бўлмасин, кўп ва ноўрин ишлатилаверса, сийқаси чиққан тангадек ўз қийматини йўқотади. Афсуски, бугун Ватанпарвар сўзининг бошига ҳам шу кулфат тушган. Шоир шарти кетиб, парти қолган сўзнинг ўрнига янги, салмоқдор сўзни қўллайди ва ўзбек тилининг ёш сўз билан бойишига ўз ҳиссасини қўшади.

Худди шу асарда “зангин” сўзи ҳам учрайди: “Аслиятга қайтишнинг кўламли жараёнида ***зангин*** ва рангин она тилимиз фаол иштирок эатётганидан қувондим”[4]. Синчи шоир рангин сўзининг ранг-баранг маънолари ҳақида ўз асарида батафсил маълумот беради. Мен ҳозир зангин сўзига тўхталмоқчиман. Зангин сўзининг асоси занг бўлиб, “жаранг”, “қўнғироқ” маэноларини англатади. Аниқроқ айтадиган бўлсак, жаранглаб турган овоз занг дейилади. Бунга мисол қилиб ҳамма яхши биладиган мактаб қўнғироғининг овозини келтришимиз мумкин. Ижодкор зангин сўзини қўллаш орқали ўзбек тили дунё тиллари ичида ҳамон қўнғироқдек жаранглаб турибди, демоқда. Буни номини камтарона фахр дейилади. Қадимда ҳатто шунда й сўз ўйинига қурилган фахрия деган бадиий санъат тури бўлган. Шу чоғда Алишер Навоийнинг қуйидаги мисралари ёдимга тушди:

Олибман ҳукму фармонимга осон,
Черик чекмай Хитодан то Хуросон.

Эркин Воҳидов “Абдулла Қаҳҳор мактаби” вакилларидан бири бўлган. Абдулла Қаҳҳор ёш шоирни қаттиқ ҳурмат қилган, унга тўғри йўл кўрсатган. Шогирдини рағбатлантириш мақсадида ҳатто бир неча ҳикояларига ёш шоир шеърларини эпиграф қилиб олади. Эркин Воҳидов устозини ҳамиша катта эҳтиром билан эслайди. Мана, шоирнинг шундай хотираларидан бири: “Абдулла Қаҳҳор билан Кибриё Қаҳҳоровнинг турмуши оддий эр-хотинлик муноабатидан юксакроқ эди. Кўнгил яқинлиги, ижодий ҳамкорлик ўз йўлига. Икки сўз устасининг суҳбатлари лутфга, ***тутилмаган*** гапларга, гўзал қочиримларга бой бўларди”[4]. Тутилмаган сўзини эшитиб, хаёлинизга кутилмаган сўзи келиши табиий. Лекин кутилмаган сўзи энди кутилмаган сўз эмас. Абдулла Қодирий асарида кутилмаган сўзи кутилмаган бахт олиб келгандир, лекин Эркин Воҳидовгача у ўзингинг сиёҳини анча йўқотди. Шунинг учун ижодкор кутилмаган тутилмаган сўзини ишлатади ва бизни яна бир бор тутилтириб қўяди. Русча “свежий” сўзини таржима қилинганда, ўзбекчада бир қанча маъноларни англатади. Тутилмаган сўзи ҳам Эркин Воҳидовнинг мана шундай свежий сўзи ҳисобланади. Ҳар ким бу матнни ўқиб, ўзича тушунади, завқланади.

Кимнидир севсанг, ундаги ёмон иллатлар ҳам фазилатдек туюлади. Аниқроғи, иллатини ҳам фазилатини севгандек севасан. Эркин Воҳидов ҳам ўзбек халқини жону дили билан севган. Севганда ҳам, барча улуғворлигию нуқсони билан севган. Бу нодонлик эмас. Бу самимий қалбнинг самимий севгиси дейилади. Шоир ўзбек халқини япон халқи билан қиёслар экан, ўзбекларнинг камчилигини гўё фазилат сифатида тилга олади: “Японлар рангларга жуда эътиборли. Бизнинг ҳам улардан кам жойимиз йўқ. Юртимиз уларнинг юртидан ўн ҳисса рангинроқ, шеъриятмиз ўн карра бойроқ. Элимизга ўн баробар кўп неъмат ато этган Тангримиз япондаги ҳафсала ва ***уринчоқлик***нинг ўндан бирини бизга берса эди...”[4]

Юқоридаги матнда уринчоқ сўзи шижоат сўзининг маънодоши ҳисобланади. Лекин шижоат сўзи ўзлашма сўз, бунинг устига мазкур гапда хақоратомиз маъно касб этиб қолиши мумкин. Шунинг учун сўз синчиси бўлган Эркин Воҳидов соф ўзбекча шаклни топади, аниқроғи, ўзбек тилини янги сўз билан бойитади. Уринчоқ сўзи ўзида эркалаш, суйиш маъноларини ҳам ифодалаётганини сезган бўлсангиз керак. Бу каби ёқимли танқид қилиш ҳалқини эркалаб суядиган Эркин Воҳидовнинггина қўлидан келади.

Ҳазрат Алишер Навоий ўз асарида инсоннинг ҳайвондан фарқи имон эканини айтади:

Кимки жаҳон аҳлида инсон эрур,
Билки, нишони анга иймон эрур[8].

Чиндан ҳам, инсоннинг қиймати унинг имони билан белгаланади. Иккки инсонннинг бир бирига бўлаган муносабатида ҳам уларнинг нақадар имонли ёки имонсиз эканлиги ётади. Муқаддас китоб Қуръони каримда ҳам имонли инсонлар бирига биордар каби эканлиги таъкидланади. Эркин Воҳидов ҳам Алишер Новоий ижодидан, Қуръони каримдан жуда яхши хабардор бўлган, албатта. Йўқса, “Тожик биродаримга”(эътибор беринг, биродаримга дейиляпти, укамга ёки акамга эмас) қуйидаги мисраларни ёзмаган бўларди:

Биз икки ёндош элга,
Қариндош, қондош элга.
Жондош, ***имондош*** элга,
Фарзанд бўламиз, дўстим[3].

Имондош – бу топилдиқ. Дарвоқе, топилдиқ сўзининг ўзи ҳам Эркин Воҳидовнинг топилдиғи ҳисобланади. Диндош сўзи бор эди. Лекин имондош сўзига биринчи марта дуч келишим. Нега шоир имондош сўзини танлади. Чунки инсоннинг имондан устун нарсаси йўқ. Имон ҳатто жондан ҳам муқаддас. Ёндош, қариндош, қондош, жондош, имондош сўзларида даражанинг борган сари юқорилаб бораётганини ҳис қиласиз. Биродар тожик халқи билан ўзбек халқи узоқ асрлардан буён ёнма-ён, жонга-жон юўлиб яшаб келмоқда. Гарчи бошқа тил ва бошқа миллат бўлса-да, бу икки халқ эт ва тирноқ каби бири-бирига яқин эканини шоир биргина имондош сўзи билан ифодалаб беради. -дош қўшимчасига ҳам шу ерда изоҳ бериб кетсам, мақсадга мувофиқ бўлади. Қўшимчалар ҳам худди инсонлар каби ижобий ва салбий характерга эга бўлади. Бу ҳолат тилшуносликда эмоционал-эксприссив бўёқдорлик дейилади. Масалан, -параст(мансабпараст), -каш(пасткаш), -боз(хотинбоз) сингари салбий, -ли(гулли), -чан(яшовчан), -дон(билимдон) сингари ижобий қшимчаларни келтиришимиз мумкин. -дош қўшимчаси эса ҳамиша сўзларга қўшилиб, ижобий сўзлар ҳосил қилади. Ватандош, дилдош, юракдош, орқадош... Эркин Воҳидов буни чуқур англаган ҳолда имон сўзига -дош қўшимчасини қўшиб, ўзбек тили лексикасига янги сўз олиб киради.

Эркин Воҳидов Фарғонада туғилган. Фарғона эса аския ватани ҳисобланади. Ижодкор шеэрларида фарғонача аскияни, сўз ўйинларини исталганча топишимиз мумкин. Синчков китобхон ҳам англолмайдиган айрим сўз ўйинлари борки, уларни англаш учун ўқирмандан жуда катта закийлик, адабий дид талаб этилади.

Тоҳирни ҳалитдан тинч қўймас қизлар,
Ярим тунда қайтар уйга ҳамиша,
“Унча бўлмасак ҳам илмда бизлар,
Аммо кучли эди одоб, андиша.
Бировнинг қизига сал қараб қўйсак,

Бизлар аталардик шўху бебошлар.
Баъзи киноларми бузмоқда андак,
Капалакмижозроқ ҳозирги ёшлар...”[2]

Латофатли сўз соҳиби Эркин Воҳидов энг қўпол сўз ўрнига ҳам энг юмшоқ сўз топа олади. Бу ҳолат шеърнинг оҳангдорлигига ҳам, маъносига ҳам путур етказмайди. Аксинча, бадиийликни, таъсирчанликни оширишга чексиз хизмат қилади. Ижоодкор шу даражада ички маданият соҳибики, капалакмижоз сўзи ҳам унга оғир сўз бўлиб туюлади ва уни енгиллаштиради: капалакмижозроқ! Ҳа, бу фарғоналикларга хос айтмасдан айтиш, сўкмасдан сўкиш дейилади. Бундай шеърни фақат Фарғонада туғилган ижодкоргина ёза олади, десам муболаға ҳам, мақтанчоқлик ҳам бўлмаса керак.

Эркин Воҳидов шоир сифатидаги миссиясини юракдан англаган эди. Бошқа шоирларга ҳам шундай юксак талаб қўйгани аниқ. Шоир шоирлик номига доғ тушуриб юрган кимсаларни шоир дейишга тили бормайди. Адабиётга хиёнат қилган, шеъриятни сотган сўзфурушларни ижодкор ***шеърбоз, байтёзар, шеърпараст*** номлари билан атайди. Бу сўзлар гўё шарафсиз, иснодсиз сўзларининг маънодоши янглиғ янграйди. “Нўноқ шоирлар” шеърида бундай шоирларни енгил кулги остига олади:

Биз бир замон муҳаррир бўлдик,
Қисмат экан, бўлдик ноширлар.
Ўлсак ёмон шеърлардан ўлдик,
Адо қилди нўноқ шоирлар.
Қўлёзмалар ўқирдик дил ғаш,
Кўргуликдан оғлар урардик.
Сўзи чалкаш,
Ўзи жанжалкаш
Шеърбозлардан қочиб юрардик[4].

Буюк адиб айрим истелоҳлар ўрнига янги сўзларни муомалага киритади. Масалан, календар сўзи ўрнига ***йилойкун***, иероглиф ўрнига ***тасвирхат*** сўзларини ишлатади. Бу ҳам ижодкорнинг ўзбек адабий тилига қўшган улкан ҳиссаси ҳисобланади. Буларнинг барини умумлаштириб эркинона латофат, воҳидовча маҳорат, десак тўғри бўлади.

Юқорида мен келтирган мисоллар менинг кичик изланишларим, холос. Бундай сўзларни – топилдиқларни шоир ижодидан яна ўнлаб, юзлаб топишимиз мумкин. Худо насиб этса, яна бу изланишларни давом эттирамиз. Мақолани устоз Эркин Воҳидовнинг қуйидаги сўзлари билан тамомлашни хоҳладим: *“Биз илму ижод аҳли қанча талашиб тортишмайлик, бир фикрда ҳаммамиз якдилмиз: тил ёлғиз мутахасисларнинг мулки, хатлаб берилган ери эмас. Уни бойитиш, гўзал қилиш, хас-хашаклардан тозалаб бориш – умумхалқ ишидир.”*

Адабиётлар рўйхати :

1. Эркин Воҳидов. “Баҳор таровати”. -Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2015.
2. Эркин Воҳидов. “Ёз ҳарорати”. -Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2015.
3. Эркин Воҳидов. “Куз саховати”. -Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2015.
4. Эркин Воҳидов. “Қиш ҳаловати”. -Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2015.
5. “Шарқ мумтоз поэтикаси”. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005.
6. “Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати”. - Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1974.
7. А. Ғуломов, А. Тихонов, Р. Қўнғуров. “Ўзбек тили морфем луғати”. - Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1977.
8. Алишер Навоий. “Маҳбуб ул-қулуб”. -Янги аср авлоди, 2015.

РЕСУРС ТЕЖАМКОР УСУЛДА ЕТИШТИРИШДА БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИ РИВОЖЛАНИШ ФАЗАЛАРИНИНГ ЎТИШ ЖАДАЛЛИГИ
СКОРОСТЬ ПЕРЕХОДА ФАЗ РАЗВИТИЯ ЯРОВОЙ МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ В РЕСУРСНО-ЭФФЕКТИВНОМ ВЫРАЩИВАНИИ.
SPEED OF TRANSITION OF DEVELOPMENT PHASES OF SPRING COMMON WHEAT IN RESOURCE-EFFICIENT GROWING

Бойсунов Нурзод Бекмуродович
к/х.ф.ф.д.
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти,
Қашқадарё вилояти, Қарши шахри,
E-mail: nurzod.bosunov@mail.ru
Хуррамов Асилбек Абдусамат ўғли
Тошкент давлат аграр университети ассистенти
xurramovasilbek1@gmail.com
Ғуломова Рухшона Мухтор қизи
Тошкент давлат аграр университети талабаси
Е-маил: mirshodgulomov75@gmail.com
Елмуродова Нилуфар Худойор қизи
Тошкент давлат аграр университети талабаси
Е-маил: nilufarelmuratova11@gmail.com

Аннотация. Тадқиқотлар Қорақолроғистон Республикаси Нукус тумани “Шуртанбой” МФЙ Дон ва шоли илмий ишлаб чиқариш бирлашмасини тажриба майдонида амалга оширилди. Бунда, ресупстежамкор тупроққа ҳайдамасдан ишлов бериш “Но тилл” усулида ва ананавий усулда баҳорги юмшоқ буғдойнинг Жануб Гавхари, Парвоз ва Навруз навлари уруғлари капсулалаш усулларидан фойдаланган ҳолда 12 та варианда 3 қайтариқда тажрибалар амалга оширилди.

Аннотация. Исследования проводились на опытном поле МФУ зерново-рисового научно-производственного объединения «Шуртанбой» Нукусского района Республики Каракалпакстан. Опыты проведены в 12 вариантах с 3-мя возвратами с использованием нулевой обработки почвы на ресупрессивной почве и традиционных способов капсулирования семян сортов яровой мягкой пшеницы Джануб Гавхари, Парвоз и Навруз.

Abstract. The researches were carried out at the experimental field of the "Shurtanboy" MFY grain and rice scientific production association, Nukus district of the Republic of Karakalpakstan. In this case, experiments were carried out in 12 variants with 3 returns using no-till cultivation on resuppressive soil using the "No till"

method and the traditional method of encapsulating seeds of Janub Gavkhari, Parvoz and Navruz varieties of spring soft wheat.

Калит сўзлар: юмшоқ буғдой, селекция, танлаш, нав, тизма, Орол.
Ключевые слова: мягкая пшеница, селекция, отбор, сорт, образец, Арал.
Keywords: soft wheat, selection, choice, variety, ridge, Арал.

Кириш. Дунё қишлоқ хўжалигида буғдой энг муҳим бошоқли дон экинларидан бири ҳисобланиб, жами қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган экин майдонларининг 17 фоизини эгаллайди ва ҳар йили 750 миллион тонна атрофида дон ҳосили етиштирилади. Дунё миқёсида жами 240,8 млн гектарга буғдой экилиб, яқин йилларда буғдой донига бўлган талаб янада ортиб бориши башорат қилинмоқда .

Орол денгизининг қуриши натижасида марказий осиё давлатларида хусусан Ўзбекистонда глобал муаммолар келтириб чиқармоқда. Ҳозирги кунда Оролбўйи ҳудудида юзага келаётган мураккаб стресс омиллар инсонлар, ўсимлик ва ҳайвонларга салбий таъсир кўрсатмоқда.

Бундан ташқари Орол бўйи минтақасининг катталиги ва асосий қисми Қорақалпоғистон республикасига тўғри келади .

Ушбу минтақадаги жами суғориладиган қишлоқ хўжалиги ер майдонларининг 65,4 фоизи гумус билан кам таъминланган гуруҳга киради ва олинадиган буғдой ҳосилдорлиги ўртача 18-20 ц/га ни ташкил қилади. Ушбу муаммоларни ҳал қилиш мақсадида дала тажрибалари амалга оширилди. Тадқиқотлар Қорақолроғистон Республикаси Нукус тумани “Шуртанбой” МФЙ Дон ва шоли илмий ишлаб чиқариш бирлашмасини тажриба майдонида амалга оширилди. Бунда, ресупстежамкор тупроққа ҳайдамасдан ишлов бериш “Но тилл” усулида ва ананавий усулда баҳорги юмшоқ буғдойнинг Жануб Гавхари, Парвоз ва Навруз навлари уруғлари капсулалаш усулларидан фойдаланган ҳолда 12 та варианда 3 қайтариқда тажрибалар амалга оширилди.

Ҳозирги даврда янги адабиётларни таҳлили шуни кўрсатадики, баҳорги буғдойдан суғориладиган ерларда мўл ва сифатли ҳосил етиштиришда маълум шароитда ўсимликни максимал маҳсулдорлигини юзага чикариш учун илмий асосланган етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жорий этиш муҳим ҳисобланади.

Суғориладиган ерларда баҳорги буғдойни ресурстежамкор усулда экиш, озиқлантириш усуллари ҳамда меъёрларини оптималлаштириш йўли билан энг юқори ҳосилни шакллантириш учун ташқи муҳит омилларидан самарали фойдалана оладиган экинзор структурасини яратиш, маълум бирликдаги майдонда оптимал миқдордаги маҳсулдор поялар сонини ҳосил қилиш, ҳосил бўлган агроценозни бошқариш сингари ишлар амалга оширилади.

Айниқса баҳорги буғдой етиштиришда экиш билан боғлиқ сарф-харажатларни иқтисод қилиш, тупроқ муҳитини созлаш асосида илдиздан ташқари ва илдиз орқали озиқлантириш усуллари, муддатлари, меъёрларини оптималлаштириш муҳим назарий ва амалий аҳмиятга эга.

Ҳозирги кунда ресурслар (ёқилғи мойлаш, ер-сув, минерал ўғитлар)нинг чекланганлиги боис ресурстежамкор усулларда илғор ғалла етиштириш агротехнологияларини илмий асослаш ўта муҳим тадбир ҳисобланади.

Барча қишлоқ хўжалиги экинлари биологик хусусиятларидан келиб чиқиб, босқичма-босқич тупроқ-иқлим шароитларига уйғунлашган ҳолда ривожланиш босқичларини ўтаб боради. Буғдой навларига қараб ўсиши ва ривожланиши бўйича қуйидаги босқичларни босиб ўтади: униб чиқиш, туплаш, найчалаш, бошоқлаш, гуллаш ва пишиш фазаларидир. Баҳорги буғдой экинларини етиштиришдан асосий мақсад уларни юқори ва сифатли дон ҳосил қилиш имкониятларини ошириш. Бунинг учун эса албатта экиннинг ривожланиш босқичларини эртароқ бошланишига эришиш талаб этилади.

Тадқиқотларимизда ўрганилаётган буғдой навларини етиштириш биологик хусусиятлари бўйича турли гуруҳларга бўлинади. Бунда Жануб Гавхари, Навруз ва Нарвоз навлари гуруҳига мансуб бўлсада, қурғоқчилик ва исиқликка чидамли гуруҳларига киради.

Баҳорги буғдой уруғларнинг экиш-униб чиқиш даври, ривожланиш фазаларининг давомийлиги жуда кўп омилларга ҳарорат, намлик, ёруғлик, озиқа моддалар билан таминланиши, навнинг биологик хусусиятлари, агротехник тадбирларга боғлиқ ҳолда ўзгаради. Олимлар А.И.Носатовский, Р.А.Удачин, Ғ.Қ.Қурбоновларнинг кўрсатишича, ўсимлик вегетатсия даврининг узунлиги ташқи муҳитнинг турли омиллари таъсирига боғлиқ.

Экиш ва униб чиқиш. Тупроқ ҳарорати қанчалик паст бўлса, униб чиқиш учун шунча кўп кун талаб қилади. Уруғлар тўлиқ ва ёппасига униб чиқиши учун энг мақбул ҳарорат 12-20 ^{o}C бўлиб, одатда ниҳолнинг ер юзига ёриб чиқиши учун ўртача кунлик ҳарорат йиғиндиси 120 ^{o}C атрофида бўлиши лозим. Бу давр ҳароратга боғлиқ ҳолда 7 кундан 70 кунгача ўзгаради. Бунда тупроқ намлигининг ҳам таъсири катта. Буғдой дони нав ва муҳитга боғлиқ ҳолда ўз вазнига нисбатан 45-56 % сув шимгандан сўнг уна бошлайди. Тупроқдаги намлик тупроқ нам сиғимининг 60 % дан 90 % гача кўтарилиши уруғни унишини тезлаштиради, 60% дан паст бўлиши эса секинлаштиради [153; 404-б].

Тадқиқотлар Қорақолроғистон Республикаси Нукус тумани “Шуртанбой” МФЙ Дон ва шоли илмий ишлаб чиқариш бирлашмасини тажриба майдонида амалга оширилди. Бунда, ресупстежамкор тупроққа ҳайдамасдан ишлов бериш “Но тилл” усулида ва ананавий усулда баҳорги юмшоқ буғдойнинг Жануб

Гавхари, Парвоз ва Навруз навлари уруғлари капсулалаш усулларидан фойдаланган ҳолда 12 та вариантда 3 қайтариқда тажрибалар амалга оширилди.

Баҳорги буғдой ривожланиш фазалари ва ўсув даврининг давомийлиги назорат (ананавий экиш) вариантда экилган барча навларда 11 апрел санасида униб чиқди, туплаш фазасига ўтиш даври барча навларда бир вақтда 29 апрел санасида содир бўлганлиги қайд етилди. Назорат вариантда Жануб Гавхари нави 10 май санасида найчалаш даврига ўтган бўлса, Парвоз нави 8 май санасида, Навруз нави 9 май санасида найчалаш даврига ўтганлиги аниқланди. Бошоқлаш фазасига ўтиши кичик фарқ билан барча навлар 25-24 май санасида ўтган бўлса, тўлиқ пишиш 24-25 ийин санасида содир бўлди ва назорат вариантидаги барча навларда вегетатсия даври 74-75 кунни ташкил қилди.

Ананавий уруғ экиш + уруғни капсулалаш вариантида экилган Жануб Гавхари 11 апрел санасида уруғлари униб чиққан бўлса, Наврўз ва Парвоз навлари 12 апрел санасида уруғлари униб чиқди. Туплаш фазасига ўтиш даври барча навларда бир вақтда 29 апрел санасида содир бўлганлиги қайд етилди. Ананавий уруғ экиш + уруғни капсулалаш вариантида экилган Жануб Гавхари нави 10 май санасида найчалаш даврига ўтган бўлса, Парвоз нави 9 май санасида, Навруз нави 8 май санасида найчалаш даврига ўтганлиги аниқланди. Бошоқлаш фазасига ўтиши кичик фарқ билан барча навлар 25-24 май санасида ўтган бўлса, тўлиқ пишиш 24-25 ийин санасида содир бўлди ва Ананавий уруғ экиш + уруғни капсулалаш вариантида экилган вариантидаги Жануб Гавхари нави вегетатсия даври 75 кунни ташкил қилди. Навруз нави вегетатсия даври 74 кунни ташкил қилди. Парвоз нави вегетатсия даври 73 кунни ташкил қилди.

Буғдой ривожланиш фазалари ва ўсув даврининг давомийлиги ҳйдамасдан уруғ экиш вариантда экилган Навруз ва Парвоз навларда 12 апрел санасида униб чиқди, ҳйдамасдан уруғ экиш вариантда туплаш фазасига ўтиш даври барча навларда бир вақтда 29 апрел санасида содир бўлганлиги қайд етилди. **ҳайдамасдан уруғ экиш** вариантда Жануб Гавхари нави 10 май санасида найчалаш даврига ўтган бўлса, Навруз нави 9 май санасида, Парвоз нави 8 май санасида найчалаш даврига ўтганлиги аниқланди. Бошоқлаш фазасига ўтиши барча навлар 25-24 май санасида ўтган бўлса, тўлиқ пишиш 24-25 ийин санасида содир бўлди ва ҳйдамасдан уруғ экиш вариантда барча навларда вегетатсия даври 73 кунни ташкил қилди


4.3.1-жадвал

Баҳорги буғдой ривожланиш фазалари ва ўсув даврининг давомийлиги, (2023 й)

уруғ экиш усули	Нав номи	Униб чиқиш, сана	Туплаш, сана	Найчалаш, сана	Бошоқлаш, сана	Тўлиқ пишиш, сана	вегетатсия даври, кун
Назорат (ананавий экиш)	Жануб Гавхари	11.апр	29.апр	10.май	25.май	25.июн	75
	Навруз	11.апр	29.апр	09.май	24.май	25.июн	75
	Парвоз	11.апр	29.апр	08.май	24.май	24.июн	74
Ананавий уруғ экиш + уруғни капсулалаш	Жануб Гавхари	11.апр	29.апр	10.май	25.май	25.июн	75
	Навруз	12.апр	29.апр	09.май	24.май	25.июн	74
	Парвоз	12.апр	29.апр	08.май	24.май	24.июн	73
Ҳйдамасдан уруғ экиш	Жануб Гавхари	13.апр	29.апр	10.май	25.май	25.июн	73
	Навруз	13.апр	29.апр	09.май	24.май	25.июн	73
	Парвоз	12.апр	29.апр	08.май	24.май	24.июн	73
Ҳайдамасдан уруғ экиш + уруғни капсулалаш	Жануб Гавхари	10.апр	29.апр	10.май	25.май	25.июн	76
	Навруз	10.апр	29.апр	09.май	24.май	25.июн	76
	Парвоз	10.апр	29.апр	08.май	24.май	24.июн	75

Ҳайдамасдан уруғ экиш + уруғни капсулалаш вариантидаги ўсимликлар бошқа вариантдаги навларга нисбатан вегетатсия даври узайганлиги аниқланди бунда, Жануб Гавхари 76 кун, Навруз 76 кун, Парвоз 75 куни ташкил қалди (4.3.1-расм).

4.3.1-расм. Уруғ экиш усулларининг вегетация даврига таъсири.



Хулоса қилиб айтганда буғдой ривожланиш фазалари ва ўсув давринг давомийлиги ҳайдамасдан уруғ экиш вариантда экилган Навруз ва Парвоз навларда 12 апрел санасида униб чиқди, ҳайдамасдан уруғ экиш вариантда тўплаш фазасига ўтиш даври барча навларда бир вақтда 29 апрел санасида содир бўлганлиги қайд этилди.

Адабиётлар:

1. Бойсунов, Н., Хуррамов, А., Раҳматуллайев, С., & Хуррамова, Г. (2023). МАРКЕРЛАРГА АСОСЛАНГАН СЕЛЕКЦИЯ ЁРДАМИДА ТУПРОҚ ШЎРЛАНИШИГА ЧИДАМЛИ БЎЛГАН БАҲОРГИ БУҒДОЙНИНГ ЯНГИ НАВ ВА ТИЗМАЛАРИНИ ТАНЛАШ. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).

2. Бойсунов, Н., Хуррамов, А., Раҳматуллаев, С., & Уринбоева, М. (2023). ТУПРОҚ ШЎРЛАНИШИГА ЧИДАМЛИ БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ДОН СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ ЮҚОРИ БЎЛГАН НАВ ВА ТИЗМАЛАРИНИ ТАНЛАШ. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).

3. Бойсунов.Н.Б.,Хуррамов.А.А.,Рахматуллайев.С.А.,Хуррамова.Г.А. ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚЛАРДА ИШЛОВ БЕРМАСДАН ЭКИШ ВА УРУҒНИ КАПСУЛАЛАШ УСУЛЛАРИНИНГ БАҲОРГИ БУҒДОЙ БИОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ.Оъзбекистон Аграр фани хабарномаси. № 6 (12/2) 2023.278-280.

4. Boysunov N. B., Nurillayev I. X. OROLBO‘YI HUDUDINING MURAKKAB STRESS OMILLARIGA (SHO‘RGA, QURG‘OQCHILIKKA, KASALLIKGA) BARDOSHLI, BAHORGI BUG‘DOYNING SERHOSIL, DONNING SIFAT KO‘RSATKICHLARI YUQORI BO ‘LGAN NAVLARNI TANLASH VA RESURSTEJAMKOR AGROTEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 860-863.

ABDULLA ORIPOV - TABIAT MUSAVVIRI

Xolyorov Mirzabek Baxtiyor o‘g‘li
Qarshi Xalqaro Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
assistent o‘qituvchisi
mirzabekxolyorov85@gmail.com

Annotatsiya: Abdulla Oripov she’riyatini kelajak avlodlarga o‘tishi hamda o‘zbek adabiyotida shoirning ijodini o‘rgatish ta’limda alohida o‘rin egallaydi.Ayniqsa,zamonaviy o‘zbek adabiyotida A.Oripov she’rlarini o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan foydalanish, ularda she’riyatdan zavqlanish tuyg’ularini va shu tuyg’u ta’sirida ularda badiiyatdan zavqlanishni kamol toptirish, tabiat go‘zalligini she’riyatdagi ifodasini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov , she’riyat, shoir , peyzaj, peyzaj lirikasi, tabiat , tasvir, lirik asar, jonlantirish.

Adabiyot bo‘stoniga qadam qo‘ygan, qo‘liga qalam tutib, qalbidagi barcha tuyg‘ularini go‘zal va ta’sirchan tarzda kitobxonlarga yetkazib berishni istagan yozuvchi bo‘ladimi, shoir bo‘ladimi, u albatta, o‘zini voyaga yetkazgan xalqining dardini, tashvishini va quvonchini olib chiqadi. Qo‘yib beringki, shu dardlar va quvonchlar bilan birgalikda ulg‘ayadi. Bizning Vatanimiz ham, adabiyotimiz ham bunday insonlarga bag‘ri to‘la. Xususan, O‘zbek xalqi azaldan shoirtabiat xalq, uning tuprog‘idan tortib yaprog‘igacha shoirdir.Shuning uchun ham u farzandlariga she’riyat kabi teran, she’riyat kabi serm’ano, bir-biriga uyqash ismlar qo‘yadi. U to‘y qilsa, shodliklarini she’rga solib “yor-yor”aytadi. Hattoki azada ham hasratlarini she’rga aylantirib buzadi. Xalqimizning chinakam shoir va yozuvchi farzandlaridan biri esa barchaning sevimli shoiri Abdulla Oripovdir. “Shoir umuminsoniy dardni shaxsiy darddek qabul qilishi yoki shaxsiy dardini umuminsoniy dard darajasiga ko‘tarishi lozim”, - deb yozgan edi Abdulla Oripov..“Abdulla qaysi bir qo‘l urmasin, nima haqda she’r yozmasin, uning ko‘zi oldida Ulug‘ Vatan turadi, o‘sha ulug‘ Vatanning farzandi sifatida qo‘liga qalam oladi.Shu sababdan uning she’rlari doim hayotbaxsh, ovozi dadil ruhi tetik”-deb yozadi Matyoqub Qo‘shjonov.

Shoir she’rlarini mutolaa qilish jarayonida esa, u o‘z so‘zining ustidan chiqqanligiga guvoh bo‘lamiz. Abdulla Oripovning she’riyati - adabiyotning katta bayrami" deb yozganda naqadar haq edi bolqar shoiri Qaysin Quliyev.

Abdulla Oripov haqiqatdan ham yurtning hurmat va e’tiboriga erishgan shoir edi. Aynan shu sababdan uning she’rlari nafaqat ma’naviy boyligimizga, balki xalqimizning ruhiga aylangan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Oripov shunday yetuk bir so‘z san’atkorlaridan biri ediki, uning she’rlarini mutolaa qilgan har

bir inson o‘zi anglamagan holda shoirning dunyosiga qadam qo‘yar va barchasini his qilib, go‘yoki ushlab ko‘rar edi. Shoirning shunday misralari borki, ular qalamda yozilganga emas, balki mo‘yqalamda ijod etilganga o‘xshaydi. Rassom manzarani chizadi, shoir esa tasvirlaydi. Ammo Abdulla Oripov she’rda qalam bilan rangtasvir ijod qilardi.

Mumtoz adabiyotda asosan bayon etish, tavsiflashning ustivorlik qilgani ma’lum. Keyingi davr ijodkorlari esa ifodaning yanada samarali, ta’sirli va haqqoniy usullaridan foydalanishga harakat qildilar. [Quronov S., quronov.narod.ru] Abdulla Oripov esa faqat harakat qilib qolmadi, balki amalda bajardi:

Izlaringni quchib shalola
Qoyalarga tamg‘ang soladi.
Peshvoz chiqib senga gul, lola
Yana kelgin deya qoladi.
[Cho‘pon]

Umuman olganda lirikada tabiat tasviri, ya’ni peyzaj bu birinchi navbatda she’rning jozibadorligiga xizmat qilsa, ikkinchi navbatda va asosan “…inson qalbi kayfiyatlari, kechinmalarini ifodalash uchun eng qulay assotsiativ (o‘xshash) unsurdir” [Mahmudova M., 2013: 26-bet].

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol,
Nega muncha g‘amgin nayning navosi,
Nega qalbim to‘la o‘kinch va malol?

She’r 50-yillar oxirida boshlangan jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni 60-yillarga kelib yana orqaga keta boshlaganligi munosabati bilan 1967-yilda yozilgan. Shoir qalbidan kechayotgan dardlarni tabiat bilan hamohang tasvirlaydi. Ammo she’rga o‘zimizning davr ko‘zimiz bilan qaraydigan bo‘lsa, olam-olam quvonchga, baxt va omadga erishib turganimizda aynan shu kunlarimizni ko‘rishi kerak bo‘lgan birining yo‘qligi sabab, yoki haqiqatda tabiatda bahor fasli-yu, ammo bizning ichimizdagi kayfiyat bahorga munosib kelmagan holatlardagi qalbimizdan kechayotgan ismsiz tuyg‘ularning bundan ham mukammal tasviri boshqa bo‘lmasa kerak.

Peyzaj lirik asarda shunchalik katta o‘rin egalladiki, lirikaning mavzuiy tasnifi qatorida “peyzaj lirikasi” degan tushuncha paydo bo‘lgan. Peyzaj lirikasiga “lirik turga mansub janrlardan biri: tabiat manzaralari va yil fasllarining turli ko‘rinishlarini qahramonning lirik kechinmalari orqali aks ettiruvchi she’r”[53] deb ta’rif beriladi.

Abdulla Oripov she’rlarida shunday o‘ziga xoslik borki, uning misralarini o‘qir ekanmiz, shoir ruhiyatidan tabiatni yoki bahorni ajratib ololmaymiz. Muhammad Yusuf qalbidagi Vatan tasvirini she’rga ko‘chirib o‘ziga haykal qo‘ygan bo‘lsa, Abdulla Oripov “qaldiroqlarni larzakor ko‘chirib” bahorni yetaklab kelaveradi go‘yo.

[53] [Mahmudova M., 2013:29-bet].

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yanog‘ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni.

Zamonidayoq qo‘shiqlarga aylangan bu satrlarni bugun bilmagan kishi yo‘q. Haqiqatda ham bahor kelganida birinchi bo‘lib, bog‘lar va qirlar uyg‘onadi. Ammo bu yerda masala tabiat qonunlarini she’rda isbotlash emas, balki mislsiz go‘zallikning she’riyatga ham qanday ruh va jon berganligini ko‘rsatishda edi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek she’riyatda tabiat tasviri bu shunchaki narsa emas, balki yozuvchining qalbidagi o‘y-fikrlarining ham o‘ziga xos tarannum etish usuli hamdir. Shoirning “Buloq” sarlavhali she’ri aynan buning isboti go‘yo:

Qutlug‘ bir saharda ko‘z ochdi buloq,
Yo‘l soldi daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq
Tog‘u toshlar aro yaqin yo‘l ochib.
Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,
Mayliga, tog‘ni ham ko‘rsin yo‘lida.
Qo‘ying, o‘z yo‘lini o‘zi topsin u,
Zavqlanolsin u ham kurash so‘ngida.

She’rni o‘qir ekanmiz, misralar bizga xuddi xalqimizning yana bir qahramon shoiri Erkin Vohidovning “Kamtarlik” haqidagi mashhur she’rini yodimizga soladi. Unda ham shoir oddiy ijtimoiy holatdagi voqeani katta bir falsafiy mushohadaga bog‘lab go‘zal bir surat chizadi. Yuqoridagi she’r ham yangi ko‘z ochgan buloq haqida ekanligi ma’lum. Ammo shoir shu satrlar orqali har doim ham yoshlarni, yangi iste’dodlarni buyuklar o‘z yo‘lidan yurishga majbur qilmasliklari, balki ularga ba’zan erkinlik berish va chin dildan duo qilishlari kerakligini tasvirlaydi. Shoirning birinchi she’ri “Mitti yulduz” nomi bilan 1965-yilda matbuot yuzini ko‘rgandi. Ammo yuqoridagi misralar 1963-yilda yozilgan. Demak, bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, yosh shoir o‘zi kabi endi ko‘z ochayotgan yosh buloqlarga ustozlar aynan erkinlik berish orqali yo‘l ko‘rsatishi lozimligini ta’kidlab o‘tmoqda.

Shoirning har bir she’rlarini tahlil qilar ekanmiz barchasida yangicha ma’no, majoziy obrazlar va falsafiy qarashlar yaqqol ko‘zga tashlanishini ko‘rishimiz mumkin.

Bir vaqt boshoq edim, qirlarda o‘sdim,
So‘ng yaxlit don bo‘lib qo‘lingga tushdim…
Keyin-chi, tashlading tegirmonga sen,
Taftingda un bo‘lib turibman, do‘stim.

Ushbu misralarda ham shoir hayoti, umr yo‘llari aks etganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. O‘zini boshoqqa qiyos etishi, o‘zbek xalqi asli bug‘doyrang

ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchiman, boshoq hali pishib yetilmagan bug‘doy donalari hisoblanadi, uning bug‘doy bo‘lishiga hali ancha bor ekanligi va o‘zining sevgan go‘shasi – Qashqadaryo vohasining qir, dalalarida o‘sganligini ta’kidlaydi. Ikkinchi misrada boshoqning donga, bug‘doy bo‘lib yetishganligini, asl shoir bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi misralardagi tegirmon ham ramziy obraz, u asl hayot timsoli, tegirmondan kimdir un bo‘lib saralanib chiqganligini ta’kidlaydi. Har kimning hayotda belgilangan o‘rni bor. Bu misralardan ko‘rishimiz mumkinki, boshoq va bug‘doy ramziy obrazlar: ular – shoirning o‘zini aks ettirmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov haqiqatdan ham she’riyatda peyzaj borasida mukammal bir shoirdir. Uning she’rlarida insoniy kechinmalar ham, ijtimoiy muammolar ham tabiat bilan bog‘lanadi. Bu esa adabiyotdagi samoviy miqyos hodisasining yana bir kichik janrlardagi isboti bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom,2000. -17 b.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom,2000. -58 b.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom,2000. -38 b.
4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom,2000. – 39 b.
5. Abdulla Ulug‘ov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, T. “G‘ofur G‘ulom”, 2018.
6. Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari”, T. “Navoiy universiteti”, 2018.
7. Mahmudova Muhayyo. Poeziyada metaforaning o‘rni. – Q.: 2013. – 26 b.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIY VAZIFALAR Choriyeva Durdona Anvarovna Ubaydullayeva Mohira Muzaffar qizi	4
2.	ASSESSING STUDENT’S SPEAKING SKILLS IN ENGLISH LESSONS: TECHNIQUES, CHALLENGES, AND EFFECTIVE PRACTICES Islomova Sevinch Fazliddinovna Yugay Yevgeniya	11
3.	THE IMPORTANCE AND USE OF LITERATURE IN LANGUAGE TEACHING TO YOUNG LEARNERS Ubaydullayeva Baxtigul O‘ktamjon qizi	15
4.	IJRO HOKIMYATINI PARLAMENT OLDIDAGI JAVOBGARLIGINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH Muhammadjonov Abrorjon Akmaljon o‘g‘li	19
5.	THE ROLE OF PHONETICS IN THE FOREIGN LANGUAGE TEACHING PROGRAM WITHIN HIGHER PROFESSIONAL EDUCATION Ergasheva Guli Ismoil kizi Xolmurodova Madina Alisher kizi	25
6.	BUYUK MUHADDIS IMOM ISMOIL AL BUXOIRIYNING OILASI Axmedova Maysara Baxromovna	36
7.	БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ Кадиров Фахриддин Рустамов Рахмат Мансурович	41
8.	EKOLOGIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI Abduraximov Abdulaziz Abdurazzaq o‘g‘li	46
9.	КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ЗАРАРЛОВЧИ ДАСТУРЛАР Кадиров Фахриддин Рустамов Рахмат Мансурович	51
10.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH YO‘LLARI Nazarova Sadoqat Ilhom qizi Matchanova Nazokat Qudrat qizi	59
11.	КАШТАЧИЛИК БУЮМЛАРИДА АНЪАНА ВА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ УЙҒУНЛАШУВИ Абдуллаева Насибахон Арабовна	63
12.	ЭТНИК ЗИДДИЯТЛАР ЁКИ МИЛЛАТЧИЛИКНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ТАРАҚҚИЁТИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ Олмос Тошев	70
13.	ЖАМИЯТДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА АҲЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ ЎРНИ Шапсанова Нодира Бердикуловна	77
14.	TURKIYADAGI 1918 - 1920 YILLARDAGI SIYOSIY JARAYONLARNI TURKISTONDA CHOP ETILGAN MATBUOT NASHRLARIDA YORITILISHI Hamraqulov Serobjon Soliyevich	84

15.	ZARAFSHON MINTAQASI O‘RTA SHAHARLARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI Usmonov Ahrorbek Uyg‘un o‘g‘li	89
16.	GENRE OF VARIATIONS IN THE PIANO WORKS OF S. V. RACHMANINOFF Gaibova Habiba Sodiqjon qizi	95
17.	SHARQIY YEVROPANI KOMMUNIZATSIYALASHTIRISH JARAYONI Yuldashev Akmal Kurbanbayevich	100
18.	VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN QO’LLANILADIGAN BOSHQA JINOIY-HUQUQIY TA’SIR CHORALARNI QO’LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI Shamsidinov Zayniddin Ziyovidinovich Qo’shiyev Mirjalol Saidvali o’g’li	113
19.	YO’LOVCHI TASHUVCHI ELEKTROBUSLARDA BORT AXBOROT TIZIMINING AFZALLIKLARI Raximjonov Muslimjon Ravshanjon o’g’li Xikmatov Ravshan Saidiumarovich	118
20.	SOVET DAVLATINING PARCHALANISHI VA SOBIQ SOVET RESPUBLIKALARIDA MUSTAQILLIKNING E’LON QILINISHI Egamberdiyev Xojiakbar Pahlavon o’g’li	121
21.	TRIATLON SPORT TURIGA YO‘NALTIRILGAN SPORTCHILARDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH USLUBLARI Tilavov Sh. S. Xolboyev N. S.	124
22.	INSULIN QARSHILIGI NIMA? Bakirova Dilorom	128
23.	ТАСКАЗГАН КОНИ ГРАФИТ РУДАСИНИ ФЛОТАЦИОН УСУЛДА БОЙИТИШ ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ Турсунов Азамжон Салимжон ўғли Турдиалиев Умид Мухтаралиевич	132
24.	YUMSHOQ BUG’DOYDA DURAGAYLASH ISHLARI VA (F1) DOMINANTLIK BELGI VA XUSUSIYATLARNING.IRSIYLANISHI Хуррамов Асилбек Абдусамат ўғли G'ulomova Ruxshona Muxtor qizi Elmurodova Nilufar Xudoyor qizi Jo'rayeva Gulrux Abdulla qizi	137
25.	ЭРКИН ВОҲИДОВ ЛИРИКАСИДА ТИЛ ВА УСЛУБ МАСАЛАЛАРИ Давлатжон Каримов	144
26.	РЕСУРС ТЕЖАМКОР УСУЛДА ЕТИШТИРИШДА БАҲОРГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИ РИВОЖЛАНИШ ФАЗАЛАРИНИНГ ЎТИШ ЖАДАЛЛИГИ Бойсунов Нурзод Бекмуродович Хуррамов Асилбек Абдусамат ўғли Ғуломова Рухшона Мухтор қизи Елмуродова Нилуфар Худойор қизи	150
27.	ABDULLA ORIPOV - TABIAT MUSAVVIRI Xolyorov Mirzabek Baxtiyor o‘g‘li	156

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil. 162 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.